

R. FARMONOV, U. JO‘RAYEV,
SH. ERGASHEV

JAHON TARIXI (XVI–XIX asrning 60-yillari)

*Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
VIII sinf o‘quvchilari uchun darslik*

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan to‘rtinchi nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tavsiya etgan



Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2019

UO‘K 94(100)
KBK 63.3(0)ya721
F 91

Mas’ul muharrirlar:

T. Bobomatov – tarix fanlari nomzodi;
A.T. Zamonov – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Taqrizchilar:

Yo. Boltaboyev – Namangan davlat universiteti «Tarix» kafedrasida katta o‘qituvchisi;
N. Hakimov – Respublika Ta’lim markazi metodisti;
G. Pasilova – Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 248-maktab o‘qituvchisi;
O. Ergashev – Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi 22-maktab o‘qituvchisi;
Z. Mirzayev – Toshkent viloyati Piskent tumanidagi 15-maktab o‘qituvchisi.

Ushbu darslik quyidagi mualliflar jamoasi tomonidan yozildi: tarix fanlari nomzodi
Sh. Ergashev (Kirish qismi, I bob, II bob, III bobning 13-, 14-, 19-mavzulari,
V bobning 29-mavzusi, xulosa, xarita va rasmlar); tarix fanlari doktori

R. Farmonov, U. Jo‘rayev hamda **Sh. Ergashevlar**
(III bobning 15-, 16-, 17-, 18-mavzulari; IV bobning 20-, 21-, 22-, 23-, 24-, 25-,
26-, 27-, 28-mavzulari va V bobning 30-, 31-, 32-mavzulari).
Darslikning metodik qurilmasi **J. Abdullayev** tomonidan tayyorlandi.

Shartli belgilar



Ijodiy ish topshirig‘i



Esga oling



Xarita bilan ishlashga doir topshiriq



Internet bilan ishlashga doir topshiriq



O‘zingizni sinang



Atamalar izohi



Badiiy-tarixiy asar bilan ishlashga doir topshiriq



Yodda tuting



Kino-foto-fono materiallar bilan ishlash



Savol va topshiriqlar

Respublika maqsadli kitob jang‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-05-620-6

© R. Farmonov va boshq., 2019
© Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019
© Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2014

KIRISH

YANGI DAVRNING BOSHLANISHI

Aziz o‘quvchi! Siz VII sinfda O‘rta asrlar tarixini o‘rgandingiz. O‘rta asrlarda ham kishilar qishloq xo‘jaligiga tayangan iqtisodiyot va jamiyatda shakllangan an‘analar asosida hayot kechirishni davom ettirdilar. Shu sababli insoniyat tarixining bu davri **agrar sivilizatsiya** yoki **an‘anaviy jamiyat** deb ataladi. Bu jamiyatda kishilar tabaqalarga bo‘linib yashaydi va qadimdan saqlanib kelayotgan an‘anaviy urf-odatlar, diniy tasavvurlar ushbu sivilizatsiyaning xarakterli tomonlari hisoblanadi. Agrar sivilizatsiya insoniyat tarixida neolit davridan boshlanib, XVIII asrning 60-yillaridagi sanoat inqilobi va uning asosida yangi jamiyat shakllanguncha davom etdi.

Yangi davr boshlariga kelib, buyuk davlatlar o‘rtasida Yevropada hukmronlik uchun kurash qizib ketdi. Ayni paytda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida agrar jamiyatning yemirilishi, yangi sivilizatsiyaning shakllanish jarayoni kuzatildi. Bu jarayon qariyb to‘rt asr davom etdi va Yangi davrning oxiriga kelib, inson o‘z dunyoqarashi, tasavvurlar olamining asosiy jihatlari bilan biz hozir ko‘nikib qolgan holatga keldi. Yuz bergan o‘zgarish juda ulkan bo‘lib, uni insoniyat tarixidagi inqilobiy to‘ntarish – ibtidoiy jamoadan sivilizatsiyaga o‘tish bilan tenglashtirish mumkin.

Siz VIII sinfda insoniyat taraqqiyotining keyingi bosqichi – **Yangi tarix** voqealari bilan tanishishni boshlaysiz. Yangi tarix kishilarning tabiiy tengligi, shaxsning erkinligi va sha‘ni kabi demokratik tushunchalarga asoslangan yangicha dunyoqarashning shakllanishi bilan O‘rta asrlardan farq qiladi. Yangi davrning eng xarakterli tomonlaridan biri dunyoni yangicha tushunish asosida insonning tashabbuskorligi, tadbirkorligi uchun keng imkoniyatlar ochilishida namoyon bo‘ldi.

XVI asrdan boshlangan bu o‘zgarishlar natijasida dastlab G‘arbiy Yevropada, keyin esa Shimoliy Amerikada shakllangan yangi jamiyat kapitalistik jamiyat deb atala boshlandi. Bu jamiyatning nomi «*kapital*» so‘zidan olingan. **Kapital** – o‘z egasiga daromad keltiruvchi xususiy mulk (fabrika, zavod, kon, bank va boshqalar) hamda mablag‘, o‘zini o‘zi ko‘paytiruvchi sarmoya. Bu sarmoyaning asosida erkin tadbir-

korlik faoliyati yotadi. Shu sababli kapitalistik jamiyatda xususiy mulk va yollanma mehnatdan foydalanuvchilarga keng imkoniyatlar yaratildi.

Natijada, iqtisodiy hayot gurkirab o'sdi, sanoat ishlab chiqarishi va savdo rivojlandi, kapitalistik munosabatlar vujudga keldi. Ishlab chiqarishning yangi shakllari paydo bo'ldi, mehnat qurollari takomillashdi, sexlar o'rnini manufakturalar egallay boshladi. Yevropaliklarning hayotida ko'plab yangiliklar, ishchanlik, intiluvchanlik kabi yangi belgilar paydo bo'ldi, ularning bir qismi Sharqdan kirib keldi.


Bundan tashqari, Yangi davr rivojlangan shahar madaniyati, Antik davr tarixiga bo'lgan katta qiziqish, uni ideallashtirish, badiiy san'atning tez hayotlashuvi kabilar bilan ham xarakterlanadi. Aslida, ko'pchilik hollarda fojiali oqibatlarni keltirib chiqargan urushlar, qo'zg'olonlar va inqiloblar emas, kishilarning yaratuvchanlik faoliyati, doimiy izlanish va intilish ma'naviyat va madaniyatda, ijtimoiy hayotda va iqtisodiy o'sishda katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Shu o'zgarishlar natijasida G'arbiy Yevropaning ilg'or mamlakatlarida kapitalistik jamiyat zamirida sanoat taraqqiyotiga asoslangan yangi sivilizatsiya shakllandi va u **industrial sivilizatsiya** deb ataldi.

Yevropada industrial sivilizatsiyaning jadal rivojlanishi Yangi tarixning asosiy mazmunini tashkil etadi. Aynan shu jadal rivojlanish tufayli Yevropa dunyoda yetakchi o'rinni egalladi, keyin esa Yer yuzining katta qismini o'ziga bo'ysundirdi.

Jahon tarixida «**Yangi tarix**» davri XV asr oxiri – XVI asr boshlaridagi Buyuk geografik kashfiyotlardan boshlanadi hamda Birinchi jahon urushining yakuni – 1918-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Yangi tarix, odatda, ikki bosqichga bo'linadi. Uning **birinchi bosqichi** – Buyuk geografik kashfiyotlardan XVIII asrning oxiridagi Buyuk fransuz burjua inqilobigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Yangi tarixning **ikkinchi bosqichi** XIX asrning boshidan Birinchi jahon urushining yakuni – 1918-yilgacha davom etadi.

Yangi davrda yuz bergan burjua inqiloblari O'rta asr feodal tartiblarini buzib tashladi va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi uchun keng yo'l ochdi. Iqtisodning jadal rivojlanishi shu davrda amalga oshirilgan fan va texnika yutuqlariga asoslandi. Fan va texnika o'rtasida uzviy aloqa shakllandi. Buning natijasida, XVIII asr oxiridan boshlab, texnika va texnologiyalarda buyuk ixtirolar amalga oshirildi. Bu ixtirolar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ingliz muhandisi Jorj Stefenson tomonidan 1814-yili ixtiro qilingan parovoz temiryo‘l transportining ommalashuvini boshlab berdi. Mashhur fizik va kimyogar olimlar – italiyalik Alessandro Volta, angliyalik Gemfri Devi va Maykl Faradey hamda fransuz Andre-Mari Amper elektrdan foydalanishning asoslarini yaratdilar. Energiyaning bu yangi turidan foydalanish texnikaning yangi sohalarini rivojlantirdi, ishlab chiqarishda, maishiy turmushda ulkan o‘zgarishlarga olib keldi.



Yevropa sanoat inqilobi davrida

Ilmiy va texnik kashfiyotlar ishlab chiqarishning kimyo, elektrotexnika kabi yangi sohaları paydo bo‘lishi uchun asos yaratdi. Hisoblash texnikasi, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, sun‘iy materiallar ishlab chiqarish shakllana boshladi. Bu yutuqlarning ko‘pchiligi XX asrda ham ishlab chiqarishning asosini tashkil qildi.

Yangi davrda o‘zgarishlar sur‘ati rivojlanishning o‘tgan bosqichlariga nisbatan juda tez bo‘lib, fan va texnika sohasidagi kashfiyotlar ishlab chiqarishga jadallik bilan joriy qilinib bordi.

Shu tariqa, XVIII asr oxiri – XIX asrda fan va texnika sohasidagi juda ulkan yutuqlar sanoat inqilobiga olib keldi. O‘z navba-

tida, sanoat inqilobi agrar sivilizatsiyadan sanoat ishlab chiqarishi va industrial sivilizatsiyaga o'tish uchun asos yaratdi. Bu davrda sanoatda yuz bergan jarayonlar natijasida mashinalar ishlab chiqarishdan qo'l mehnatini siqib chiqardi, manufakturalar fabrikalarga o'z o'rnini bo'shatib berdi.

Yangi davr Yevropa xalqlari tarixida ularning turmush tarzini, jamiyatning ma'naviy asoslarini bir necha bor o'zgartirib yuborgan inqiloblar davri edi. Shuningdek, mustamlakachilik asoratiga tushgan Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari tarixida Yangi davr mustaqillik va ozodlik uchun to'xtovsiz kurashlar davri ham bo'ldi. Bu davr Yevropada millatlarning va mutlaq monarxiya ko'rinishidagi milliy davlatlarning shakllanish davri edi. Yuz berayotgan har bir o'zgarishda shakllanayotgan yangicha dunyoqarashning ta'siri sezilib turardi. Eng avvalo, butun O'rta asrlarda hukmronlik qilib kelgan insonni aqliy, ma'naviy kamsitishga va jismoniy cheklashga asoslangan dunyoqarash o'rniga yangi, gumanistik dunyoqarash shakllana boshladi. Bu dunyoqarash shakllanayotgan yangi, industrial sivilizatsiyaning ma'naviy asosi bo'ldi.

Ammo Yangi davrda industrial sivilizatsiya shakllanishi uchun zarur bo'lgan sharoit faqat Yevropa mamlakatlarida vujudga keldi. Osiyo, Afrika va Janubiy Amerikadagi ko'pchilik mamlakatlar XIX asr boshlarida ham qoloq, agrar jamiyat darajasida qolayotgan edi.

Yangi davrda yuz bergan juda katta o'zgarishlar butun dunyo miqyosida ilg'or ishlab chiqarish usullarining tarqalishiga, odamlar hayot tarzining keskin yaxshilanishiga, industrial sivilizatsiya qadriyatlarining qaror topishiga olib keldi. Yangi davr oxiriga kelib, dunyo xaritasi o'zining asosiy jihatlari bilan zamonaviy ko'rinishga ega bo'ldi.



Kapitalistik jamiyat – xususiy mulkning asosini sanoat korxonalarini tashkil etadigan, shuningdek, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va yuqori sanoat ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyat.

Industrial sivilizatsiya – bu iqtisodda bozor munosabatlari shakllangan, jamiyatda siyosiy va ijtimoiy tenglik, huquqiy davlat, kishilarning tabiiy huquqlari, diniy bag'rikenglik kabi qadriyatlar qaror topgan tarixiy davr.



1. Insoniyat tarixining qaysi davri agrar sivilizatsiya deb ataladi?
2. Yangi tarix qanday xarakterli jihatlari bilan O'rta asrlardan farq qiladi?
3. Qanday jamiyat kapitalistik jamiyat deb ataladi?
4. Qanday tarixiy davr industrial sivilizatsiya deb ataladi?



I BOB. YEVROPADA YANGI DAVRNING SHAKLLANISHI

1-mavzu: BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR VA ULARNING TARIXIY AHAMIYATI

Geografik kashfiyotlarning sabablari. XV–XVII asrlarda yevropalik sayyohlar tomonidan Afrika, Amerika, Osiyo va Okeaniyaga dengiz yo‘llarining ochilishi va bu hududlarda yangi yerlarning kashf etilishi tarixda **Buyuk geografik kashfiyotlar** nomini olgan.



O‘rta asrlarda insoniyat tomonidan kashf qilingan qanday muhim kashfiyotlarni bilasiz?

Bu davrda fan va texnika taraqqiyotida yevropaliklar erishgan yutuqlar ularga yangi yerlarni ochish va o‘zlashtirish imkonini berdi.

XV asr oxiriga kelib, okean to‘lqinlariga bardosh beruvchi, shamolga qarshi suza oladigan yelkanli kema — **karavella** yaratildi, kemalarni boshqarish asboblari va san’ati ancha rivojlandi. Karavellalar Atlantika okeanidan xavfsiz suzib o‘ta oladigan ilk kemalar edi. Endi

takomillashgan kompas, usturlob va dengiz xaritalariga ega bo'lgan tajribali dengiz sayyohlari bu kemalarda uzoq masofalarga suzish imkoniyatiga ega bo'ldi.



Karavella

Buyuk geografik kashfiyotlar uchun shu davrda shakllangan Yerning dumaloqligi to'g'risidagi tasavvurlar va Atlantika okeanidan suzib o'tib, afsonaviy boy hisoblangan Hindistonga dengiz yo'lini ochish g'oyasi katta turtki bo'ldi. Osiyoga yevropaliklar tomonidan O'rtayer dengizi orqali o'zlashtirilgan savdo yo'llari XV asrda Vizantiya imperiyasi qulagandan so'ng Usmoniylar davlati tomonidan yopib qo'yildi. Natijada, Yevropa Sharqdan keladigan matolar, bo'yoqlar, zeb-ziyat buyumlari, shirinliklar va ziravorlardan ayrilib qoldi. Bu hol yevropaliklarni yangi savdo yo'llarini izlashga majbur qildi. Savdogarlar bu mahsulotlarni Yevropaga olib kelib sotishdan katta boylik orttirishga umid qilardilar.

Portugaliyaliklarning geografik kashfiyotlari. Atlantika okeani bo'ylab suzishni portugaliyaliklar boshlab berdi. Portugaliya Yevropaning eng g'arbiy qismida joylashgan, Atlantika okeani bilan chegaradosh mamlakat. Shu holat va uzoq dengizchilik tajribasi portugaliyaliklarga Buyuk geografik kashfiyotlarda yetakchilik qilish imkonini berdi.

Portugaliyaliklarning geografik kashfiyotlardagi muvaffaqiyatlari shahzoda **Genrix Dengizchi** nomi bilan bog'liq. Bu jasur dengizchi boshlab bergan yangi yerlarni kashf etish va o'zlashtirish jarayoni Portugaliyaga katta shuhrat va boylik keltirdi. Portugaliyaliklar Afrika qirg'oqlari bo'ylab suzib, XV asrda Madeyra, Kanar va Azor orollarini kashf etdilar. XV asr oxirida **Bartolomeu Diash** boshchiligidagi ekspeditsiya Afrika janubidagi burunni aylanib o'tdi va Hind okeaniga chiqdi. Hindistonga dengiz yo'lining ochilishiga umid qilgan dengizchilar bu burunga **Yaxshi Umid burni** deb nom berdilar. Garchi ular shu yerdan ortga qaytgan bo'lishsa-da, B. Diashning kashfiyoti Afrikani aylanib o'tib, Hindistonga dengiz orqali yo'l ochish istiqbolini yaratdi.

Ayni paytda Afrikada yangi yerlarning kashf etilishi bu qit'aning uzoq yillar yevropaliklar tomonidan talanishi, Afrika aholisining qul qilinib, Yevropa va Amerikaga sotilishi jarayonini boshlab berdi.

Amerikaning kashf etilishi. Portugaliyalik dengiz sayyohlarining muvaffaqiyatlari qo'shni ispanlarda ham bu ishga katta qiziqish uyg'otdi. Yerning dumaloqligi to'g'risidagi tasavvurdan kelib chiqqan dengiz sayyohi **Xristofor Kolumb** Ispaniya qiroliga Atlantika okeani bo'ylab g'arbga qarab suzib, dengiz orqali Hindistonga yo'l ochishni taklif qildi. Ammo bunday tavakkalchilikka rozi bo'ladigan dengizchilarni topish va sayohatni moliyalashtirish juda qiyin bo'ldi. Nihoyat, X. Kolumb boshchiligida tashkil qilingan ispan ekspeditsiyasi uchta tezyurar yelkanli kemada yo'lga chiqib, **1492-yil 12-oktabrda** Bagama orollari tarkibiga kiruvchi bir orolga yetib keldi va uni «San-Salvador» («Muqaddas xaloskor») deb atadi. Shu tariqa Amerika qit'asi kashf etildi. Shundan so'ng X. Kolumb yana uchta ekspeditsiya uyushtirib, ular davomida Antil orollari, Janubiy va Markaziy Amerika qirg'oqlarini kashf etdi. U o'zi kashf etgan yerlarning Hindiston ekanligiga ishonchi komil edi. Shu sababli bu yerlarning aholisini **hindular** deb atadi.

X. Kolumb kashfiyotining mohiyatini anglashda **Amerigo Ves-puchchi** amalga oshirgan sayohat katta ahamiyatga ega bo'ldi. U yangi ochilgan yerlarga XV asr oxiri – XVI asr boshlarida bir necha marta sayohat uyushtirib, ular davomida bu yerlar Hindiston emas, mutlaqo



Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi. 1497–1499-yillar

yangi materik ekanligini isbotladi. Endi bu yangi materik uning sharafiga **Amerika** deb atala boshlandi.

Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi. Yangi yerlarning kashf etilishi portugaliyaliklarda katta qiziqish uyg'otdi. Yana bir dengiz sayyohi **Vasko da Gama** boshchiligidagi ekspeditsiya 1497-yil Afrikani janubdan aylanib o'tib, Hind okeaniga chiqdi. Ular Afrika qirg'oqlari bo'ylab suzib, arab dengizchisi **Ahmad ibn Majid** yordamida 1498-yili Hindistonga yetib keldi. Bu yerdan ko'plab mahsulotlarni yuklagan dengizchilar 1499-yili Portugaliyaga qaytib keldi. Qariyb ikki yil davom etgan sayohatda ekspeditsiya a'zolarining ko'pchiligi halok bo'ldi. Ammo shunga qaramasdan, Vasko da Gama ekspeditsiyasining muvaffaqiyati Yevropaga katta ta'sir ko'rsatdi. Yevropalik savdogarlar Sharqqa qarab otladilar. Hindistondan Yevropaga ziravorlar va shirinliklar olib kelgan savdogarlar juda katta foyda ola boshladilar. Shu tariqa, Hindistonga muntazam dengiz yo'li ochildi.

1519-yili portugaliyalik yana bir dengizchi — **Fernando Magellan** ekspeditsiyasi Amerika janubidagi bir bo'g'ozni aylanib o'tib (keyinchalik Magellan bo'g'ozini deb ataldi), notanish va sokin bo'lgan ulkan okeanga chiqdi. Okeanning boshqa paytlarda bo'ronli bo'lishini bilmagan F. Magellan uni **Tinch okeani** deb atadi. Okeanda uzoq suzish davomida ochlik va kasallikdan hamda yangi ochilgan orollardagi mahalliy aholi bilan bo'lgan janglarda ekspeditsiya a'zolarining ko'pchiligi, jumladan, F. Magellan halok bo'ldi. Ekspeditsiyaning omon qolgan a'zolari Yer sharini aylanib suzib, 1522-yili o'zlari jo'nab ketgan Ispaniya qirg'oqlariga yetib keldi. Dengiz sayyohlaridan juda kam kishi omon qoldi. F. Magellan kashf etgan dengiz yo'li amaliy ahamiyatga ega bo'lmadi, undan uzoq vaqt hech kim foydalanmadi. Ammo bu kashfiyot Yerning dumaloqligini amalda isbotladi.



- ◆ Buyuk geografik kashfiyotlar — bu ...
- ◆ Vasko da Gama amalga oshirgan kashfiyot ...
- ◆ 1492-yili ...
- ◆ 1519–1522-yillari ...

Tinch okeani havzasidagi geografik kashfiyotlar. XVI asrning ikkinchi yarmi — XVII asrning boshlarida ispan dengizchilari Tinch okeani havzasiga bir nechta ekspeditsiya uyushtirdi. Bu ekspeditsiyalar davomida, Sulaymon (Solomon) orollari, Janubiy Polineziya va Melaneziya kashf etildi.

Dengizchilar «**Janubiy Yer**» — Avstraliyani izlashda davom etdilar. **1606-yili** ispan dengizchisi **Luis Torres** Osiyo bilan Avstraliya ora-



Avstraliyaning kashf etilishi

lig'idagi bo'g'ozdan suzib o'tib, yangi qit'a qirg'oqlariga yetdi. Shu yili gollandiyalik **Villem Yanzson** yangi qit'a qirg'oqlariga kelib tushdi va uni Gollandiyaning mulki deb e'lon qildi. Shu tariqa **Avstraliya** kashf etildi. XVII asrning o'rtalarida gollandiyaliklar Avstraliya qirg'oqlarini tadqiq eta boshladilar. **Abel Tasman** Indoneziya qirg'oqlaridan sharqqa tomon suzib, Avstraliyani janubdan aylanib o'tdi va keyinchalik **Tasmaniya** deb atalgan orolni kashf etdi.

Buyuk geografik kashfiyotlarning natijalari. Buyuk geografik kashfiyotlar dunyo taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Ular yevropaliklarning olam haqidagi tasavvurlarini boyitdi, boshqa materiklar va u yerdagi xalqlar to'g'risidagi yangi bilimlarni shakllantirdi.

Yangi bilimlar dastlab Yevropada, keyin boshqa qit'alarda ham sanoat va savdoning rivojlanishi uchun katta turtki bo'ldi. Asosiy savdo yo'llari O'rtayer dengizidan Atlantika okeaniga ko'chdi va savdoning xarakterini tubdan o'zgartirdi.



X. Kolumb ekspeditsiyasi **1492-yil 12-oktabrda** Bagama orollariga yetib keldi.

XVI asrning ikkinchi yarmi – XVII asrning boshlarida ispan dengizchilari Sulaymon orollari, Janubiy Polineziya va Melaneziyani kashf etishdi.

Biroq yangi yerlarni o'zlashtirish bo'ysundirilgan xalqlarni dahshatli ekspluatatsiya qilish bilan qo'shib olib borildi, **jahon mustamlaka tizimi shakllandi**. Zabt etish jarayonida mahalliy aholining bir qismi qirilib ketdi, qadimgi sivilizatsiyalarning ko'plab o'choqlari yo'q qilindi, mustamlaka mamlakatlar xalqlari shakllanayotgan kapitalistik munosabatlarga zo'rlik bilan jalb qilindi va o'z mehnati bilan Yevropada kapitalizm rivojlanishi jarayonini tezlashtirdi. Shu tariqa ular yangi industrial sivilizatsiya shakllanishiga o'z hissalarini qo'shdilar. Buyuk geografik kashfiyotlarning eng salbiy oqibatlaridan biri qul savdosining xalqaro miqyosda rivojlanishi bo'ldi.

Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli yevropaliklarning Yer yuzi va uning aholisi to'g'risidagi tasavvurlari to'liq o'zgardi. Amerika, Osiyo va Afrikada Yevropa davlatlarining mustamlakalari paydo bo'lib, asta-sekin jahon mustamlaka tizimi shakllandi.



Karavella – XV–XVII asrlarda Yevropada keng tarqalgan yelkanli kema.

Ekspeditsiya – maxsus belgilangan maqsad bilan uyushtiriladigan sayohat.

Burjuaziya – kapitalistik jamiyatda mehnat qurollari va ishlab chiqarish vositalariga egalik qiluvchi va ulardan daromad oluvchi hukmron sinf.



1. Hindistonga g'arbdan yo'l ochish nima uchun zaruratga aylanib qoldi?
2. Amerikaning kashf etilishi yevropaliklar hayotida qanday o'zgarishlarga olib keldi?
3. Amerikaning tub aholisi madaniyati haqida nimalarni bilasiz?
4. Buyuk geografik kashfiyotlar Amerikaning tub aholisi taqdirida qanday rol o'ynadi?



Xarita bilan ishlashga doir topshiriq

Matnda keltirilgan xarita bilan tanishing va Buyuk geografik kashfiyotlarni amalga oshirgan davlatlarni o'zlashtirilgan yoki «yangi ochilgan» hududlar bilan muvofiqlashtiring.



«Buyuk geografik kashfiyotlar natijalari shundaki, ...» mavzusida esse yozing.



n.ziyouz.com saytidan Jyul Vernning «O'n besh yoshli kapitan», «Yer markaziga sayohat» asarlarini ko'chirib oling va o'qing. Mustaqil ravishda «Dengiz sayohatining afzalliklari shundaki, ...» mazmunida esse yozing.



Mavzuga aloqador «Kolumb» yoki Jyul Vernning «O'n besh yoshli kapitan» asari asosida ishlangan badiiy filmlarni ko'ring va xulosa chiqaring.

2-mavzu: YANGI DAVR BOSHLARIDA G'ARBIY YEVROPA MAMLAKATLARIDA INDUSTRIAL JAMIYATNING SHAKLLANISHI

Yangicha iqtisodning shakllanishi. Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng Amerikadan oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar Yevropa bozorlariga ko'plab keltirildi. Qirollar mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan ancha ko'p oltin va kumush tangalar zarb qildilar. Pul ko'paygan sharoitda hunarmandlar va savdogarlar kasodga uchramaslik uchun o'z tovarlarining narxini oshirishga majbur bo'ldi. Shu tariqa yuz yillar davomida o'zgarmasdan kelgan narxnavo shiddat bilan o'sa boshladi. Bu jarayon «**narx-navo inqilobi**» deb ataldi. Yevropa mamlakatlarida odamlar yashash uchun pul topishning yangi yo'llarini izlashga tushdi. Ko'plab oilalar endi ilgorigidek natural xo'jalik yurita olmasdan, mahsulotning bir qismini bozorda sotishga majbur bo'ldi. Natijada, Yevropada **tovar ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar**, ya'ni bozorda sotishga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar soni ko'payib bordi.



Yevropada tashkil qilingan qaysi dastlabki birjalarni bilasiz?

Kapitalistik munosabatlarning paydo bo'lishi. Bozor munosabatlari jadal rivojlanayotgan Angliya, Niderland qirolligi va Fransiya kabi mamlakatlarda savdogarlar ulgurji savdoga katta ehtiyoj seza boshladi. Ular endi vaqt-vaqti bilan o'tkaziladigan yarmarkalarga mahsulot olib borish o'rniga, yirik shaharlarda tashkil qilingan va **birja** deb atalgan maxsus joylarda o'z mahsulotlarini e'lon qila boshladi. Shu yerda xaridorlar bilan oldi-sotdi shartnomasi tuzilib, mahsulot kelishilgan joyga jo'natilar edi.

Birjalar bilan bir qatorda, zamonaviy banklarning paydo bo'lishi ham Yangi davr sivilizatsiyasining buyuk yutug'i bo'ldi. O'rta asrlarda banklar rolini pul maydalaydigan sarroflik do'konlari bajarar edi. **XV asrda** zamonaviy ko'rinishdagi ilk bank – Genuyadagi Avliyo Georgiy banki paydo bo'ldi.

Keyin G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham savdogarlarga xizmat ko'rsatuvchi shunday banklar vujudga keldi. Birja va banklar Yevropada savdo va sanoatning rivojlanishida juda katta rol o'ynadi.

Xavf-xatar katta bo'lgan uzoq masofalar bilan savdo qilish uchun savdogarlar **aksionerlik kompaniyalariga** birlasha boshladi. Ular kompaniyaning umumiy xarajatlari uchun mablag' qo'shib, foydadan o'z ulushini olish huquqini beruvchi qimmatbaho qog'oz – **aksiyaga** ega bo'lardi.

Bozorlarda mahsulotning ko'payishi natijasida uni ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar o'rtasida **raqobat** paydo bo'ldi. Raqobatda mag'lub bo'lib, kasodga uchramaslik uchun mahsulotni tez, sifatli va arzon ishlab chiqarish talab qilinardi. Shu sababli Yevropada mahsulot ishlab chiqarish texnika va texnologiyasi jadal rivojlandi, yangi ixtirolar ko'paydi, mahsulot narxi arzonlashib, odamlarning yashash darajasi yaxshilanib bordi.



Yangi davr boshlarida Yevropa bozorlaridan biri



◆ Aksionerlik kompaniyalari – bu ...
◆ Birja – bu ...

◆ Aksiya ...

Dehqonlar O'rta asrlardagi **uch dalali** ekishdan **ko'p dalali** ekishga o'tdi. Natijada, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosildorligi oshib, sotish uchun mahsulot ko'paydi. Bug'doyni yanchish, shaxtadan suv chiqarish uchun **suv charxpalagi** va **shamol tegirmonidan** keng foy-

dalanish boshlandi. Tokarlik, to'quvchilik va boshqa eng oddiy dastgohlar yaratildi.

G'arbiy Yevropada savdo va texnikaning rivojlanishi natijasida hamma o'z kapitalini ko'paytirishga kirishdi. Masalan, shahardagi eng boy to'quvchi yoki savdogar turli yo'llar bilan hunarmand to'quvchilarni kasodga uchratadi. Shundan so'ng ularning iplarini, bo'yoqlarini, to'quv dastgohlarini arzonga sotib olib, o'zini ishga taklif qiladi. Bitta katta bino ostida ko'plab hunarmandlar yig'ilib, ularning har biri bitta ish, masalan, kimdir matoni to'qish, boshqasi uni bo'yash kabi ishlar bilan shug'ullanadi. Bu mehnat unumdorligini keskin oshirib, mahsulot sifatini yaxshilaydi. Ishlab chiqarishda mashinalar hali qo'llanilmagan katta korxonalar **manufaktura** deb ataladi. **Manufaktura** – qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish degan ma'noni anglatadi.

Manufakturada ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning hammasi uning egasiga tegishli bo'lardi. U mahsulotni bozorda sotib, foydaning bir qismini yollanma ishchilarga ish haqi tarzida berardi. Shu tariqa G'arbiy Yevropada **kapitalistik munosabatlar** shakllana boshladi. Kapitalistik munosabatlarning shakllanishi bozor sharoitida mayda tovar ishlab chiqarilishi rivojlanishining qonuniy natijasi bo'ldi. U asta-sekin O'rta asrchilik feodal munosabatlarini siqib chiqardi.

Yangi jamiyat kishilari. Kapitalistik munosabatlar jadal rivojlangan G'arbiy Yevropa mamlakatlarida kishilarning yangi tipi – **tadbirkor** paydo bo'ldi. Tadbirkor kim edi? Tadbirkor o'z shaxsiy muvaffaqiyatiga erishish uchun har qanday ishga, tadbirga tayyor bo'lgan omilkor shaxs edi. Eski gildiyadan chiqib aksionerlik kompaniyasiga a'zo bo'lgan savdogar, o'z sexini tark etib manufakturaga kirgan hunarmand, qishloq jamoasi tarkibidan chiqqan va yerni feodaldan ijaraga olib fermaga aylangan kechagi dehqon tadbirkor bo'lishi mumkin edi. Bu tadbirkorlarning barchasi yollanma mehnatdan foydalanardi, bozorda raqobatchilik qilardi va kapital yig'ardi. Shu tariqa jamiyatning yangi qatlami – **burjuaziya** paydo bo'ldi.

Boyib ketgan burjuaziya vakillari eski zodagonlardek kiyinib, o'zlariga hashamatli uylar qura boshladi. Ular o'zlari yashaydigan hududlarni toza va obod qildi, natijada O'rta asrlardagi vabo, o'lat kabi yuqumli kasalliklar chekinib, aholi tez ko'paydi. Boy burjuaziya vakillari eski zodagonlar bilan quda-andachilik qilib, o'zlariga yuqori martaba va unvonlar sotib oldi. Burjuaziyaning bu qatlami **yangi**

zodagonlar deb ataldi. Ular ruhan tadbirkorlikka yaqinligi bilan eski zodagonlardan farq qilardi.



XV asrda zamonaviy ko‘rinishdagi ilk bank – Genuyadagi Avliyo Georgiy banki paydo bo‘ldi.

Bozorlarda mahsulotning ko‘payishi natijasida uni ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar o‘rtasida raqobat paydo bo‘ldi.

Ammo yangicha turmushda hamma ham o‘z o‘rnini topa olmadi. Nogironlar va yetimlarning ahvoli avvalgidan ham og‘irlashdi. Tez orada minglab ishsizlar ham ular safiga kelib qo‘shildi. Ularning bir qismi manufakturalar va fermerlar yerlariga ishga yollandi. Shu tariqa yangi jamiyatda yollanib ishlaydigan yana bir qatlam – **ishchilar** paydo bo‘ldi.

Xo‘jalik yuritishning yangi shakli va yangicha hayot tarzi turli tabaqa vakillarini bir-biriga yaqinlashtirdi. Endi ular bir-biridan ilgarigidek huquq va majburiyatlari bilan emas, kapitalining bor yoki yo‘qligi, daromad darajasi bilan farq qilardi. Kishilar bir-biridan kapitalning mavjudligi va daromad darajasiga qarab farqlanadigan jamiyat **sinfy jamiyat** deb ataladi.

Yer-mulkidan, uyi va mehnat qurollaridan mahrum bo‘lgan, o‘z xohishi bilan kapitalistga ishga yollanuvchi va mehnati uchun ish haqi oluvchi kishilar **yollanma ishchilar** – **proletariat sinfiga** birlashdi.

Shu tariqa G‘arbiy Yevropada jamiyatning tabaqaviy bo‘linishi tugatilib, yangi, sinfiy bo‘linish shakllandi va zamonaviy sivilizatsiya-nang asosiy jihatlari qaror topib bordi.

Yangi davrda Yevropa shaharlari. Shaharlarning rivojlanishi har doim ularning geografik joylashuviga bog‘liq bo‘lgan. Yevropaliklar tomonidan Hindiston va Amerikaga dengiz yo‘llarining ochilishi muhim savdo yo‘llarining yo‘nalishini o‘zgartirib, bir qator shaharlarning jadal rivojlanishiga olib keldi. Dastlab Portugaliyaning Lissabon va Ispaniyaning Sevilya shaharlari jadal rivojlandi. Bu shaharlarga Hindistondan tovarlar, Amerikadan qimmatbaho metallar ko‘plab keltiriladi. Yangi savdo yo‘llaridan chetda qolgan Italiya shaharlari, aksincha, o‘zlarining avvalgi ahamiyatini yo‘qotdi.



◆ Manufaktura – ...
◆ XVI asrning ikkinchi yarmidan ...

◆ Yangi zodagonlar – bu ...

XVI asrning ikkinchi yarmidan Yevropaning savdo chorrahalari Shimoliy dengiz qirg'oqlariga ko'chdi. Bu yerda asosiy savdo markazi Niderland qirolligining **Antwerpen** shahri bo'lib qoldi. Ammo Antwerpen ham tezda o'z mavqeyini yo'qotdi. Angliyaning jadal iqtisodiy taraqqiyoti uning poytaxti **London** shahrini Yevropaning asosiy savdo markaziga aylantirdi. Temza daryosi bo'yida joylashgan London juda tez rivojlandi, shaharda yangi portlar, ishchilar uchun ko'pqavatli uylar, savdo rastalari va istirohat bog'lari paydo bo'ldi.

O'rta asrlardayoq Yevropaning eng yirik shahriga aylangan **Parij** ham rivojlanishda davom etdi. U G'arbiy Yevropadagi eng katta markazlashgan davlat – Fransiyaning poytaxtiga aylandi. Ammo XVI asrdagi diniy urushlar va vabo epidemiyasida o'n minglab parijsliklar vafot etdi, shaharning rivojlanishi sekinlashdi.

Yangi davrda fan, texnika va sanoatning rivojlanishi G'arbiy Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini o'zgartirib yubordi. Yangicha iqtisod va kapitalistik munosabatlar shakllandi. Yangi jamiyatning asosiy sinflari – kapitalist va proletariat paydo bo'ldi. Asosiy qadriyati inson erkinligi va tengligi bo'lgan yangi, industrial sivilizatsiya qaror topib bordi.



Kapital – bu mulk, yollanma mehnatdan foydalanib, qo'shimcha qiymat olish vositasi.

Gildiya – bu o'z a'zolarining manfaatlarini himoya qilish uchun tuzilgan savdogarlar va hunarmandlar uyushmasi.

Proletariat – bu ishlab chiqarish quroli va vositasidan mahrum bo'lgan yollanma ishchi.



1. Birja va banklar Yevropada savdo-sanoatning rivojlanishida qanday muhim o'rin egallaydi?
2. XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab savdo chorrahalari Yevropaning qaysi hududiga ko'chdi va nima uchun?
3. G'arbiy Yevropada kapitalistik munosabatlar qay tariqa shakllana boshladi?
4. Zamonaviy ko'rinishdagi ilk bank qachon va qaysi hududda vujudga keldi?



Internet bilan ishlashga doir topshiriq

Internetdan «Yangi davr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti» mavzusiga doir suratlarni izlab toping va rasmi klaster tuzing.



Mavzu matnida qora rang bilan berilgan atamalarni qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil qidirib toping va ma'nosini yanada chuqurroq o'zlashtirib, daftaringizga yozing.

3-mavzu: YEVROPADA REFORMATSIYA

Reformatsiya arafasida Yevropa jamiyati. Oʻrta asrlarda din Gʻarbiy Yevropa jamiyati hayotida kuchli taʼsirga ega edi. Ammo davr oxiriga kelib, odamlar orasida mavjud diniy tartiblardan norozilik kuchaydi. Endi cherkov tartiblari koʻplab yevropaliklarni qanoatlantirmay qoʻydi. Cherkov marosimlari lotin tilida oʻtkazilib, bu til oddiy odamlar uchun tushunarsiz edi. Shuningdek, ular xristianlarning muqaddas kitobi – Injilni ham tushunmasdi. Kun kechirish ogʻir boʻlib qolgan Yangi davr boshlarida dehqonlar va shaharlik kambagʻallar qiyinchilik bilan ishlab topgan hamda oilasini boqishga zoʻrgʻa yetadigan pullarining bir qismini cherkov-u ruhoniylarga berishni istamasdi. Ruhoniylarning qimmatbaho kiyimlari va taqinchoqlari, cherkovni bezashda qoʻllanilgan haykal hamda rasmlar pulning qadrini biladigan tejamkor tadbirkorlarning jahlini chiqarar edi. Ruhoniylar toʻplagan juda katta boyliklarning bir qismini **indulgensiyalar** – gunohlarni afv etganlik toʻgʻrisida Rim papasining maxsus yorligʻini sotishdan tushgan pullar tashkil qilardi. Puldor kishilar, hatto hali qilib ulgurmagun gunohlari uchun ham indulgensiyalar sotib olardi. Papa va kardinallar turli xil hiyla va nayranglar bilan Yevropa davlatlarining ichki ishlariga aralashar, bundan esa hukmdorlar ham norozi edi.

Reformatsiyaning boshlanishi. Jamiyatdagi umumiy norozilik sharoitida Gʻarbiy Yevropada xristianlik cherkovini isloh qilish uchun harakat boshlanib, bu jarayon **Reformatsiya** (*reforma* – islohot) deb ataldi. Yangi davr boshlarida tarqoq knyazliklardan iborat boʻlgan Germaniyaning ichki ishlarida hal qiluvchi rolga katolik cherkov daʼvo qilardi. Germaniyada juda katta yerlar, hatto butun boshli shaharlar ham katolik cherkoviga qarashli edi. Indulgensiya sotuvchi ruhoniylar va cherkov soliqlarini yigʻuvchilar butun Germaniya boʻylab kezib yurardi.



Oʻrta asrlarda katolik cherkovi qaysi omillar sababli oʻzining qudratiga erishgan edi?

Reformatsiya **1517-yili** Germaniyaning Vittenberg universiteti ilohiyot fani professori Martin Lyuterning «**95 tezislar**» deb ataluvchi indulgensiyalarga qarshi daʼvati bilan boshlandi. Aslida faqat ilmiy munozara uchun moʻljallangan ushbu tezislar lotinchadan nemis ti-



XVI asrda Yevropada Reformatsiya

liga tarjima qililib, butun Germaniyani hayajonga soldi. M. Lyuterning bu qilmishi Rim papasining jahlini chiqardi. U M. Lyuterni Vorms shahar sudiga chaqirdi. Papa M. Lyuterdan o'z g'oyalardan voz kechishni talab qildi, lekin u papaga bo'ysunishdan va indulgensiylarning sotilishini ma'qullashdan bosh tortib, sudda yorqin nutq so'zladi. M. Lyuterning suddagi nutqi xalqni to'liq qinlantirib yubordi. Uning tarafdorlari o'z mazhabi va cherkovini tashkil qildilar. Ular **lyuteranlar** deb ataldi.



Martin Lyuter

Yevropada **Reformatsiya** – katolik cherkovni isloh qilish jarayoni shunday boshlandi.

Dehqonlar urushi. Yevropada an’anaviy jamiyatning inqirozi va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi zodagonlar va knyazlarda o‘z daromadini oshirish istagini kuchaytirdi. Ular jamoa yerlarini egallab olib, dehqonlarning ulushini qisqartirdi, natural va pul yig‘imlarini, dehqonlarning ishlab berish majburiyatlarini oshirdi. Amerikadan g‘alla va kumushning oqib kelishi natijasida yuz bergan narxnavo inqilobidan ham, avvalo, Yevropa dehqonlari aziyat chekdi. Dehqonlarning og‘ir ahvoli ularni qo‘zg‘olon ko‘tarishga majbur qildi.

Dehqonlar qo‘zg‘oloni **1524-yil** yozida Germaniyada boshlandi. **Xalq Reformatsiyasi** deb atalgan bu qo‘zg‘olonga ruhoniy **Tomas Myunser** boshchilik qildi. Qo‘zg‘olon tez orada butun Germaniyani qamrab oldi va **Buyuk dehqonlar urushi** degan nom oldi. Unda o‘n minglab dehqonlar qatnashdi. Bir yildan oshiq davom etgan qo‘zg‘olon 1526-yil boshida mag‘lubiyatga uchradi. Uning ko‘plab ishtirokchilari qattiq jazolandi, T. Myunser qatl qilindi.



◆ Lyuteranlar – bu ...

◆ Reformatsiya – bu ...

◆ «95 tezislar»ning mazmun-mohiyati – bu ...

Shundan so‘ng reyxstag (parlament)da ko‘pchilik bo‘lgan katoliklar Reformatsiyaning yutuqlarini bekor qilish tashabbusi bilan chiqdi. M. Lyuter tarafdorlari esa bunga norozilik bildirdi. Shu paytdan boshlab ular **protestantlar** (*protest* – norozilik) deb atala boshlandi.

Kalvinizm va Reformatsiyaning Yevropaga yoyilishi. Reformatsiya butun Yevropa bo‘ylab tarqaldi. Protestantlikning yangi oqimlari paydo bo‘ldi. Ulardan biriga Jeneva shahrida fransuz **Jan Kalvin** asos soldi.

«Duo o‘qi va ishla!» degan shior J. Kalvin ta’limotining asosi bo‘ldi. Bu shior boylik orttirishni asosiy maqsad qilgan yangi zodagonlar va burjuaziyaga ma’qul keldi. Ular J. Kalvinni qo‘llab-quvvatladilar.

Reformatsiya Yevropada katolik cherkovining yakka hukmronligiga chek qo‘ydi. Reformatsiyaga qarshi kurashning kuchayishiga qaramasdan, bir qator Yevropa mamlakatlari Rim papasiga bo‘ysunmay qo‘ydi. Protestantlik mamlakatlarida qirollik hokimiyati kuchayib, cheksiz mustaqillikka ega bo‘ldi. Ko‘pchilik mamlakatlarda milliy cherkovlar tashkil qilindi. Protestantlikning Injilni mustaqil o‘qish, Xudo oldida shaxsiy javobgarlik hissi kabi o‘ziga xos jihatlari aholi

orasida **individualizm**ning rivojlanishiga ko‘maklashdi. Injilni mustaqil o‘qish ehtiyoji kishilarni savodli bo‘lishga undadi, protestantlik mamlakatlarida savodxonlikning oshishi uchun muhim omil bo‘ldi.

Reformatsiya natijasida paydo bo‘lgan protestantlik butun Yevropaga yoyildi va xristianlikning yangi ta‘limotlari hamda yangi cherkovlarning shakllanishiga olib keldi.

Reformatsiyaga qarshi kurash (kontr-reformatsiya). Katolik cherkov Uyg‘onish va Reformatsiyada o‘z aksini topgan diniy no-rozilik bilan kelisha olmas, shuningdek, murosa qilishni xohlamas ham edi. Shu sababli Reformatsiyaga qarshi kurashish uchun Rim papasi 1540-yili «**Iso jamiyati**» yoki iyezuitlar («*Iyезus*» – Iisus, Iso) ordenini ta‘sis etdi.



Ignatij Loyola Rim papasi huzurida

Iyezuitlar oldiga «adashgan olomoni cherkovga qaytarish» vazifasi qo‘yildi. «Iso jamiyati»ning asoschisi ispan zodagoni **Ignatij Loyola** bo‘ldi. Reformatsiya tufayli bir qator Yevropa mamlakatlarida hukmronlikni qo‘ldan boy bergan Rim papasi jon-jahdi bilan o‘z mavqeyini tiklashga intildi. Siyosiy jihatdan tarqoq bo‘lgan Italiya Papa boshliq katolik reaksiyaning barcha dahshatini o‘zida his qildi. Papa dindan qaytganlarni jazolashni inkvizitsiya sudiga topshirdi. Dindan qaytganlar sud hukmiga ko‘ra gulxanlarda yoqildi.



1524-yili Germaniyada dehqonlar qo‘zg‘oloni boshlandi. Xalq Reformatsiyasi deb atalgan bu qo‘zg‘olonga ruhoniy Tomas Myunser boshchilik qildi.

Rim papasi 1540-yilda Reformatsiyaga qarshi kurashish uchun «Iso jamiyati» yoki iyezuitlar («*Iyезus*» – Iisus, Iso) ordenini ta‘sis etdi.

Katolik cherkovi ilg‘or ilmiy va falsafiy fikrga qarshi kurashdi. Yoqib yuborilishi lozim bo‘lgan, taqiqlangan kitoblar ro‘yxati e‘lon qilindi. Katolik cherkov tomonidan protestantlarga qarshi qo‘llanilgan barcha tadbirlar tarixda **kontrreformatsiya** nomini oldi.

XVI asrdagi kontrreformatsiya jarayonida G‘arbiy Yevropa katolik va protestant qismlarga bo‘linib ketdi. Germaniya, Fransiya kabi davlatlar aholisi bir-biriga dushman ikki diniy mazhabga ajralib, bir-biriga qarshi urushlar olib bordi. Bu urushlarda o‘n minglab kishilar halok bo‘ldi. Ammo Reformatsiyaga qarshi kurash to‘liq g‘alaba qozonishi mumkin emasdi. Zotan, bu davrda Yevropada fan va ma-

daniyatning yuksalishi, kapitalistik munosabatlarning qaror topib borishi, odamlarning erkinlik va mustaqillik sari intilishi katolik cherkov asoslarini vayron qildi. **Reformatsiya** – bu katolik cherkovining inqiroz davri bo‘ldi.



- ◆ Protestantlar – bu ...
- ◆ Individualizm – bu ...
- ◆ Kalvinizm – bu ...
- ◆ Kontrreformatsiya – bu ...

Reformatsiya tarixda chuqur iz qoldirdi, Yevropa jamiyatining ma’naviy, siyosiy va iqtisodiy xarakterini o‘zgartirib yubordi. Reformatsiya natijasida milliy cherkovlar paydo bo‘ldi, dunyoviy hokimiyat mustahkamlandi, millatlarning shakllanishi va milliy davlatlarning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratildi. Reformatsiya industrial sivilizatsiyaning qaror topishini tezlashtirdi, shaxsning erkinligi va tashabbuskorligiga keng yo‘l ochilib, demokratik qadriyatlar shakllandi.



1. Yevropada Reformatsiyaning boshlanishiga qanday omillar sabab bo‘lgan?
2. Germaniyani qamrab olgan **Buyuk dehqonlar urushining** asosiy sabablari nimalardan iborat edi?
3. Kalvinizm protestantlik diniy ta’limoti sifatida qaysi jihatlari bilan ommani o‘ziga jalb qila oldi?
4. «Iso jamiyati» yoki iyezuitlar ordenining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi nimalardan iborat edi?
5. «Duo o‘qi va ishla!» shiori O‘rta asrlarda O‘rta Osiyodagi qaysi tariqat tamoyillariga mosligini toping. Misollar keltiring.



Xarita bilan ishlashga doir topshiriq

Xaritadan foydalanib, G‘arbiy Yevropada Reformatsiya bo‘lib o‘tgan hududlarni aniqlang.



Mavzu matnida qora rangda berilgan atamalarni qo‘shimcha adabiyotlardan toping va mazmunini izohlab, daftaringizga yozing.

4-mavzu: G‘ARBIY YEVROPADA YANGI DAVR MADANIYATINING SHAKLLANISHI

Uyg‘onish davri madaniyati. Yangi davr boshlarida Yevropaning ko‘pgina mamlakatlari misli ko‘rilmagan madaniy yuksalishni boshidan kechirdi. Fan taraqqiyotidagi yutuqlar kishilarning olam haqi-

dagi tasavvurlarini o'zgartirib yubordi, madaniy aloqalarni kengaytirishga imkon beradigan yangi ufqlar ochildi. Fan va san'atda ulkan o'zgarishlar yuz berdi. Olimlar, ijodkorlar ideal va namuna izlab Antik davr madaniyatiga murojaat qildilar.

Ilgari fan va adabiyot tili bo'lgan lotin tili o'rniga italyan, ispan, fransuz kabi xalq tillari rivojlandi. XVI asrda yashagan fransuz shoiri bu jarayonni o'z she'rida shunday ifoda etadi:

*Men o'tmishni o'rganib, o'zligimga yo'l topdim,
Nutqim bo'ldi tartibli, so'zlarim ko'p ma'noqlik.
Men she'riyatdan tartib, musiqadan zavq topdim,
Rimlik va yunon kabi fransuz bo'ldi buyuk.*

Shu tariqa, XIV asrga kelib, avval unutilgan antik madaniyat qayta tiklana boshladi va bu jarayon **Renessans – Uyg'onish** nomini oldi. Uyg'onish Yangi davr bo'sag'asida turgan jamiyatning ma'naviy yangilanishida katta rol o'ynadi. Insonning bu dunyodagi o'z o'rnini qayta anglashi, taqdirdan in'om kutib emas, faol yaratuvchi bo'lib yashash hissi yangi industrial sivilizatsiyaning shakllanishida asosiy omillardan biri bo'ldi.

Gumanizm. Uyg'onish davrida insonga nisbatan munosabatlarda buyuk burilish yuz berdi. Odamlar hayotning quvonchlarini qadrlashga o'rgandi, tabiatga, jamiyatga, insonga yangicha qaraydigan bo'ldilar. O'rab turgan olamga ilohiy emas, dunyoviy, insoniy qarash tarafdorlari **gumanist** (*humanus* – insoniy) deb ataldi. Gumanistlar inson haqidagi O'rta asrchilik tasavvurlarini rad etdi, ular har bir shaxsning noyobligi va qadrini ko'rsatishga urindilar. Bilim va erkin fikr o'ziga yo'l ochib bordi. O'rta asrlardagi ta'qib va cheklashlardan so'ng fan va san'at diniy taqiqdan chiqdi.

Gumanistlar dastlab cherkov tomonidan ta'qib qilindi, ularning asarlari yondirildi. Ammo XVI asrga kelib, ko'plab ruhoniylar va hatto Rim papalari ham gumanizm g'oyalari bilan qiziqib, gumanistlarga o'z fikrlarini erkin bayon qilish imkonini berdi.

Gumanizm XIV asr o'rtalarida dastlab Italiyada paydo bo'ldi. Keyinroq boshqa mamlakatlarda ham italyan gumanistlarining izdoshlari va tarafdorlari ko'paydi.

Angliyada ularning g'oyalari dono siyosatchi va qirolning birinchi vaziri **Tomas Mor** (1478–1535)ga kuchli ta'sir ko'rsatdi. U o'z asarida



Tomas Mor



Uilyam Shekspir

ideal davlat namunasini yaratib, uni «Utopiya» deb atadi. Utopiya «mavjud bo‘lmagan yer» ma’nosini anglatadi. O‘shandan buyon xayoliy, aslida bo‘lmagan adolatli jamiyat haqidagi asarlar va ularda ilgari surilgan g‘oyalarni «utopiya» deb atashadi.

Adabiyot va san’at. Uyg‘onish davri adabiyoti va san’atida o‘z davrining buyuk kishilari ijod qildilar. Saxiy tabiat ularning har biriga ko‘p qirrali noyob qobiliyat in’om etgan edi. Bunday noyob qobiliyat egalaridan biri **Uilyam Shekspir** (1564–1616) bo‘lgan.

U «Inson – tabiatning ajoyib mo‘jizasi», deb hisoblardi. Shekspir teatrga muhabbat qo‘ydi. Ham aktyor, ham dramaturg sifatida ijod qildi. U insonlarni o‘rab turgan olamni sahna, odamlarni esa aktyorlar deb tasavvur qilardi. Shekspir kelgusi avlodlarga «Otello», «Hamlet», «Qirol Lir» hamda «Romeo va Juletta» kabi mashhur asarlarini meros qoldirdi.



Migel de Servantes

Bu davr adabiyotining yana bir yirik arbobi, ispan yozuvchisi **Migel de Servantes**dir (1547–1616). Uning mashhur «Don Kixot» asari qahramoni – jahongashta Don Kixot adolatsizlik olamidagi so‘nggi oliyjanob ritsar. Atrofdagi adolatsizliklar uning oliyjanob qalbini g‘azabga to‘ldiradi. U haqiqiy ritsar kabi xo‘rlanganlar himoyasiga otlanadi.



«Mona Liza»

Tasviriy san’at. Uyg‘onish davri madaniyatining yana bir buyuk namoyandasi italiyalik **Leonardo da Vinchi** (1452–1519) edi. U bir vaqtning o‘zida rassom, shoir, me’mor, haykaltarosh, musiqachi va ixtirochi olim edi. Leonardo rasm chizish san’atini «san’atlar malikasi» deb atagan.

Leonardo asarlarining qahramonlari xudolar va avliyolar emas, balki oddiy odamlar edi. Uning eng mashhur asarlaridan biri – «Mona Liza» («Jokonda»).

Asarda Mona Liza tomoshabinga tik boqib turibdi, lablarida sezilar-sezilmas tabassum, «u shunchalar yoqimlik, suratni ko‘rib insoniylikdan ko‘ra ko‘proq ilohiy oziq olasan...», deb yozgan edi o‘sha

davr tarixchilaridan biri. Bu davrning buyuk rassomlaridan yana biri italiyalik **Rafael Santi** (1483–1520) edi. U atigi 37 yil umr ko‘rdi, xolos. Lekin shu qisqa davr ichida o‘z nomini abadiylikka muhrlagan asarlar yarata oldi. «Sikstin madonnasi» u yaratgan asarlar ichida eng mashhuridir. Unda oyoqyalang Bibi Maryam go‘yo bulutlarni bosmayotgandek, ohista, ularning ustida uchib yurgandek o‘z qismatiga peshvoz chiqmoqda. Hali go‘dak Isoning nigohlari kattalarnikidek jiddiy. U go‘yo kelajakdagi azob va o‘limni oldindan sezayotgandek. Onaning qarashlarida ham qayg‘u va xavotir bor. U oldindan nima bo‘lishini biladi. Shunga qaramasdan, o‘g‘lining hayoti evaziga Haq yo‘llari ochiladigan odamlar tomon oldinga intiladi.



«Sikstin madonnasi»

Yana bir mashhur rassom **Rembrandt** (1606–1669) yaratgan asarlar ichida eng mashhuri «Adashgan o‘g‘ilning qaytishi» rasmi edi. Injilda oilasini tashlab ketib, uzoq vaqt sanqib yurgan, barcha boyliklari tugagach, ortga qaytgan o‘g‘ilni ota kechiradi va uyiga qabul qiladi.




«Adashgan o‘g‘ilning qaytishi»

Rembrandt o‘z asarida ota va o‘g‘ilning uchrashuv paytini aks ettirgan. Adashgan o‘g‘il uy ostonasi oldida tiz cho‘kib turibdi. Yirtiq kiyim va sochsiz bosh o‘tgan umr kulfatlaridan dalolat beradi. Keksayib ko‘r bo‘lib qolgan otaning barmoqlari o‘g‘ilning yelkasiga tegayapti. Qo‘l harakati bu dunyodan qariyb umidini uzgan odamning yorqin quvonchini va cheksiz muhabbatini aks ettiradi.




◆ Uilyam Shekspir faoliyati – ...
◆ Renessans – bu ...


◆ Leonardo da Vinchi faoliyati – ...
◆ Utopiya – bu ...




«David»



Nikolay Kopernik



Jordano Bruno



Galileo Galiley

Haykaltaroshlik. Bu davr haykaltaroshlari haykaltaroshlikni san'atlar ichida birinchisi, u insonni, uning go'zalligini boshqa san'at tur-laridan yaxshiroq sharaflaydi, deb hisoblaganlar.

Ularning eng mashhuri italiyalik **Mikelanjelo Buonarroti** (1475–1564) edi. U o'zining o'lmas asarlari bilan tarixda abadiy iz qoldirdi.

San'atkor yaratgan «David» haykali uning nomini abadiyatga daxldor qildi. Injil rivoyat-lariga ko'ra, yosh cho'pon yigit David dahshatli dev-sifat Goliat bilan jangga tushishga jur'at qiladi va uni tosh bilan urib o'ldiradi.

Haykaltarosh Mikelanjelo esa jang arafasida turgan Davidni tasvirlagan. Uning yuzi g'azabga to'la. Bu haykal o'zining balandligi va go'zalligi bilan shu paytgacha yaratilgan barcha asarlarni ortda qoldirdi.

Fan. Insonning atrof-olamga qiziqishi ortib bordi va bu Yangi davrning asosiy xususiyat-laridan biri bo'lib qoldi. Bu davrda olimlar fanda olamshumul kashfiyotlarni amalga oshirdi.

Buyuk polyak astronomi **Nikolay Kopernik** (1473–1543) 30 yil davomida osmon jismlarini kuzatib, Yer Quyosh atrofida va o'z o'qi atrofida aylanadi, degan xulosaga keldi. Bu xulosa fanda ulkan yangilik edi.

Italiyalik **Jordano Bruno** (1548–1600) olam abadiy mavjud, u hech qachon yo'q bo'lmaydi, degan xulosani dadil ilgari surdi, olamning cheksizligi va abadiyligi haqidagi nazariyani yaratdi. Cherkov bu fikrni shakkoklik deb ba-holadi va olimni gulxanda yoqishga hukm qildi.

Boshqa italiyalik buyuk olim **Galileo Galiley** (1564–1642) Kopernikning ta'limotini davom ettirib, geliosentrik nazariyaga asos soldi. Galileyning atrof-olamni anglashga qo'shgan hissasi ulkan. U yevropalik olimlar orasida birinchi bo'lib osmon jismlarini teleskop yor-damida kuzatdi.

Yevropa fanining yuksalishida buyuk ingliz olimi **Isaak Nyuton** (1643–1727)ning xizmati ulkan bo‘ldi. Nyuton mexanika va astronomiya-ning nazariy asoslarini yaratdi, butun olam tortishish qonunini ishlab chiqdi, ko‘zguuli teleskopni kashf qildi.



Isaak Nyuton

Yana bir ingliz olimi **Jon Lokk** (1632–1704) esa falsafaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. J. Lokkning asosiy xizmati shundan iboratki, u insonning tabiiy huquqlari: yashash, erkinlik va mulk huquqlari haqidagi ta‘limotni yaratdi.

U, shuningdek, «hokimiyatni bo‘lish» — ijro hokimiyatini qonun chiqaruvchi hokimiyatdan ajratish haqidagi ta‘limotni ham ishlab chiqdi.



Jon Lokk

XVI–XVIII asrlarda Yevropada Yangi davr madaniyati shakllandi. San‘at va fan jadal rivojlandi. Angliya burjua inqilobi, Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun kurash, fransuz inqilobi jarayonlarida paydo bo‘lgan kishilarning ozodligi va tengligi haqidagi g‘oyalar yana uzoq vaqt ko‘plab xalqlar kurasining mazmuniga aylandi.



1. Uilyam Shekspir ijodining o‘ziga xosligi nimadan iborat?
2. Leonardo da Vinchi va Rafael Santi ijodining asosini qanday g‘oyalar tashkil etadi?
3. XVI–XVIII asrlarda Yevropada astronomiya fani qanday yutuqlarga erishdi?
4. Jon Lokk g‘oyalari bugungi kun davlat boshqaruvida qanday o‘rin tutadi?



Yangi davr Yevropa madaniyati vakillari faoliyatini darslik matni yordamida tahlil qiling va shu asosda rangli klaster tayyorlang.



Internet vositasida *Yevropa Renessans madaniyati davriga* virtual ekskursiya uyushtiring. Taassurotlaringizni daftaringizga jadval ko‘rinishida qayd eting.



Italiya Uyg‘onish davri vakillariga bag‘ishlangan «Meros» badiiy filmi ko‘ring va xulosa chiqaring.



II BOB. XVI–XVIII ASRLARDA YEVROPA VA AMERIKA MAMLAKATLARI

5-mavzu: ANGLIYADA QIROL HOKIMIYATINING KUCHAYISHI. XVII ASRDAGI ANGLIYA BURJUA INQILOBI

Qirol hokimiyatining kuchayishi. Absolutizm. Savdo va sanoatning rivojlanishi Angliyada soliqlar tushumini keskin oshirdi. Endi davlatdan maosh oladigan amaldorlar va muntazam armiya qirolning har qanday buyrug'ini bajarishga tayyor edi. Bu qirolni boy zodagonlar ta'siridan xalos qildi. Natijada, qirolning cheklanmagan hokimiyati to'g'risidagi g'oya shakllandi. Shu g'oya asosida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida shakllangan hokimiyat **mutlaq monarxiya** yoki **absolutizm** deb ataldi.



Angliyada «Erkinlikning buyuk xartiyasi» deb nomlangan hujjat qachon qabul qilingan?

Absolutizm Angliyada XVI asrda shakllandi. Shu davrda qirol hokimiyati kuchayib, **Genrix VIII Tyudor** faqat cherkovni emas, toifalar

vakillaridan iborat parlamentni ham o'ziga bo'ysundirdi, ayrim mustaqil shimoliy grafliklar va Uels ham qirol hokimiyatini tan oldi.

1558-yili hokimiyatga kelgan **Yelizaveta I** o'zining 45 yillik hukmronligi davrida Angliyaning jadal rivojlanishi, dunyoning yetakchi davlatiga aylanishiga katta hissa qo'shdi. Mamlakatda Reformatsiya o'z nihoyasiga yetdi. Davlat qudratli bo'ldi, xo'jalikni rivojlantirishda va dengiz savdosida muvaffaqiyatlarga erishildi. Angliya asta-sekin kuchli dengiz davlati – «dengizlar malikasi»ga aylandi.

1603-yili Yelizaveta I ning o'limi bilan tyudorlar sulolasi yakun topdi. Shundan so'ng Angliya taxtiga styuartlar sulolasidan bo'lgan **Yakov I** o'tirdi. Styuartlar shotlandiyalik edi. Uning davrida absolyutizmning inqirozi kuchaydi, burjua inqilobi uchun iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy asoslar shakllandi. Bularning barchasi **1640-yili** boshlangan Angliya burjua inqilobiga muqaddima bo'ldi.

Angliya burjua inqilobi arafasida. Yangi, kapitalistik munosabatlarga asoslangan tartiblarning o'rnatilishida ingliz burjua inqilobi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu inqilob faqat Angliyada emas, butun Yevropada kapitalistik munosabatlarning hukmron tartibga aylanishini boshlab berdi. Bu davrda faol tashqi siyosat natijasida bo'lg'usi Britaniya mustamlakachilik imperiyasining asoslari yaratildi. Amerikadagi birinchi mustamlaka – Virjiniyaga asos solindi. Fanda Frensis Bekon, adabiyotda Uilyam Shekspir singari arboblarning nomlari butun dunyoga mashhur bo'ldi.


Inqilobning sabablari. Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi va Reformatsiya natijasida ingliz jamiyatida bo'linish yuz berdi. Yangi zodagonlar kapitalizm rivojlanishidan manfaatdor bo'lsa, qirol va amaldorlar eski tartiblarning saqlanib qolishini istardi. Shunday sharoitda styuartlarning yangi qirollik sulolasi ingliz parlamenti va **puritanlik** (kalvinistlar Angliyada shunday atalgan) cherkoviga qarshi kurashga kirishib ketdi. Vujudga kelgan qarama-qarshiliklar inqilobning asosiy sababiga aylandi.



Yelizaveta I – Angliya qirolichasi



- ◆ 1603-yilda ...
- ◆ 1640-yilda ...



Angliya burjua inqilobi

Qirol bilan parlament o'rtasidagi nizo Karl I davrida yanada keskinlashdi. Qirol parlamentni tarqatib yubordi. Angliyada Karl I ning shaxsiy hukmronligi o'rnatilib, bu davrda savdogarlar, yangi dvoryanlar, hurfikr dindorlar davlat ishlaridan butunlay chetlatildi.

Inqilobning boshlanishi. 1640-yilning boshiga kelib, xazina bo'shab qoldi. Mamlakatda ko'plab ochlar qo'zg'oloni, Londonda esa ko'cha tartibsizliklari bo'lib o'tdi. Shotlandiya Angliyaga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yubordi.

Shunday sharoitda 1640-yili yangi parlament yig'ildi. Bu parlament uzoq vaqt tarqatilmaganligi uchun «**Uzoq muddatli parlament**» nomi bilan tarixga kirdi. Bu inqilobning boshlanishi edi.

Uzoq muddatli parlament bir qancha muhim islohotlarni amalga oshirdi. Parlamentning absolutizmga qarshi qaratilgan dastlabki qarorlaridan biri qirol ministrларining sudga tortilishi bo'ldi. Ko'pgina yuksak lavozimli amaldorlar, yepiskoplar, sudyalar qamoqqa olindi. Aslida amalga oshirilgan bu o'zgarishlar, o'z mohiyatiga ko'ra, Angliya davlat tuzumida yuz bergan inqilobiy to'ntarish edi.

Qirol bilan parlament o'rtasida fuqarolar urushi. Angliya parlament bilan qirol tarafdorlari bo'lgan bir-biriga dushman ikki lagerga bo'lindi. Parlamentni savdogarlar, tadbirkorlar va yangi dvoryanlar qo'llab-quvvatladi. Eski tartiblardan manfaatdor bo'lganlarning barchasi — yirik yer egalari bo'lgan asilzodalar va ularga qaram bo'lgan dehqonlar, saroy amaldorlari, ingliz cherkovi qirol bayrog'i ostida birlashdilar.

1643-yilning oxiriga kelib, mamlakat hududining to'rt dan uch qismi qirol hukmronligi ostida edi. Parlament esa xalqni jangga chorlashga qo'rqardi. Biroq tez orada parlamentning yangi ittifoqchisi bo'lgan Shotlandiya armiyasi Angliya hududiga kirib keldi. Shotlandlar bilan parlament tarafdorlarining birlashgan qo'shini qirol qo'shini ustidan g'alaba qozondi.



Oliver Kromvel

Bu g'alabada **Oliver Kromvel** qo'mondonligi ostidagi otliq askarlar asosiy rol o'ynadi. Qirol va uning ortidan butun armiyasi qochib qoldi. Urush parlamentning to'liq g'alabasi bilan yakunlandi.

Parlament islohoti. Qirol armiyasining tor-mor qilinishi parlamentga muhim o'zgartirishlar qilish imkoniyatini berdi. Zodagon yer egalari taxt foydasiga to'lanadigan feodal soliqlardan ozod qilindi. Yer ularning xususiy mulkiga aylandi. Savdogarlar endi savdo yuritishga ruxsatnoma sotib olmaydigan bo'ldi. Cherkov parlamentga bo'ysundirildi, qirol, uning tarafdorlari va yepiskoplarning yarlari esa musodara qilindi.



1640-yilda chaqirilgan parlament uzoq vaqt tarqatilmaganligi uchun «Uzoq muddatli parlament» nomi bilan tarixga kirdi.

1643-yilning oxiriga kelib, Angliya hududining to'rt dan uch qismi qirol hukmronligi ostida edi.

Inqilobning yakunlanishi. Angliyaning konstitutsion monarxiyaga aylanishi. Parlamentning qarori bilan Angliyada qirollik hokimiyati va lordlar palatasi bekor qilindi. **1649-yili 19-may** kuni Angliya Respublika deb e'lon qilindi.

Bu paytga kelib, O. Kromvel boshchiligidagi inqilobiy armiya Irlandiyani bo'ysundirish uchun bu yerga bostirib kirdi. Bosqin jaryonida Irlandiya aholisining katta qismi halok bo'ldi. O. Kromvelning inqilobiy armiyasi shu tarzda bosqinchi armiyaga aylandi. Bu armiya Irlandiyadan so'ng Shotlandiyaga ham bostirib kirdi. Shiddatli janglardan so'ng mag'lub bo'lgan Shotlandiyaning mustaqilligi tugatildi.

Shundan so'ng eski parlament tarqatib yuborildi. Mamlakatda O. Kromvel protektorati (*protektor* – homiy, himoyachi) o'rnatildi. Ijro hokimiyati to'liq protektor qo'lga o'tdi.

1688-yilgi «Sharafli inqilob». Kromvelning o'limidan so'ng 1660-yili taxtga kelgan Karl II mutlaq hukmronlikka bo'lgan da'vosidan voz kechmadi. Uning vorisi Yakov II esa katolik dinini qayta tiklash uchun harakat boshladi. Shundan so'ng 1688-yili parlament Yakov II ni taxtdan mahrum qildi va Angliya taxtiga Gollandiya hukmdori shahzoda Villem van Oranyeni taklif etdi. U parlament qo'ygan talablar asosida taxtga o'tirdi. Shu davrdan boshlab, eng muhim masalalarni qirol emas, parlament hal qiladigan bo'ldi. Qirol hokimiyati parlament tomonidan cheklandi. Shu tariqa Angliyada **cheklangan yoki konstitutsion monarxiya** o'rnatildi. Bu Angliya tarixida **«Sharafli inqilob»** nomini oldi.



- ◆ 1643-yilning oxiri ...
- ◆ 1649-yili 19-may ...

- ◆ Jon Lilbern faoliyati ...
- ◆ 1688-yili ...

Angliya burjua inqilobining natijalari va tarixiy ahamiyati. Angliya burjua inqilobi absolutizmni yo'q qildi. Inqilob feodal mulkchilikka zarba berdi, ammo tugallanmay qoldi, chunki dehqonlarni yerning to'liq egalariga aylantirmadi va ularni feodal qaramlikdan ozod qilmadi.

Shunday bo'lsa-da, inqilob Angliyada kapitalistik munosabatlarning keyingi rivojida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Bu inqilob natijasida qishloq xo'jaligida ham kapitalistik munosabatlar tez rivojlana boshladi, sanoat to'ntarishi boshlandi.

Jamiyatda ham o'zgarish ro'y berdi – sanoat burjuaziyasi va ishchilar sinfi rivojlana bordi.

XVIII asrda Angliya. XVIII asrda hokimiyat to'raligicha ikki palata – lordlar palatasi va jamoa palatasidan iborat parlament qo'lib edi.

1707-yili parlament Angliya bilan Shotlandiya o'rtasidagi uniya (ittifoq)ni qonuniylashtirdi. Endi mamlakat **Buyuk Britaniya** deb atala boshlandi.

1714-yili Angliya taxtida turgan oranyelar sulolasining oxirgi vakili vafot etdi. 1701-yili qabul qilingan «Taxt vorisligi to'g'risida bill»ga asoslanib, parlament gannoverlik nemis knyazlari sulolasidan, Yakov I ning ajdodi Georg I ni Angliya taxtiga taklif qiladi. Gannoverliklar protestantlar edi va ingliz taxtini XVIII asrdan e'tiboran, to XIX asr boshlarigacha egallab turdilar. Butun XVIII asr davomida Buyuk Britaniya Fransiya bilan bo'lgan shiddatli kurashlar jarayonida Shimoliy Amerikani, Hindistonni, Afrikadagi ko'plab hududlarni egallab oldi va shu tariqa Buyuk Britaniya mustamlakachilik imperiyasiga asos soldi. Angliya «dengizlar hukmroni»ga aylandi.

Mamlakatda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati tarkib topa boshladi. Angliya burjua inqilobi va uning g'oyalari boshqa Yevropa mamlakatlari rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Inqilob e'lon qilgan siyosiy tamoyillar va o'rnatgan iqtisodiy tartib yangi industrial sivilizatsiyaga asos soldi.



Absolutizm – bu davlatni boshqarish shakli. Unda monarx hokimiyati mutlaqo cheklanmagan.

Puritanlar – XVI asrning ikkinchi yarmida kalvinizm asosida Angliyada shakllangan xristian dini mazhablaridan biri.

Lordlar palatasi – Angliya parlamentining yuqori palatasi.

Kromvel protektorati – (*protektor* – homiy, himoyachi) Angliya burjua inqilobining yakunlovchi bosqichi. Bu davrda Angliya, Shotlandiya va Irlandiya hukmdori – protektori Oliver Kromvel bo'lgan.



1. *Absolutizm Angliya tarixida qaysi asrda shakllandi?*
2. *Angliya tarixida tyudorlar sulolasi vakillari qanday ishlarni amalga oshirdilar?*
3. *Angliya burjua inqilobi boshlanishining asosiy sabablari nimalardan iborat?*
4. *Angliya tarixida O. Kromvel qanday o'rin tutadi?*

Ijodiy ish topshirig'i

Mavzu matnini «Insert» jadvali asosida tahlil qiling va ushbu hududga oid matndagi ma'lumotlarni aytib bering.



Xaritadan foydalanib, Angliya burjua inqilobi bo'lib o'tgan hududlarni aniqlang.



Internet vositasida Angliya tarixida tyudorlar sulolasi davrida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni tahlil qiling. Tarixiy voqealarni xronologik ketma-ketlikda daftaringizga yozing.



Mavzuga oid «Tyudorlar» serialini ko‘ring va xulosa chiqaring.

6-mavzu: XVI–XVIII ASRLARDA XALQARO MUNOSABATLAR

Yangi davrga kelib, Yevropaning siyosiy xaritasi zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lib bordi. XVII–XVIII asrlarda Yevropa davlatlarining jahonda ta‘sir doirasiga ega bo‘lish va hududlar uchun kurashlari keyingi davrlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Yevropa sivilizatsiyasi jahon hamjamiyatining iqtisodiy, texnologik va harbiy-siyosiy yetakchisiga aylandi. Yevropa sivilizatsiyasining qadriyatlarini butun dunyoga yoyish uchun uzoq davom etgan kurash boshlandi. Bu kurash davomida jahon bozorini vujudga keltirgan va o‘z mustamlakalari hamda yarimmustamlaka mamlakatlar xalqlarini bu jarayonlarga jalb etgan Yevropa sivilizatsiyasi ilk umumjahon sivilizatsiyasiga aylanib bordi. Aynan shu jarayonlar XVI–XVIII asrlardagi xalqaro munosabatlarning ham mazmunini tashkil qildi.



Yevropa xalqaro munosabatlari uchun O‘rta asrlarda bo‘lib o‘tgan «Yuz yillik urush» qanday ahamiyat kasb etadi?

XVI–XVIII asrlardagi xalqaro mojaro va urushlarning bir qancha sabablari bor edi. Birinchidan, Yevropaning kelajagi to‘g‘risida ikki xil qarash mavjud bo‘lib, Avstriyadagi hukmron gabsburglar sulolasi katolik imperator boshchiligida yagona imperiya bo‘lishi lozim desa, Angliya va Fransiya Yevropada mustaqil milliy davlatlar mavjud bo‘lishi kerak, deb hisoblardi.

Ikkinchidan, XVI asrda Yevropa katolik va protestant diniy mazhablariga bo‘linib ketgan edi. Ular o‘rtasidagi ziddiyatlar Yevropa miqyosidagi diniy urushlarga olib keldi.

Uchinchidan, iqtisodiy qarama-qarshiliklar – mustamlakalar, bozorlar va dengiz savdo yo‘llarida hukmronlik uchun kurash ham urushlarga sabab bo‘ldi.



- ◆ XVII–XVIII asrlarda Yevropa davlatlarining ...
- ◆ XVI–XVIII asrlardagi xalqaro munosabatlarning mazmuni – ...
- ◆ XVI asrda ...

Bu davrda manfaatlari doim bir-biri bilan to‘qnashgan davlatlar Fransiya, Ispaniya va Angliya edi. Ayniqsa, bir-biri bilan chegaradosh bo‘lgan Fransiya va Ispaniya o‘rtasida chegara hududlar va qo‘shni davlatlar, birinchi navbatda, Italiyaga ta’sir ko‘rsatish uchun tez-tez ziddiyatlar bo‘lib turardi. Bu ziddiyatlar oxir-oqibatda, Italiya urushlariga olib keldi. Urush natijasiga ko‘ra, Italiya ispan qiroliga bo‘y-sundirildi.

Xalqaro munosabatlarning yana bir muhim omili Yevropaga doimiy xavf solib turgan Usmoniylar imperiyasi bo‘ldi. Usmoniylar imperiyasi Osiyo va Afrikada juda katta hududlarni egallab olgan edi. Turklar bevosita Gabsburglar imperiyasi chegaralariga xavf sola boshladi. Fransiya va Angliya esa Gabsburglar qudratini susaytirish maqsadida Usmoniylar imperiyasi bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatdi.

O‘ttiz yillik urush. XVII asr boshiga kelib, diniy asosda boshlangan xalqaro mojaroga katolik bilan protestantlar o‘rtasida muvozanatni saqlashga harakat qilgan ko‘plab Yevropa davlatlari jalb qilindi. Urush 1618–1648-yillari bo‘lib o‘tdi va tarixga **O‘ttiz yillik urush** nomi bilan kirdi. Urush nemis katoliklari va protestantlari o‘rtasidagi diniy mojarro sifatida boshlandi. Urush harakatlari, asosan, Germaniya hududida olib borildi va butun Yevropa xalqlariga juda katta kulfatlar keltirdi.

O‘ttiz yillik urush 1648-yili Vestfal sulhi bilan yakunlandi. Vestfal sulhi Yevropa davlatlari o‘rtasidagi yangi munosabatlarga asos soldi. Sulhga ko‘ra, Gollandiyaning Ispaniyadan mustaqilligi tan olindi.

Vestfal sulhi katoliklar bilan protestantlar o‘rtasidagi dushmanlikka barham berdi. Katolik va protestant cherkovlarining tengligi tan olindi. Germaniya tarqoq knyazliklardan iborat bo‘lib qolaverdi. Yevropada Fransiyaning roli oshdi. O‘ttiz yillik urush diniy mojarolarni harbiy yo‘l bilan hal etishga urinishning samarasizligini ko‘rsatdi. Ayni paytda urush xalqaro munosabatlarda muhim chegara bo‘ldi va ilk Yangi davrda Yevropa taraqqiyotiga o‘ziga xos yakun ham yasadi.

Ispaniya taxti uchun kurash. 1700-yili Ispaniya qiroluqi Karl II vafot etdi. Uning vasiyatiga ko‘ra, Ispaniya taxtiga Fransiya qirolining nabirasi **Filipp Anjuy** o‘tirdi. Bundan norozi bo‘lgan davlatlar urush boshladi. Bu urush Fransiyaning holdan toydirdi. 1714-yilgi tinchlik sulhiga

ko'ra, Filipp Anjuy Fransiya taxtiga bo'lgan huquqidan voz kechdi. Urush oqibatida fransuzlar ham, gabsburglar ham kuchsizlanib qoldi. Bu esa Angliyaning kuchayishiga olib keldi.

XVIII asrda Yevropada yuz bergan muhim mojarolardan biri Rossiya Shvetsiyaga qarshi olib borgan urush bo'ldi. **Shimoliy urush** (1700–1721) deb nom olgan bu urushda Rossiya g'alaba qozondi.

Yevropa davlatlarining deyarli barchasi ishtirok etgan **Yetti yillik urush** (1756–1763) natijasida Yevropadagi chegaralar o'zgarmadi. Urushdan eng katta foydani Angliya oldi. Hindiston va Shimoliy Amerikadagi fransuz mustamlakalari Angliyaga o'tdi. Angliya dunyoning yetakchi mustamlaka imperiyasiga aylandi.

Usmoniylar sultoni Mustafó III 1768-yili Rossiyaga qarshi urush boshladi. Urush 1774-yili Kuchukqaynarji shartnomasi bilan yakunlandi. Urushda Rossiya imperiyasi g'alaba qozondi. Shartnomaga binoan, Qrim xonligi Rossiyaga qaram davlatga aylandi va keyinchalik Rossiya tarkibiga qo'shib olindi. Rossiya Qora dengizda harbiy flotga ega bo'lish huquqini ham qo'lga kiritdi.

Bu davrda O'rta asrlarning Xitoy va Usmoniylar imperiyasi kabi qudratli davlatlari hamon harbiy jihatdan kuchli bo'lsa-da, xalqaro munosabatlarda ularning roli pasayib bordi. Yevropada kapitalizmning rivojlanishi millatlarning shakllanishiga olib keldi. Ammo milliy davlatlarning vujudga kelish jarayoni qattiq kurashlar ostida amalga oshirildi.

Bu davrda Yevropa davlatlari o'rtasidagi dengiz yo'llarini egalash, Amerika, Osiyo va Afrikada mustamlakalarga ega bo'lish uchun olib borilgan kurashlar xalqaro munosabatlarning asosini tashkil qildi. Bu kurashlar natijasida jahon mustamlaka tizimi shakllandi. Yangi davrning eng sharmandali hodisasi – qul savdosi ham shu davrga xos edi.



1. XVI–XVIII asrlardagi xalqaro mojaró va urushlarning sabablari nimalardan iborat edi?
2. Vestfal tinchlik sulhi mazmuni nimadan iborat edi?
3. Yevropa davlatlarining deyarli barchasi ishtirok etgan Yetti yillik urushning mohiyati nimadan iborat?
4. Kuchukqaynarji shartnomasining mazmuni nimadan iborat?



Ijodiy ish topshirig'i

Vestfal tinchlik sulhi va Kuchukqaynarji shartnomasi haqidagi ma'lumotlarni matndan toping va jadvalning ikki ustunida tahlil qiling.



Internet vositasida Karl II va Filipp Anjuy faoliyati bilan tanishib chiqib, tahlil qiling.

Xaritadan foydalanib, XVII–XVIII asrlardagi xalqaro munosabatlarni tahlil qiling.

7-mavzu: FRANSIYADA MUTLAQ MONARXIYA. BUYUK FRANSUZ BURJUA INQILOBI

XVII asrda Fransiyaning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti ziddiyatli xarakterga ega edi. Kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi natijasida yuz bergan iqtisodiy o'sish, absolutizmning mustahkamlanishi, soliqlarning oshishi, xalq ommasi ahvolidning yomonlashuvi va doimiy xalq qo'zg'olonlari bilan qo'shilib ketdi. Yangi iqtisodiy munosabatlar, ayniqsa, qishloqda juda qiyinchilik bilan o'ziga yo'l ochib bordi.

XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Fransiya jadal iqtisodiy o'sish davrini boshdan kechiradi. Bunga qirolning soliqlarni kamaytirishi, manufakturalar uchun qulay moliyaviy sharoit yaratishi, ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi boj soliqlarini joriy qilishi, texnik yangiliklarni qo'llab-quvvatlashi orqali erishildi. Qirol bilan burjuaziya o'rtasidagi ittifoq mustahkamlanib, xalqning noroziligi ham pasaydi.

Ichki bozorning kengayishi aholining o'sishiga olib keldi. Inqilob arafasida Fransiya aholi soni bo'yicha Yevropaning eng katta davlati edi. Shu davrda boshlangan islohotlarning amalga oshmay qolishi siyosiy va iqtisodiy islohotlarning absolutizm bilan sig'ishmasligini ko'rsatdi. Jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlar kuchayib, mamlakat inqilob yoqasiga kelib qoldi.

Buyuk fransuz burjua inqilobining boshlanishi. 1789-yil 5-may kuni qirol Lyudovik XVI General shtatlar majlisini ochdi. U o'z nutqida aholiga yangi soliqlar joriy qilishni so'radi. Qirolning nutqi uchinchi tabaqa vakillarining noroziligiga sabab bo'ldi. Parijlik aholi ham deputatlardan qat'iy qarorlar talab qilib, Versal tomon kela boshladi. Shundan so'ng uchinchi tabaqa deputatlari o'z yig'ilishini **Milliy kengash** deb e'lon qildi. Birinchi va ikkinchi tabaqa deputatlaridan islohot tarafdorlari bo'lganlar ularga qo'shildi. Milliy kengash absolutizmni tugatishga qaror qildi.



Fransiyada General shtatlar qachon va qanday maqsadda chaqirilgan edi?

Uchinchi tabaqa qarashlarining ifodachisi **Gabriel de Mirabo** bo'ldi. U boy va mashhur oiladan chiqqan, tajribali hamda dono siyosat arbobi edi. Mirabo uchinchi tabaqani birlikka chaqirdi.

Shu orada Milliy kengash o'zini **Ta'sis majlisi** deb e'lon qildi. Parij gazetolari inqilob bir tomchi ham qon to'kilmasdan yakunlandi, deb yozdilar. Ammo Parij xotirjam emasdi.



- ◆ Birinchi tabaqa – ruhoniylar.
- ◆ Ikkinchi tabaqa – dvoryanlar.
- ◆ Uchinchi tabaqa – savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlar, burjuaziya.

Bastiliyaning olinishi. O'zgarishlardan norozi bo'lgan olomon **1789-yil 14-iyulda** Bastiliya qal'asiga bostirib kirdi. Qal'adagi qo'shinlar taslim bo'ldi, qal'a komendanti (boshlig'i) qatl etildi. Shu tariqa inqilob olomonning shafqatsiz terrori bilan boshlandi. Lyudovik XVI qo'zg'olonchilarga yon berishga qaror qildi. Qirol Ta'sis majlisini tan oldi. Poytaxtda hokimiyat shahar kengashi – Parij Kommunasi qo'liga o'tdi. Hukmron doiralarning mavjud ziddiyatlarni o'z vaqtida hal qila olmaganligi shu tarzda inqilobga olib keldi. Absolut monarxiya quladi.

Burjuaziya hokimiyat tepasida. Absolutizmning qulashi bilan hokimiyat yirik burjuaziya qo'liga o'tdi, ammo mamlakatda tinchlik o'rnatilmadi. Butun mamlakatni inqilob va dehqonlar qo'zg'olonlari qamrab oldi. Ta'sis majlisi «**Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi**»ni qabul qildi. U so'z va matbuot erkinliklari hamda xususiy mulkning daxlsizligi kabi burjua huquqlarini e'lon qildi. Deklaratsiyaning mohiyati «**Ozodlik, Tenglik, Birodarlik!**» degan uchta so'zda o'z ifodasini topdi.

1791-yil sentabrda Ta'sis majlisi Fransiya tarixida ilk konstitutsiyani qabul qildi. Unda qirol hokimiyati cheklandi. Shu tariqa Fransiyada yirik burjuaziyaning hokimiyati o'rnatildi va inqilobning birinchi bosqichi yakunlandi.

Inqilob jarayonida fransuz jamiyati turli siyosiy oqimlarga bo'linib ketdi. Ta'sis majlisi deputatlaridan qirol tarafdorlari bo'lganlar o'nglar yoki **royalistlar** (*royal* – qirol) deb ataldi. So'l deputatlarning ko'pchiligi Jironde viloyatidan saylanganligi tufayli ular **jirondachilar** degan nom olishdi.

Ayni paytda inqilob hali oxiriga yetgani yo'q, o'rta va kichik burjuaziya hokimiyatga kelmadi, dehqonlarga yer berilmadi, deb hisob-



Fransuz burjua inqilobi

lovchilar ham anchagina edi. Bu o'ta so'l oqim **yakobinchilar** (ular Avliyo Yakob monastirining kutubxonasida yig'ilganligi uchun shunday atalgan) faoliyatida o'z ifodasini topdi.



◆ 1789-yil 5-may ...

◆ Lyudovik XVI faoliyati ...

◆ XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida ...

◆ Gabriel de Mirabo faoliyati ...

Qirolning taxtdan ag‘darilishi va respublikaning e‘lon qilinishi.

1791-yili yangi Qonun chiqaruvchi majlis o‘z ishini boshladi. U zafarli urush mamlakatda vatanparvarlik hissini kuchaytiradi va inqilobiy holatni bartaraf etadi, degan fikr bilan Avstriyaga qarshi urush e‘lon qildi. Fransuzlar Belgiyaga qo‘shin kiritdi, bunga javoban avstriyaliklar va prusslar Fransiya bostirib kirdi hamda bir nechta qal‘ani egallab oldi. Fransiya qarshi urushga Angliya ham qo‘shildi.

Shunda Qonun chiqaruvchi majlis «Vatan xavf ostida!» degan chaqiriq bilan xalqqa murojaat qildi. Valmi qishlog‘i yaqinidagi jangda fransuz qo‘shinlari pruss armiyasi hujumlarini qaytardi. Bu mamlakatni bosqinchilardan ozod qilishning boshlanishi edi. Shu kuni, ya‘ni **1792-yil 22-sentabrda** Konvent monarxiyani bekor qilish va Fransiya Respublika tuzumini o‘rnatish to‘g‘risida dekret qabul qildi.

Poytaxtda Milliy gvardiya va ko‘ngillilar lashkari qirol saroyini qurshab oldi. Qirol Lyudovik XVI oilasi bilan birga qamoqqa olindi. Shu tariqa inqilobning ikkinchi bosqichida monarxiya ag‘darib tashlandi. Ko‘pgina monarxistik gazetalar yopildi, sobiq vazirlar qamoqqa olindi. 25 yoshga to‘lgan barcha erkaklarga saylash huquqi berildi.



1789-yil 14-iyulda Bastiliya qal‘asi egallandi.

1791-yil sentabrda Ta‘sis majlisi Fransiya tarixida ilk konstitutsiyani qabul qildi.

1792-yil 22-sentabrda Fransiya Respublika tuzumini o‘rnatish to‘g‘risida dekret qabul qilindi.

Yakobinchilar diktaturasining o‘rnatilishi va halokati. Konventning qaroriga binoan, 1793-yil yanvarda qirol Lyudovik XVI qatl qilindi. Qirolning qatl qilinishi Angliya va Ispaniyani Fransiya qarshi urushga chorladi. Avstriya armiyasi hujumga o‘tdi. Fransuz qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchray boshladi. Yakobinchilar va oddiy xalq bunda jirondachilarni aybladi. Ayni paytda yakobinchilarning obro‘yi oshib, Fransiya hokimiyat yakobinchilarga va ularning yo‘lboshchilari – Robespyer, Marat va Dantonga o‘tdi. Ular shafqatsiz terror

boshqaruvini o‘rnatdi. Jirondachi deputatlar qatl qilindi. Aksilinqilobchilar esa qamoqlardan shahar tashqarisiga olib chiqilib, otib tashlandi. Yakobinchilarning shafqatsizligi chegarasiz, ayovsiz va ma’nosiz edi.

Konventda Robespyer va uning tarafdorlariga qarshi fitna yetilib borardi. 1794-yil 27-iyulda Robespyer Konventda gulduros qarsaklar ostida qamoqqa olindi. Robespyer va uning tarafdorlari qonundan tashqari deb e’lon qilindi, bu esa sudsiz qatl degani edi. Hammasi bo’lib yuzga yaqin kishi qatl qilindi, ular, asosan, Parij Kommunasi a’zolari edilar. Kommuna bekor qilindi.



- ◆ 1793-yil yanvarda ...
- ◆ 1794-yil 27-iyulda ...
- ◆ Robespyer, Marat, Danton faoliyati – bu ...

Buyuk fransuz burjua inqilobining yana bir bosqichi ana shunday yakunlandi. Xalq muhtojlik, urush va terrordan charchadi. Yakobinchilar diktaturasi quladi.

Inqilob eski tartiblarni yo‘q qilib tashladi: feodal qoidalar va absolutizm tugatildi; dehqonlar yer oldi; Fransiya Respublika deb e’lon qilindi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun asos solindi. Burjua mulkchiligi o‘rnatildi va sanoat to‘ntarishi uchun sharoit yaratildi.



Uchinchi tabaqa – Fransiyada o‘rnatilgan tartibga ko‘ra imtiyozlarga ega bo‘lgan ruhoniylar va dvoryanlardan boshqa barcha kishilar.

Ta’sis majlisi – konstitutsiya qabul qilish uchun yig‘iladigan parlament.

Kommuna – mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv organi.

Absolutizm – davlatni idora qilish usuli. Unda cheklanmagan hokimiyat davlat boshlig‘i – monarxga tegishli.



1. Buyuk fransuz burjua inqilobining boshlanishi sabablari nimalardan iborat?
2. Fransiyada «Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi»da qaysi huquqlar kafolatlangan edi?
3. Fransiyada «Vatan xavf ostida!» chaqirig‘i qanday maqsadda va qaysi tashkilot tomonidan tayyorlangan?
4. Fransiyada yakobinchilar diktaturasi nima sababdan halokatga uchradi?



Xarita bilan ishlashga doir topshiriq

Xaritadan foydalanib, Fransiya burjua inqilobi bo‘lib o‘tgan hududlarni tahlil qiling va ikki ustunli jadvalning birinchisida hudud, ikkinchisida voqealarni keltiring.



Konseptual jadval asosida XVIII asr Fransiya rivojlanishidagi o'ziga xoslikni tahlil eting.

8-mavzu: BUYUK FRANSUZ BURJUA INQILOBINING YAKUNLANISHI VA TARIXIY AHAMIYATI

1795-yilgi xalq qo'zg'oloni. Termidorchilar (fransuz kalendaridagi termidor oyining 9-kuni hokimiyatga kelganlar shunday ataldi) mulk va erkin tadbirkorlikni himoya qiladigan respublika tarafdori edi. Ular savdodagi cheklashlarni bekor qildi. Savdo erkinligi boshlandi, narxlar bir necha bor ko'tarilib ketdi, pul keskin qadrsizlandi.



Fransiya qaysi asrdan boshlab yagona markaziy hokimiyatga bo'ysundirildi?

Mehnatkash xalq och qolayotgan bo'lsa, «yangi boylar» o'tayotgan vaqtni boy bermaslikka va hayot zavqini surishga oshiqardi. Burjua jamiyatining yuqori qatlamida asilzodalar axloqi qayta tug'ila boshladi.

Inqilobiy o'zgarishlar davri tugadi. Konvent deputatlarini endi xalqning ahvoli qiziqtirmas edi. Parijliklar Konvent ishiga ta'sir ko'rsatishga urinib ko'rdi. Parij atrofida norozilik kuchayib bordi. Aholi orasida «Xalq, uyg'on! Payt keldi!», degan shiorlar tarqaldi.

Shu tariqa **1795-yil aprelda** qo'zg'olon boshlandi. Minglab qurolsiz kishilar Konvent tomon kelishdi. Kechga borib, Milliy gvardiya Konventni o'rab olib, xalqni quvib yubordi. Parij qamal holatida deb e'lon qilindi. May oyida bu voqealar takrorlanib, qo'zg'olonchilar Konventni egallab oldi. Odamlar oqimi barcha binolarni to'ldirib yubordi. Ikki kun davomida g'azab alangasi avj oldi. Ikkinchi kun oxiriga kelib, qo'zg'olonchilar tor-mor qilindi va qurolsizlantirildi, ularning yo'l-boshchilari – so'nggi yakobinchilar gilotinada qatl qilindi. Ko'plar qamoqqa tashlandi, surgun qilindi. Bu qo'zg'olon Buyuk fransuz inqilobi davrida aholining so'nggi ommaviy chiqishi edi.

1795-yilgi Konstitutsiya va Direktoriya. 1795-yilning avgustida Konvent yangi Konstitutsiyani qabul qildi, u Fransiya Respublika tuzumini mustahkamladi, lekin umumiy saylov huquqini bekor qildi. Endi qonunchilik hokimiyati ikki palatadan – Besh yuzlar kengashi va Oqsoqollar kengashidan iborat bo'lgan qonunchilik palatasiga

berildi. Ijro hokimiyati Oqsoqollar kengashi tayinlaydigan besh kishidan iborat Direktoriyaga topshirildi. Shu bilan birga, 1795-yilgi Konstitutsiya inqilobning barcha antifeodal yutuqlarining qonuniyligini tasdiqladi.



◆ 1795-yil aprelda ...
◆ «Xalq, uyg'on! Payt keldi!» – ...

◆ 1795-yilning avgustida ...

Yangi Konstitutsiya monarxiya tarafdorlarini kuchaytirib yubordi. Ular Konventga qarshi isyon ko'tardi. Artilleriya yordamida isyonchilarni tor-mor qilgan general Napoleon Bonapart Konventning xaloskoriga aylandi.

Direktoriyaning urushlari. General Bonapart. Hokimiyatga kelgan yirik burjuaziya o'zga yurtlarni bosib olishdan manfaatdor edi va Direktoriya davridagi Fransiyaning urushlari bosqinchilik xarakteriga ega bo'ldi. Reynning so'l qirg'og'i va Belgiya Fransiya-ga qo'shib olindi, Gollandiya esa qaram respublikaga aylantirildi. Bosib olingan yerlarda fransuzlar feodal tartiblarni bekor qildi. Ammo bosib olingan yerlar talandi, harbiy o'lja sifatida oziq-ovqat va san'at asarlari yuklangan karvonlar Parijga kelib turardi.



Napoleon Bonapart

Bu urushlarga boshchilik qilgan Napoleon Bonapartning mamlakatda obro'si juda baland edi. Ayniqsa, Italiyaga qarshi qilingan yurish va uning bo'ysundirilishi Napoleonnini juda mashhur qilib yubordi. Bosib olingan yerlarda Napoleon feodal qaramlikni yo'q qildi, cherkov va ibodatxonalarni ba'zi bir yig'imlardan mahrum etdi, ma'lum darajada inson huquqlarini mustahkamlaydigan yangi qonunlarni joriy qildi.

Napoleonning g'alabalari jamiyatda armiyaning obro'sini oshirdi. Napoleon aynan Italiyada o'zini shunchaki general emas, xalqning taqdiriga ta'sir o'tkazishga qodir bo'lgan buyuk shaxs sifatida his qildi. Keyin, 1798-yili Misrga qilingan yurish Napoleonnini siyosiy hokimiyatni egallashga chorladi.



1795-yilning avgustida Konvent Fransiyaning yangi Konstitutsiyasini qabul qildi.

1798-yilda Misrga qilingan yurish Napoleoni siyosiy hokimiyatni egallashga chorladi.

1799-yil 9-noyabr davlat to'ntarishi. Direktoriya hokimiyati xalq orasida obro'ga ega emasdi, «yangi boylar» ham Direktoriyani yoq-tirishmas edi. Gazetalar «Kuchli hokimiyat o'rnatish!» talabini bosh sahifalarida yorita boshladi. Shunday sharoitda hokimiyatga qarshi fitna uyushtirildi. Fitnachilar Misrdan qaytgan Napoleondan asosiy kuch sifatida foydalanishga qaror qildilar, Bonapart ham bunga rozilik bildirdi. Yig'ilish o'tkazayotgan Oqsoqollar kengashi va Beshyuzlar kengashi yirik qo'shin tomonidan o'rab olindi. Qo'rqib ketgan Oqsoqollar kengashi taklif qilingan idora usuli – Konsullikni darhol tasdiqlashdi. Beshyuzlar kengashi ham bu qarorni tasdiqladi. Konsullik uch kishidan iborat ijroiya hokimiyati bo'lib, ulardan har biri «Fransuz Respublikasining konsuli» unvoniga ega bo'ldilar. Saylangan uch konsuldan biri Napoleon Bonapart edi.

Konsullar respublikaga sadoqat to'g'risida qasamyod qabul qildilar.

Fransiyadagi burjua inqilobi nihoyasiga yetdi. Bu inqilob butun dunyo tarixi uchun ham ma'lum ma'noda burilish nuqtasi bo'ldi. U olg'a surgan «Ozodlik, Tenglik, Birodarlik!» g'oyalari butun dunyo xalqlarining keyingi rivojiga arzigulik ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, inqilob tarixi ko'plab xalqlar uchun katta saboq ham bo'ldi. Uning ayovsiz qirg'inlari, barcha muammolarni hal etishning vositasi sifatida terrorning qo'llanilishi, siyosiy muxoliflarning jismoniy yo'q qilinishi kabilar ham inqilob keltirgan dahshatli reallik bo'ldi.



Termidor – Fransiyada inqilob yillari qabul qilingan yangi taqvimda oying nomi.

Konvent – ba'zi mamlakatlarda alohida vakolatlarga ega bo'lgan vakillik organi.

Direktoriya – burjua inqilobi davrida Fransiyada hokimiyatni kollegial boshqaruv shakli, ijroiya hokimiyati.

Konsul – Fransiyada burjua inqilobi yillari joriy qilingan ijroiya hokimiyatining uchta rahbaridan biri.

Terror (qo'rqinch, dahshat) – raqiblarni yo'qotish yoki qo'rqitish, aholi o'rtasida vahima keltirib chiqarish.



1. 1795-yilgi xalq qo'zg'oloni qay tariqa boshlandi?
2. 1795-yilgi Fransiya konstitutsiyasi qanday asosiy qoidalarni joriy qildi?

3. Qaysi omillar Napoleon Bonapart obro'sining oshishini ta'minladi?
4. Buyuk fransuz burjua inqilobining tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?



Ijodiy ish topshirig'i

«Fransuz burjua inqilobining ahamiyati shundan iboratki, ...» mavzusida esse yozing.



Internet vositasida *fransuz burjua inqilobi davriga* virtual sayohat uyushtiring va mavzuda o'rganilgan materiallar asosida tarixiy voqelikni tahlil qiling.

9-mavzu: XVI–XVIII ASRLARDA GERMANIYA IMPERIYASI

Iqtisodiy ahvol. Germaniya iqtisodiy taraqqiyotda Angliya, Gollandiya va Fransiya kabi davlatlardan orqada edi. Hatto, XVI asrning ikkinchi yarmidan iqtisodiy tushkunlik ham boshlandi. Bu, avvalo, Germaniyaning 300 dan ortiq mayda-mayda knyazlik (davlat)larga bo'linib ketganligi oqibati edi. Siyosiy tarqoqlik yagona ichki bozorning vujudga kelishiga imkon bermadi.




O'rta asrlarda qaysi jangdan keyin Germaniyaga vengerlarning bosqinlari to'xtaydi?

Bundan tashqari, bu davrda dengiz savdo yo'llarining Atlantika okeaniga ko'chganligi oqibatida Germaniya orqali o'tadigan savdo yo'llari o'z ahamiyatini ham yo'qotdi. Holbuki, XVI asr o'rtalarigacha Shimoliy Italiya va uning vositachiligida butun Sharqning G'arbiy Yevropa bozorlari bilan aloqalari Germaniya yerlaridan o'tardi.

Germaniyaning xalqaro miqyosdagi iqtisodiy roli – uning mis ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallab kelganligi bilan belgilanar edi. Mis savdoda asosiy vosita hisoblanardi. Biroq Amerikadan Yevropaga oltin va kumushning katta miqdorda keltirishi Germaniya misining ahamiyatiga jiddiy putur yetkazdi. Shuningdek, nemis sanoat mahsulotlari chet davlatlar sanoat mahsulotlari bilan raqobat qila olmadi. Chunki Germaniyada manufaktura ishlab chiqarishi faqat shahar bilan cheklanib qolgan edi. U qishloqqa yoyilmadi, ya'ni natural xo'jalik munosabatlari hukm surgan qishloq xo'ja-

ligi ishlab chiqarishi sanoat mahsulotlariga nisbatan talabni qondirmadi.

1524–1526-yillarda bo‘lib o‘tgan dehqonlar urushining mag‘lubiyatga uchrashi O‘rta asr feodal munosabatlarning yana uzoq saqlanib qolishi va mamlakatda siyosiy tarqoqlikning davom etaverishiga sabab bo‘ldi. Va nihoyat, Yevropa davlatlari o‘rtasida kelib chiqqan O‘ttiz yillik urushda (1618–1648), asosan, nemis knyazliklarining jabr-



Muqaddas Rim imperiyasi okruglari

lanishi ham uning qoloqlik botqog'iga botib qolaverishiga katta ta'sir ko'rsatdi. O'ttiz yillik urush natijasiga ko'ra, Yevropada siyosiy gegemonlik Fransiya o'tdi.

Germaniya esa iqtisodiy va siyosiy tanazzulga yuz tutdi. Siyosiy parokandalik yanada kuchaydi.



- ◆ XVI asrning ikkinchi yarmidan – ...
- ◆ O'ttiz yillik urush – ...
- ◆ 1524–1526-yillarda – ...
- ◆ XVI asr o'rtalarigacha – ...

Siyosiy tuzum. Germaniya rasman yagona imperiya hisoblanar, uni, nomiga bo'lsa-da, imperator boshqarardi. Aslida esa uning birligi faqat qog'ozda edi.

1806-yilgacha «Muqaddas Rim imperiyasi» deb atalgan bu imperiyada, hatto yagona fuqarolik ham yo'q edi. Aholi imperiyaning emas, balki knyazliklarning fuqarolari edi.

Gabsburglar sulolasidan bo'lgan Germaniya imperatori o'zining Avstriyadagi yerlaridan tashqarida hech qanday real hokimiyatga ega emasdi. Imperiya Reyxstagi esa amalda barcha knyazliklarga majburiy bo'lgan yakuniy qarorlar qabul qila olmasdi.

Qabul qilgan taqdirda ham, u amalda bajarilmasdi. Bunday sharoitda har bir knyazlik nafaqat ichki ishlarda, balki tashqi siyosatda ham mustaqillikka intilardi.

Germaniyaning xalqaro ahvoli. Ichki siyosiy tarqoqlik XVII asrning ikkinchi yarmida Germaniyani Yevropaning kuchli davlatlari qo'lida qo'g'irchoqqa aylantirib qo'ydi. Fransiya oxir-oqibatda Strasburg shahri va Reyn daryosining chap qirg'oq yerlarini egallab oldi.

1683-yili Germaniya knyazliklari Turkiya bosqiniga qarshi kurashish uchun tarixda birinchi marta yakdil qaror qabul qildilar va milliy-ozodlik qo'shinini tuzdilar. Shu yili Vena ostonalarida usmoniylarning qo'shini tor-mor keltirildi. Germaniyaning bu g'alabasi Markaziy Yevropani usmoniylar bosqinidan saqlab qoldi.

Prussiya qirolligining tashkil topishi. Germaniya knyazliklari ichida Avstriya va Brandenburg eng kuchlilari edi. XVII asr shu ikki knyazlikning Germaniyada gegemonlik uchun kurashi ostida o'tdi. Avstriyani gabsburglar sulolasi, Brandenburgni esa gogensollernlar sulolasi boshqarardi.

Birining poytaxti Vena shahri, ikkinchisidiki esa Berlin shahri edi. XVII asr oxiriga kelib, Brandenburg knyazligida Prussiya gersogligi yetakchi mavqega ega bo‘lib oldi.



1683-yili Germaniya knyazliklari Turkiya bosqiniga qarshi kurashish uchun tarixda birinchi marta yakdil qaror qabul qildilar.

XVII asr Avstriya va Brandenburg knyazliklarining Germaniyada gegemonlik uchun kurashi ostida o‘tdi.

1701-yili Brandenburg knyazligi o‘rnida Prussiya qirolligi tashkil topdi. Brandenburg knyazi Fridrix I nomi bilan Prussiya qiroli deb e‘lon qilindi. Shu davrdan boshlab, qulay xalqaro sharoitdan va boshqa nemis knyazliklarining kuchsizligidan foydalangan Prussiya qudratli davlatga aylana bordi. Prussiya qudratli qo‘shin ham tuza oldi.

XVIII asr oxirida Prussiya maydoni jihatidan Yevropada uchinchi, qo‘shini soni jihatidan esa to‘rtinchi o‘rinni egalladi.

Fridrix II hukmronligi davrida (1740–1786) Prussiya mutlaq monarxiyaga aylandi.



Real – haqiqatan ham mavjud bo‘lgan; amalga oshadigan; bajarilishi mumkin bo‘lgan.

Gegemonlik – siyosiy, iqtisodiy, harbiy ustunlik, bir davlatning boshqasi ustidan hukmronligi.



1. *Germaniya imperiyasining iqtisodiy taraqqiyotda orqada qolishining sabablari haqida nimalarni bilib oldingiz?*
2. *Germaniyada hukm surgan siyosiy tarqoqlik qanday oqibatlariga olib keldi?*
3. *Germaniya knyazliklarining 1683-yili usmoniylar qo‘shini ustidan qozongan g‘alabasi Yevropa uchun qanday ahamiyatga ega bo‘ldi?*
4. *Prussiya qirolligi qanday sharoitda tashkil topdi?*



Ijodiy ish topshirig‘i

«Germaniya imperiyasining tashkil topishi» mavzusida mustaqil ish yozing.



Internet vositasida *Germaniya imperiyasiga* virtual sayohat uyushtiring va mavzuda o‘rganilgan materiallar asosida tarixiy voqelikni tahlil qiling.

10-mavzu: XVI–XVIII ASRLARDA ROSSIYA IMPERIYASI

Rus yerlarining birlashishi. Oltin O‘rdaga qaramlikdan ozod bo‘lgan Rus yerlarining Moskva atrofida birlashish jarayoni XVI asr boshlarida nihoyasiga yetdi. Markazlashgan davlat tashkil topdi va u endi «Rus», «Rossiya» deb ataldi.



Kiyev Rusi davlatiga qachon va kim tomonidan asos solingan?

1547-yili taxtga o‘tirgan Ivan IV Rossiya tarixida birinchi bor podsholik tojini kiydi va «sar» deb ataldi. Rusda hukmdorlar ilgari «Buyuk knyaz» deb atalar edi. Ivan IV ga podsholik unvonining berilishi uni G‘arbiy Yevropa qirollari bilan tenglashtirdi. Ivan IV ichki siyosatining asosiy maqsadi dvoryanlar tabaqasini kuchaytirish orqali boyarlar mavqeyini zaiflashtirishga qaratildi. Shu maqsadda 1549-yili u birinchi bor erkin aholi turli toifalari vakillarining yig‘ilishini – **Zemstvo soborini** chaqirdi.

Ivan IV Zemstvo soborida boyarlar hokimiyatini keskin qoraladi. Sobor yangi qonunlar to‘plami – **Sudebnik** tuzish haqida qaror qabul qildi. Unga ko‘ra, bundan buyon dvoryanlarni jinoyat va nojo‘ya qilmishlari uchun boyarlar sudiga berish taqiqlandi. Dvoryanlardan ming nafariga Moskva uyezdidan yer-mulk ajratib berildi. Davlat lavozimlarini faqat zodagon naslidan bo‘lgan kishilar egallashi tartibiga ham chek qo‘yildi.

Boyarlar uchun aholidan yig‘iladigan soliqlar bekor qilindi. Joylarda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari – **zemstvolar** tuzildi. Sudebnik krepostnoy dehqonlarning bir yer egasidan boshqasiga o‘tishini yiliga bir kun – 26-noyabr bilan cheklab qo‘ydi.

Oprichnina. Boyarlar hokimiyatiga zarba berish maqsadida 1565-yilda Ivan IV mamlakat yerlaridan katta qismini ajratib oldi. Bu yerlar **oprichnina** (ajratib olingan) deb ataldi. Oprichnina o‘z qo‘shiniga ega bo‘ldi. U podshoning o‘z raqiblarini jazolash quroliga aylantirildi. Mamlakatda shafqatsiz terror, qatl va surgun davri boshlandi. Shuning uchun Ivan IV «**Grozniy**» (shafqatsiz, dahshatli) laqabi bilan ataldi.

Oprichnina Rossiyada feodal tarqoqlik qoldiqlariga qarshi kuchli zarba berdi. Ammo u mamlakat xo‘jaligiga katta talafot yetkazdi. Na faqat boyarlar, balki o‘n minglab oddiy odamlar ham qurbon bo‘ldi.

Bu esa jamiyatning turli qatlamlarida oprichnidan norozilikni kuchaytirdi. Natijada, Ivan IV 1572-yili oprichninani bekor qilishga majbur bo'ldi.

Bu davrda Rossiya hududi bosqinchilik urushlari olib borish hisobiga sharqqa va janubga tomon kengayib bordi. Chunonchi, XVI asrning ikkinchi yarmida Qozon, Ashtarxon (Astraxan) va Sibir xonliklari bosib olindi. XVI asr oxiriga kelib, Rossiya hududi qariyb ikki barobar kengaydi.



◆ 1547-yili – ...

◆ 1565–1572-yillarda – ...

◆ 1549-yili – ...

◆ XVI asr ikkinchi yarmida – ...

«**G'alayonlar davri**». Ivan IV Grozniy vafot etgandan so'ng taxtga uning o'g'li Fyodor Ivanovich keldi. 1598-yili Fyodor ham vafot etdi. U farzandsiz edi va taxtga voris qoldirmadi. Shu tariqa Rossiyani 700 yil boshqargan ryuriklar sulolasi hukmronligi barham topdi. Shunday sharoitda Zemstvo sobori Boris Godunovni podsho etib sayladi.

Boris Godunov vafot etgach, Rossiya tarixida notinch, g'alayonlar davri boshlandi. Qisqa vaqt ichida bir nechta podsho almashdi, boyarlar ta'siri yana kuchaydi. Shuningdek, chet davlatlar – Polsha va Shvetsiya Rossiya ichki ishlariga zo'r berib aralasha boshladilar. Polsha, hatto Moskvani egallab oldi. Shunday og'ir sharoitda Rossiya vatanparvar kuchlari qishloq oqsoqoli Kuzma Minin va sarkarda Dmitriy Pojarskiy yetakchiligida xalq lashkarini to'pladi. Ular 1612-yili Moskva uchun bo'lgan janglarda Polsha qo'shinini mag'lubiyatga uchratdi va Moskvani chet el bosqinchilaridan ozod qildi. Rossiya ichki va tashqi ahvoli og'irligiga qaramasdan, o'z mustaqilligini saqlab qola oldi. Endi Rossiyaning yangi podshosini saylash masalasini hal etish kerak edi.

1613-yili Moskvada chaqirilgan Zemstvo sobori Ivan IV Grozniy xotining qarindoshi Mixail Fyodorovich Romanovni Rossiya podshosi etib sayladi.

Shu tariqa Rossiyada yangi sulola – romanovlar sulolasi taxtga kelib, ular mamlakatni 1917-yil fevralgacha boshqardi.

Iqtisodiy rivojlanish. XVII asrdan Rossiya iqtisodiyotida yangi aloqalar paydo bo'ldi. Bu, avvalo, tovar, ya'ni bozorda sotish uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishning rivojlanishida va manufakturalar vujudga kelishida namoyon bo'ldi. Bu jarayondan qishloq

xo'jaligi ham chetda qolmadi. Asosiy oziq-ovqat mahsuloti – g'alla hamma yerda tovarga aylandi.

Rossiyada XVII asrdan boshlab shaharlar ham rivojlandi. Ular mamlakatning savdo-sanoat markazlariga aylanib bordi.


Hunarmandchilikning rivojlanishi mamlakatning rivojlanishiga, viloyatlar o'rtasida xo'jalik aloqalarining kengayishiga, butunrossiya yagona ichki bozorining tarkib topishiga olib keldi. Shu tariqa Rossiya iqtisodiyotida ham juda sekinlik bilan bo'lsa-da, yangi – kapitalistik munosabatlar shakllana bordi.

Mutlaq monarxiyaning qaror topishi. Rossiyada mutlaq monarxiyaning to'la qaror topishi Pyotr I nomi bilan bog'liq. U 1689-yilda taxtga o'tirdi. Pyotr I tashqi siyosatining asosiy maqsadlaridan biri Rossiyani kuchli harbiy-dengiz flotiga ega davlatga aylantirish edi. U bu vazifani muvaffaqiyat bilan amalga oshirdi.

1700-yili Rossiya Boltiq dengiziga chiqish uchun Shvetsiyaga qarshi urush boshladi. Bu urush tarixga «Shimoliy urush» nomi bilan kirdi. Urush 1721-yili Rossiyaning g'alabasi bilan tugadi. Shu yili Finlandiyaning Nishtadt shahrida Rossiya – Shvetsiya tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga binoan, Rossiya Boltiq dengiziga chiqish huquqiga ega bo'ldi. Ayni paytda Rossiya Yevropaning qudratli davlatlaridan biriga aylandi. 1721-yili Pyotr I imperator deb e'lon qilindi. Rossiya imperiyaga aylandi va mamlakatda mutlaq monarxiya to'la qaror topdi.

Rus millatining shakllanishi. Madaniyat. Rus yerlarining birlashtirilishi natijasida madaniy aloqalar mustahkamlandi va rus madaniyatining o'sishi boshlandi. Madaniyatning rivojlanishi, iqtisodiy yuksalish bilan birga, rus millatining shakllanishiga olib keldi. Asta-sekin mahalliy shevalar barham topib, rus millatining til birligi vujudga keldi, yagona madaniyat shakllandi. Rusning madaniy birligi xalq og'zaki ijodi, me'morchilik, tasviriy san'at va adabiyotda o'z ifodasini topdi. Ammo, madaniyatning yuksalishiga qaramasdan, aholining asosiy qismi savodsizlik va jaholat botqog'ida qolayotgan edi. Shu sababli XVIII asrdan boshlab, mamlakatda bir qator maktablar ochilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Moskvadagi matematika va navigatsiya fanlari maktabi, artilleriya, meditsina maktablari shular jumlasidan edi. Moskvadan boshqa hududlarda ham bir qator maktablar va bilim yurtlari ochildi.

Shu davrda Peterburgda Rossiya Fanlar akademiyasi, keyinchalik akademiya qoshida gimnaziya va universitet tashkil topdi. 1755-yili



XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi

buyuk rus olimi M.V. Lomonosov tashabbusi bilan Moskva universiteti tashkil qilindi. Bu davrdagi Rossiya fanining muvaffaqiyatlari Moskva universiteti va M.V. Lomonosov faoliyati bilan bog'liq.

Shu yillari rus geografiya fani katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Osiyo bilan Amerika o'rtasidagi Bering bo'g'ozini kashf etildi. Laptevlar ekspeditsiyasi Shimoliy Muz okeanini Murmanskdan to Chukotka-gacha o'rganib chiqdi. S.I. Chelyuskin Osiyoning eng shimoliy chekkasini kashf etdi. Hozir bu yer Chelyuskin burni deb ataladi.

Shu davrda texnika taraqqiyotida ham katta muvaffaqiyatlarga erishildi. I.I. Polzunov, I.P. Kulibin kabi olimlar ko'plab texnik ixtirolarni amalga oshirdi. Rossiyalik olimlar va kashfiyotchilar tomonidan yaratilgan mashinalar jahon fani va texnikasi yutuqlarining oldingi qatorida turardi. Ammo qoloq, krepostnoy Rossiyada bu mashinalarga talab yo'q, ular deyarli qo'llanilmas edi.



Oprichnina — podsho hokimiyati dushmanlarini zo'rlik va terror vositalari bilan bostirishga urinish siyosati edi.

1612-yili Moskva uchun bo'lgan janglarda Polsha qo'shini mag'lubiyatga uchradi.

1755-yili buyuk rus olimi M.V. Lomonosov tashabbusi bilan Moskva universiteti tashkil qilindi.

XVI–XVIII asrlarda rus adabiyoti ham katta yuksalish yo'lini bosib o'tdi. Bu davrda ijod qilgan **G.D. Derjavin**, **D.I. Fonvizin** kabi shoir va yozuvchilar zamonaviy rus adabiyotining shakllanishiga katta hissa qo'shdilar. Mashhur masalchi **I.A. Krilov** ijodining boshlanishi ham shu davrga to'g'ri keladi.

Pyotr I davridan boshlab, Peterburg va Moskvada juda katta qurilish ishlari olib borildi. Shu yillari rus me'morchiligida Yevropa va rus milliy an'alarini uyg'unlashtirgan yo'nalish vujudga keldi.

Shu davrda rus milliy teatri ham shakllandi. Uning asoschisi savdogar **F.G. Volkov** rus aktyorlarining butun bir avlodini tarbiyalashda katta xizmat ko'rsatdi.

XVI–XVIII asrlar Rossiya tarixida muhim davr bo'ldi. Bu davrda Rossiya imperiya sifatida shakllandi, uning hududi ikki barobardan ziyod kengayib, Yevropaning eng katta va harbiy jihatdan qudratli davlatiga aylandi. Ammo qoloq ijtimoiy munosabatlar tufayli Rossiya iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda Yevropadan ortda qolib ketdi.



Boyarlar dumasi – Rus davlatida dastlab knyazlar, so'ng podsho huzuridagi Oliy davlat kengashi.

Sudebnik – qonunlar to'plami.



1. *Rusni markazlashgan davlatga aylantirish qachon tugallandi va uning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat bo'ldi?*
2. *Rossiyada qanday boshqaruv tizimi qaror topdi?*
3. *Ivan IV Grozniy joriy etgan oprichnina nima va undan qanday maqsad ko'zlangan edi?*
4. *Rossiyada romanovlar sulolasi hukmronligi qay tariqa o'rnatildi?*



Angliya, Fransiya qirollari va Rossiya podsholari o'z siyosatlarida amalga oshirgan eng muhim ishlarining ro'yxatini daftaringizga tuzing.



Internet vositasida *XVI–XVIII asrlarda Rossiya imperiyasiga* virtual sayohat uyushtiring va mavzuda o'rganilgan materiallar asosida tarixiy voqelikni xronologiya shakliga keltiring.

11-mavzu: XVIII ASRDA SHIMOLIY AMERIKA. AMERIKA QO'SHMA SHTATLARINING TASHKIL TOPISHI

Shimoliy Amerikadagi ingliz mustamlakalari. Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng Markaziy va Janubiy Amerikada Ispaniya va Portugaliya mustamlakalari tashkil qilingan bo'lsa, Shimoliy Amerika, asosan, Angliya va Fransiya tomonidan egallab olindi.

1607-yili Angliyaning Virjiniyadagi ilk manzilgohi – Jeymstaun tashkil qilindi. Ingliz mustamlakachilarining oqimi yil sayin oshib bordi. Bu yerga puritanlar jamoalari, yerlaridan ayrilgan dehqonlar, minglab yoshlar ko'chib keldi. Shuningdek, mehnatga yaroqli jinoyatchilar ham hukumat tomonidan mustamlakalarga surgun qilindi.



O'rta asrlarda Amerikaning qaysi xalqlari o'z davlatlarini barpo eta olishgan edi?

Mustamlakachilar va hindular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar juda murakkab edi. Hindular yangi texnologiya va savdo-sotiqdan foyda ko'rishiga qaramasdan, inglizlar keltirgan kasalliklar va ochko'zlik ularning azaldan shakllangan hayot tarziga jiddiy zarar yetkazdi.

Mustamlakalarda kichik fermer xo'jaliklari keng tarqaldi. Astasekin qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan sanoat o'sib bordi, XVII asrning ikkinchi yarmida birinchi manufakturalar paydo bo'ldi. Mamlakatda kapitalistik tuzum rivojlanayotgan bir sharoitda amerikacha plantatsiya qulchiligi ham saqlanib qoldi. XVII asrdan boshlab, Afrikadan ko'plab qora tanli qullar olib kelindi.

Zamonaviy millatning shakllanishi. Angliya burjua inqilobidan keyin Amerikadagi mustamlakalarda ham burjuacha boshqaruv usullari va hayot tarzi shakllanib bordi. XVIII asrning o'rtalariga kelib, mustamlakalarda yagona ichki bozor vujudga kela boshladi, savdo aloqalari rivojlandi.



- ◆ XVII asrning ikkinchi yarmidan ...
- ◆ XVII asrdan boshlab, ...

Amerikada birga yashashning tarixiy tajribasi asosida ko'chib kelganlarning yagona tarixiy taqdiri yuzaga keldi. Ingliz tili ular uchun umumiy til bo'lib qoldi. Urf-odatlar va turmush tarzi bir xillashib bordi. XVIII asrning o'rtalariga kelib, Amerikaning ko'pchilik aholisi o'zlarini amerikalik deb atay boshladi. Ayni paytda o'ziga xos milliy madaniyatning ham tarkib topish jarayoni yuz berdi. Shu tariqa zamonaviy **amerika** millati shakllandi.

Mustaqillik uchun bo'lgan urushning sabablari. Buyuk Britaniya qiroli, zodagonlar va tadbirkorlar mustamlakalardan olinadigan foydani tobora ko'paytirishga harakat qilardi. Ular mustamlakalardan qimmatbaho xomashyo, teri va paxtani olib ketardi, mustamlakalarga esa tayyor mahsulotlarni olib kelishar, soliq va to'lovlarni yig'ib olardi. Buyuk Britaniya parlamenti Amerika tadbirkorlari uchun turli taqib va cheklovlar o'rnatgan edi. Amerikaliklarning dastlabki norozilik chiqishlari shu cheklovlar va soliqlarning oshirilishiga qarshi bo'lib o'tdi.


Urushning boshlanishi. 1774-yil sentabrda Filadelfiyada Birinchi Qit'a Kongressi yig'ildi. Unda Jorjiyadan tashqari barcha mustamlakalardan vakillar qatnashdi. Kongress hali Buyuk Britaniyadan ajralish masalasini ko'tarishga jur'at qila olmadi, lekin Britaniya siyosatini qoraladi. Kongress iqtisodiyotni boshqarish uchun «Kontinental uyushma» tashkilotini tuzdi. Mustaqillik tarafdorlari tomonidan boshqarilgan mazkur tashkilot jamoatchilik orasida inqilobiy kayfiyatni avj oldirib yubordi. Ingliz qo'shinlari bilan dastlabki qurolli to'qnashuvlar bo'lib o'tdi.

Mustaqillik uchun kurashchilar Amerikada respublika tuzish g'oyasi bilan chiqdilar. 1775-yil may oyida boshlangan Ikkinchi Qit'a Kongressi mustaqillik uchun urush boshlashga qaror qildi.

Virjiniyalik polkovnik **Jorj Vashington** Amerika qurolli kuchlarining bosh qo'mondoni etib tayinlandi. Respublikachilik kayfiyati aholining turli qatlamlarini qamrab oldi.

Mustaqillik Deklaratsiyasi. 1776-yil mayda Buyuk Britaniyadan ajralib chiqishga da'vat etuvchi qaror qabul qilindi. Rasmiy bayonot-noma tayyorlash uchun virjiniyalik Tomas Jefferson boshchiligidagi komissiya tuzildi.

1776-yil 4-iyulda qabul qilingan va asosan, T. Jefferson zakovatining mahsuli bo'lgan Mustaqillik Deklaratsiyasi yangi davlatning qaror topganligini va butun dunyoda harakatchan kuchga aylangan inson ozodligi haqidagi dunyoqarashni e'lon qildi.



AQSH mustaqilligining e'lon qilinishi



Angliyaning Shimoliy Amerikadagi ilk mustamlakasi 1607-yili Jeymstaunda tashkil qilindi.

1774-yil sentabrda Filadelfiyada Birinchi Qit'a Kongressi chaqirildi.

1776-yil 4-iyulda AQSHda Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi.

«Biz, Amerika Qo'shma Shtatlarining vakillari, xalq nomidan va uning vakolati bilan e'lon qilamizki, bu birlashgan mustamlakalar aslida ham, haq-huquqqa ko'ra ham ozod hamda mustaqil shtatlar bo'lmog'i lozim. Shu daqiqadan boshlab, ular Britaniya taxtiga har qanday mansublikdan ozod qilinadilar», – deyiladi Mustaqillik Deklaratsiyasida.

Mustaqillik Deklaratsiyasida davlat qurilishining asosi sifatida xalq suvereniteti prinsipi e'lon qilindi, xalqning zolimlarga qarshi isyon qilishga, yashashga, ozod bo'lishga, tenglikka bo'lgan huquqi e'tirof etildi. **4-iyul** har yili AQSHda **Mustaqillik kuni** sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

Amerika inqilobining xarakteri va xususiyatlari. Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun olib borilgan urush ayni paytda burjua inqilobi bo'lib, u ikkita: milliy mustaqillikka erishish va Amerikada kapitalistik munosabatlarni o'rnatish muammolarini hal qilishi lozim edi.

Inqilobning asosiy xususiyati shu ediki, u milliy-ozodlik urushi shaklida o'tdi. Urush davrida bir qator demokratik o'zgarishlar amalga oshirildi.

Urush harakatlarining borishi. Buyuk Britaniya Amerika mustaqilligini birdaniga tan olmadi, mustaqillik tarafdorlariga qarshi qat'iy kurash olib bordi. Harbiy harakatlar, asosan, mamlakat shimolida bo'lib o'tdi. Inqilob davrida respublikachilar armiyasi katta qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Askarlar harbiy ishga deyarli o'rgatilmagan, qurol-aslaha, o'q-dori, oziq-ovqat yetishmas edi.


Shunday sharoitda Fransiya Amerikaga qurol-yarog' bilan yordam bera boshladi. Amerika va Fransiya o'rtasida «Do'stlik va Tijorat Bitimi» imzolandi. Fransiya — Amerika ittifoqi yaxshi natijalarga olib keldi. **1782-yili** ingliz qo'shinlarining asosiy qismi taslim bo'ldi. Shundan so'ng Buyuk Britaniya hukumati Parijda tinchlik muzokaralari o'tkazishga qaror qildi. Muzokaralarda Amerika tomonidan Benjamin Franklin, Jon Adams va Jon Jey qatnashdi.

1783-yili Britaniya va uning Amerikadagi sobiq mustamlakalari o'rtasida **Parij sulhi** imzolandi. Sulhga muvofiq, Buyuk Britaniya Amerika Qo'shma Shtatlarining tuzilganligini, uning mustaqilligi, ozodligi va suverenitetini tan oldi.

Urush tugadi. Oldinda esa davlatni jipslashtirish, uning iqtisodiy ahvolini yaxshilash vazifasi turardi.

1787-yilgi Konstitutsiya. Inqilobning muvaffaqiyatli yakunlanishi amerikaliklarga Mustaqillik Deklaratsiyasida ifodalangan orzu-umidlari va g'oyalarini konstitutsiyada aks ettirish imkonini berdi. Deyarli barcha shtatlar o'z konstitutsiyalariga ega bo'ldi.

Ammo mamlakatda shtatlarni yagona qonun asosida birlashtirish, ularni boshqarish, yagona iqtisodiy tizimni shakllantirish kabi muammolar mavjud edi. Ularni hal etish uchun 1787-yilning mayida Filadelfiyada ish boshlagan Federal Konvent yig'iniga shtatlardan saylangan vakillar sifatida ko'zga ko'ringan arboblardan to'plandi. Ular orasida Jorj Vashington, Jeyms Uilson, Benjamin Franklin, Jeyms Medison, Aleksandr Gamilton kabi mashhur kishilar — «Amerikaning otalari» bor edi.



XIX asrning 70-yillarida AQSH



- ◆ 1783-yili ...
- ◆ 1787-yilning may oyida ...
- ◆ B. Franklin, J. Adams va J. Jeylar faoliyati – ...

Fikr-mulohaza va tortishuvlar uzoq davom etdi. Bahslar, asosan, Kongress, federal hukumat va Oliy sudning maqomi hamda shtatlar bilan markaziy hokimiyat o'rtasidagi munosabatlar xususida bordi. Natijada, **1787-yil 17-sentabrda AQSH Konstitutsiyasi** qabul qilindi.

Konstitutsiya AQSHda Respublika tuzumini o'rnatdi. Ijro hokimiyatini boshqarish uchun 4 yil muddatga saylanadigan va keng vakolatlarga ega bo'lgan AQSH prezidenti lavozimi joriy qilindi. **1789-yili** bo'lib o'tgan saylovlarda **Jorj Vashington** AQSHning birinchi prezidenti etib saylandi.

Inqilob natijasida AQSH mustaqil davlatga aylandi, respublika tuzumi o'rnatildi, savdo va sanoatni rivojlantirish yo'lidagi barcha to'siqlar olib tashlandi, erkin raqobatga, shaxsiy tashabbus va faollikka, ishbilarmonlikka keng yo'l ochildi. Biroq janubiy shtatlarda plantatsion qullik saqlanib qoldi.

Mustaqillik Deklaratsiyasi va AQSH Konstitutsiyasi Yevropaning ilg'or tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatdi, ularda ilgari surilgan g'oyalar umuminsoniy xarakterga ega bo'lib, ko'plab xalqlar kurashining mazmuniga aylanib qoldi.



Deklaratsiya – muhim qoidalar e'lon qilingan hujjat.

Federal hukumat – federativ davlatda markaziy boshqaruv organi.

Federal Konvent – Kontinental uyushma, qit'a uyushmasi, qit'a miqyosidagi tashkilot.

Federal – federatsiya (ittifoq) tarkibiga kirgan barcha subyektlar (respublika, shtat) uchun umumiy tushuncha. Masalan, federal hukumat yoki Federal Konvent.



1. Angliyaning Shimoliy Amerikada mustamlakachilik siyosati qanday amalga oshirildi?
2. Amerika millatining shakllanishiga olib kelgan omillar nimalardan iborat?
3. Parij sulhi qachon imzolandi va uning mohiyati nimadan iborat?
4. AQSH konstitutsiyasining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?



Ijodiy ish topshirig'i

Tomas Jefferson, Jorj Vashington haqidagi ma'lumotlarni toping va tarixiy shaxslar faoliyatiga baho bering.



Xaritadan foydalanib, AQSH ma'muriy-hududiy tuzilishini daftaringizga qayd eting.


12-mavzu: MA'RIFAT ASRI

Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar. XVIII asr Yevropa tarixiga «Ma'rifat asri» nomi bilan kirdi. Ilgari faqat tor doiradagi olimlarning mulki bo'lgan ilm-fan universitet chegarasidan chiqib, keng jamoatchilikka tarqala boshladi.

Eng ilg'or kayfiyatdagi, ma'rifatli yozuvchilar, rassomlar, faylasuflar insonni ezayotgan, uning qobiliyatini cheklayotgan va qadr-



Volter



Sharl Monteskyo

qimmatini oyoqosti qilayotgan hamma holatlarni keskin tanqid qilib chiqdilar. Ular cherkov ta'limoti va umuman, dinning o'zini tanqid qildilar, absolutizmga va barcha feodal tartiblarga qarshi chiqdilar, feodal turmush tarzining umrini o'tab bo'lgan barcha illatlariga qarshi kurash boshladilar.

XVIII asr ma'rifatparvarlarini insonning tuganmas kuch va imkoniyatlariga buyuk ishonch, ommani keng miqyosda ma'rifatli qilish zaruratini tushunish hissi ajratib turardi. Shu sababli ma'rifatparvarlik o'z davrining buyuk g'oyaviy harakati edi.

Bu harakat ishtirokchilari tarixda «**ma'rifatparvarlar**» nomini oldilar. Ulardan eng mashhurlari fransuz allomalari **Volter**, **Sharl Monteskyo**, **Jan Jak Russo**, **Deni Didro** va ingliz ma'rifatparvari **Adam Smit** edi.

Inson ongining yaratuvchanlik qudratiga cheksiz ishongan ma'rifatparvarlar, feodal tartiblar bilan kurashning inqilobiy usullariga salbiy munosabatda bo'ldilar. Ular ma'rifatning rivojlanishi o'z-o'zidan mavjud tartiblarning o'zgarishiga olib kelishi mumkin, deb hisoblar edilar.

Eski nazariyalar va g'oyalarga qarama-qarshi tarzda ma'rifatparvarlar ilg'or va o'z davri uchun inqilobiy bo'lgan yangi g'oyalarni ilgari surdilar.

Inson uchun munosib yashash va mehnat sharoitini yaratadigan fanning imkoniyatlariga cheksiz ishonch Ma'rifat asrining asosiy g'oyasi bo'ldi. Shu sababli «fan va taraqqiyot» degan so'zlar ma'rifatparvarlarning shioriga aylandi. Insonning yaratuvchanlik qudratiga ulkan ishonch ma'rifatparvarlarni doimo ilhomlantirib turdi.

Ma'rifat asri badiiy adabiyoti. Ma'rifat asri – bu Yevropa madaniyati tarixidagi asosiy bosqichlardan biri bo'lib, fan, falsafa va ijtimoiy fikr taraqqiyoti bilan bog'liq. Ma'rifat asrining asosini hurfikrlilik tashkil qiladi. Bolalikdan ko'pchilikning sevimli qahramoni bo'lgan Robinzon Kruzo Ma'rifat asrida dunyoga keldi. Ingliz yozuvchisi **Daniyel Defo** (1660–1731) o'z qahramonini ishbilarmon,

mehnatsevar, o'z kuchiga ishonuvchi qilib yaratdi. Robinzon kimsasiz orolda tirishqoqlik va o'jarlik bilan uy qurdi, ro'zg'or buyumlari va mebel yasadi, hayvonlarni o'rgatdi. «Robinzon Kruzoning hayoti va g'aroyib sarguzashtlari» romani mehnat, aniq insoniy fikr, tirishqoqlik va jasorat madhiyasi bo'lib qoldi.


Qishloq ruhoniysi, keyinchalik esa Irlandiyadagi Dublin ibodatxonasi rahbari **Jonatan Svift** (1667–1745) ma'rifatparvarlarning oliyjanob g'oyalari odamlarni o'zgartirmaganligini, burjua jamiyati ham feodal jamiyat singari mukammallikdan ancha yiroq ekanligini o'zining «Gulliverning sayohatlari» romanida ochib berdi.

Sviftning qahramoni Gulliver bilan Robinzon — zamondoshlar, Ma'rifat asri odamlari, lekin Gulliverning qarashlari chuqurroq. Balki shuning uchun ham uning yiroq mamlakatlarga qilgan sayohatlari quvonchsiz yakun topadi.

Ammo Sviftning maqsadi inson tabiatini berparvo kuzatish emas, odamlarga sidqidildan achinish, ularga insoniylikni saqlab qolishda ko'maklashish, yovvoyilashib ketishdan ogohlantirish edi. «Inson siz o'ylagandan ko'ra qadrliroq», deb yozgan Sviftning aql yolqini va qobiliyat kuchi Ma'rifat asrini so'nmas nur bilan yoritib turadi.

Uning og'ir holatda ham insoniylikni saqlab qolishga da'vati bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Buyuk nemis shoiri **Iogann Volfgang Gyote** (1749–1832) esa o'z asrini — ong va yorug'lik asrini ifodalaydigan qahramon izlab, doktor Faust haqidagi qadimiy nemis afsonasini qayta yozdi. Yaratilishiga 60 yil sarflangan falsafiy drama insonning o'z g'oyalari uchun kurashi buyuk kurash ekanligini ta'kidlash bilan Ma'rifat asrining mohiyatini ochib beradi. Kek-



J.J. Russo



D. Defo



J. Svift

sayib qolgan Faust mangu haqiqatni anglab yetadi:



I.V. Goyte

*Uzoq hayot yo'lin o'tdim-u bosib,
Olam haqiqatin ayladim yakun:
Faqat shu munosib hayot va erkka,
Kim har kun ular-chun kurashga kirs!*

Tasviriy san'at. XVIII asrning birinchi yarmida Yevropa tasviriy san'atida hali ham saroy ahlining nozikta'b san'ati gullab-yashnardi. Bu davrda «qirolning birinchi tasvirchisi», afsonaviy sahnalarning ajoyib ustasi **Fransua Bushe** (1703–1770) edi. Uning real hayotdan cheksiz yiroqda bo'lgan suratlari aristokratlar saroylariga ajoyib bezak bo'la olardi.



«Beparvo»

Boshqa bir rassom **Antuan Vatto**ning (1684–1781) suratlari esa ancha chuqurroq ma'no kasb etar edi. U chizgan suratlar eng nozik his-tuyg'ularni, qahramonlarning ko'z ilg'amas kayfiyatlarini ifodalaydi. Vatto chizgan «Qiyin taklif», «Beparvo» kabi asarlar juda mashhur edi.

Musiq. Nemis kompozitori **Iogann Sebastyan Bax** (1685–1750) hayot davrida mashhur emasdi. Uning asarlari odamlarga o'ta jiddiy tuyulardi, cherkov esa Xudodan qo'rqish ohanglarining yetarli emasligi uchun uning musiqalarini yoqtirmas edi. Hatto, Baxning o'g'illari ham otasining ijodini umidsiz, eskirib qolgan deb hisoblashardi. Ularga meros bo'lib qolgan Bax qo'lyozmalarining ancha qismini yo'qotib yuborishgan.



I.S. Bax

Baxning xor, solistlar va orkestr uchun yozilgan ulkan asari – «Matto bayon etgan buyuk musibat» havoriy, ya'ni Iso Masihning shogirdi Matto hikoya qilib bergan Iso uqubatlarini, his-hayajonini ifodalaydi.

Injil afsonasini Bax odamlarni qutqarish uchun o'zini qurbon qilgan qahramon haqidagi xalq dramasi sifatida bayon qiladi.

Ma'rifat asri musiqa san'atiga ulkan hissa qo'shgan yana bir shaxs **Wolfgang Amadey Motsart** (1756–1791) edi.

U Avstriyaning qadimiy go'zal shaharchasi Zalsburgda dunyoga keldi.

Zamondoshlari Motsartni o'z davrining haqiqiy mo'jizasi deyishgan. Uning hayoti qisqa, qashshoqlik, xo'rlik va yolg'izlikka to'la bo'lsa ham, unda quvonch va buyuk muhabbat, baxt va ijodga intilish ustun edi.

U 3 yoshidan boshlab musiqani o'rgana boshladi, 4 yoshida o'zining birinchi konsertini yozdi, 12 yoshida yozgan operasining premyerasi Milan teatrida qo'yildi, 14 yoshida Motsart Italiyadagi eng obro'li musiqa akademiyasining akademigi bo'ldi. Hayotining so'nggi o'n yilini Motsart Venada o'tkazdi. Kompozitorning «Figaroning uylanishi» operasi uni juda mashhur qildi. Operaning kuylari hamma yerda: ko'chalarda, maydonlarda, oshxonalarda jaranglaydi, uni, hatto ko'cha musiqachilari ham ijro etardilar.

Kompozitorning so'nggi asari – «Rekviyem» (*requem* – motam kuyi, orom) cherkovlarda marhumlarning xotirasiga bag'ishlab ijro etilardi. Bu hayot va o'lim haqidagi, insonning bu dunyodagi qismati haqidagi asar. Uning birinchi ijrosigacha yashash Motsartga nasib etmadi.

O'zini buyuk kompozitor Motsartning vorisi deb hisoblagan kishi **Lyudvig van Betxoven** (1770–1827) edi. U 22 yoshidan boshlab Venada yashadi. Dahshatli kasallik oqibatida qiynalgan va butunlay eshitmay qolgan Betxoven taslim bo'lmadi. U kasallikka qarshi kurashgan yillari ta'sirining qudrati va go'zalligi bilan kishilarni hayratga soladigan asarlar yaratdi.

«Fantaziya yo'lida sonata» («Oydin») – kompozitorning baxtsiz muhabbati haqidagi asar. «Qahramonona» simfoniyasi esa XVIII asr oxirida Fransiyada yuz bergan inqilobiy voqealar ruhi bilan yo'g'rilgan.

Simfoniya dastlab Bonapartga bag'ishlangan edi. U o'zini imperator deb e'lon qilganidan so'ng kompozitor asarini uning nomi bilan bog'lamadi va «Qahramonnoma» degan yangi nom berdi.



V.A. Motsart



L.V. Betxoven

Simfoniya markazida – bo‘ysunmas isyonkor obrazi, taqdirning hech qanday zarbalari sindira olmaydigan jasur, qo‘rqmas insonning qiyofasi namoyon bo‘ladi.

Betxoven umrining so‘nggi kunlarigacha ongni, yorqin kuchlar tantanasi va g‘alabasini sharaflashga bag‘ishlangan asarlar yaratish orzusi bilan yashadi.

XVIII asr tarixga Yevropadagi tabaqali jamiyat asoslariga, monarxlarning absolut hokimiyatiga qarshi ma’naviy da’vat bo‘lib chiqqan Ma’rifat asri sifatida kirdi. Ma’rifatchilik g‘oyalari kishilarning ongini egallab, Yevropa sivilizatsiyasining qiyofasini o‘zgartirib yuborgan moddiy kuchga aylandi.

Ma’rifatparvarlik g‘oyalari Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun urush yillari, Buyuk fransuz inqilobi davrida ommaviy xarakter kasb etdi. Ma’rifat davrining ko‘plab g‘oyalari XIX, ayniqsa, XX asrda demokratik mamlakatlar siyosiy amaliyotining, huquqiy normalarining asosiga aylanib, jamiyatning keng qatlamlari orasida tan olindi.

Ma’rifat asrida shakllangan insonning ozodligi va tengligi kabi g‘oyalar keyingi asrlarda Osiyo va Afrika xalqlari orasida tarqalib, bu xalqlar kurashining ham mazmunini tashkil qildi.



1. Ma’rifat asrining ijtimoiy va siyosiy g‘oyalari qaysi mutafakkirlarning nomlari bilan bog‘liq?
2. Ma’rifat asri badiiy adabiyotining qanday namoyandalarini va ularning asosiy g‘oyalari bilasiz?
3. Ma’rifatparvarlik davri tasviriy san’ati vakillaridan kimlarni bilasiz va ularning asarlari nimasi bilan ajralib turadi?
4. Ma’rifat asri musiqa san’ati dunyoga qaysi mashhur kompozitorlarni berdi?



J. Sviftning «Gulliverning sayohatlari» romanini kutubxonadan olib o‘qing va taassurotlaringizni daftaringizga yozing.



Internet vositasida Motsartning «Rekviyem» va Betxovenning «Qahramonnoma» simfoniyasini tinglang hamda ular asosida «Musiqa sehri» nomli esse yozing.



«Motsart» filmini ko‘ring va xulosa chiqaring.



III BOB. XVI–XVIII ASRLARDA OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI

13-mavzu: XVI–XVIII ASRLARDA OSIYO MAMLAKATLARI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Yevropa tarix fanida sharqona taraqqiyot shaklini «an’anaviy sivilizatsiya», «an’anaviy jamiyat» deb atashadi. Bunga ko‘pchilik kamtarona hayot tarzi, diniy sabr-toqat, yer egaligining o‘ziga xos shakli, kishilar hayotining davlat tomonidan tartibga solinishi kabilarni asosiy belgilar sifatida kiritishadi.



Qadimgi sivilizatsiyalar qaysi hududlarda paydo bo‘lgan edi?

Rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari. Osiyo mamlakatlarida Yangi davr ularning mustamlakalarga aylantirilishi bilan bog‘liq. O‘rta asrlarda Sharq mamlakatlari tabiatning nisbatan saxiy in‘omi tufayli o‘z-

larining geografik va tarixiy ustunliklarini namoyish qila oldi. Rivojlangan ijtimoiy mehnat taqsimotiga, madaniy taraqqiyotning o'ta yuqori darajasiga, jamiyat ma'naviy rivojining anchagina yuqori bosqichini aks ettiruvchi diniy va axloqiy tizimni shakllantirishga erishdi. Sharqning G'arbdan ustunligi, ayniqsa, asrlar davomida to'plangan ma'naviy imkoniyatlar, tajriba va bilimlarga tayangan intellektual kuchlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Bu davrda texnik, texnologik, tashkiliy va madaniy innovatsiyalar keng tarqalgan bo'lib, ularning ko'pchiligi 300–500 va hatto 1000 yil o'tgandan so'ng Yevropada paydo bo'ldi, qisman Sharqdan o'zlashtirildi. Aholining o'sish sur'ati ham iqtisodiy imkoniyatlarning yuqoriligidan dalolat beradi.

Biroq Yangi davr boshlariga kelib, Sharq mamlakatlari taraqqiyotda Yevropaga nisbatan sezilarli orqada qola boshladi. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

– *Sharq davlatlarida harbiy xarajatlar miqdori G'arb davlatlarinikidan ancha yuqori edi;*

– *XVI–XVII asrlardan boshlab, Sharq mamlakatlarida transport vositalari (kemalar, portlar, yo'llar, kanallar qurilishi) va kommunikatsiya tizimining (kitob chop qilish, savodxonlik darajasi) rivojlanish sur'atlari G'arb mamlakatlariga nisbatan pasaydi;*

– *O'rta asrlarning oxirlaridan boshlab, Sharq mamlakatlari yakkanlanish yoki «yopiq eshiklar» prinsipiga asoslanib, faol tashqi siyosat olib bormadi;*

– *yevropalik mustamlakachilar kirib kelishi arafasida Sharqning ko'plab mamlakatlarida tarixan yaratilgan moddiy, ijtimoiy va ma'naviy boyliklarni rivojlantirish o'rniga, tabiiy resurslardan uzoq vaqt ekstensiv foydalanish natijasida kelib chiqqan ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz kuzatilayotgan edi.*


Yevropa ekspansiyasi va mustamlakachilik Osiyo mamlakatlari-ning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga anchagina ziddiyatli ta'sir ko'rsatdi. Sivilizatsiyalar o'rtasidagi «muloqot» odamlar orasidagi juda katta yo'qotishlarga olib keldi. Ko'pchilik hollarda mustamlakachilik keng miqyosdagi talonchilikdan iborat bo'lib qoldi.

Ammo XVII asrning o'rtalarigacha G'arbnig Sharqdan ustunligi faqat tashqi ko'rinish bo'lib, bu davrda Sharq harbiy ishda, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda Yevropadan ancha oldinda edi. Ammo Sharq bir xil emasdi. Sharqda bir nechta turli sivilizatsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Xitoy-konfutsiylik sivilizatsiyasi XVI asrda dunyoning eng aholisi ko'p va boy qismi bo'lib qolayotgan edi. Kishilarning kamtarona ha-

yot tarzi, diniy sabr-toqat, yer egaligining o'ziga xos shakli, turmush tarzining davlat tomonidan tartibga solinishi kabilar bu sivilizatsiyaning asosiy belgilari hisoblanadi.

Yaponiya sivilizatsiyasi mutlaqo boshqacha xarakterga ega. U Xitoydan ko'p yangiliklarni: yozuv tizimini, moddiy madaniyatning ancha qismini qabul qildi. Shuning uchun Yaponiya sivilizatsiyasini Xitoy sivilizatsiyasining bitta tarmog'i ham deyishadi. Ammo Xitoydan farqli ravishda, yapon jamiyatida shaxs va uning o'z hayot yo'lini erkin tanlash huquqi rad etilmaydi. Yaponiya aholi tarkibida Yevropa dvoryanlariga monand oliyhimmat ritsarlar (samuraylar) va knyazlar mavjud bo'lgan Sharqdagi yagona mamlakat edi. Rivojlanishning yuqori darajasi bu sivilizatsiyaning noyob xislatlaridan dalolat beradi.



Janubiy va sharqiy Osiyo mintaqalari

Faqat xitoycha tartiblarni joriy qilgan Tokugava rejimining oʻrnatilishi yapon jamiyatining rivojlanishini toʻxtatib, uni vaqtincha faol xalqaro aloqalardan uzib qoʻydi.

Hind sivilizatsiyasi Hindiston va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari tarqaldi. Bu sivilizatsiyaning oʻziga xos tomoni shundaki, hind jamiyatida kishilarning ijtimoiy holati uning tugʻilish omili, yaʼni ota-onasining jamiyatdagi oʻrni bilan belgilanadi. Bu yerda odamlar kasta (tabaqa)larga boʻlingan boʻlib, insonning jamiyatdagi oʻrni uning qaysi kastaga mansubligi bilan bogʻliq.

Islom sivilizatsiyasining oʻziga xos jihatlari shundaki, uning asosini tashkil qiluvchi islom dini musulmonlarning faqat dunyoqarashinigina emas, balki hayot tarzini ham belgilab beradi. Islom dini barcha musulmonlarning tengligiga asoslangani uchun koʻplab xalqlar oʻrtasida keng tarqaldi.



XVI–XVII asrlardan boshlab, Sharq mamlakatlarida transport vositalari va kommunikatsiya tizimining rivojlanish surʼatlari Gʻarb mamlakatlariga nisbatan pasaydi.

Sharqda Oʻrta asrchilik tizimining inqirozi, avvalo, yerga davlat mulkchiligining buzilishida, markaziy hokimiyat va soliq tizimining susayganligida namoyon boʻldi. Sharq mamlakatlarida koʻp asrlar davomida rivojlanib kelgan feodal tizim bir qator muhim jihatlarga ega edi. Bunday jihatlarga jamiyatda davlat rolining yuqoriligini, urugʻ-qabilachilik va quldorlik munosabatlari qoldiqlarining saqlanib qolishi, jamiyat iqtisodiy hayotida shaharlar rolining pastligi kabilarni kiritish mumkin.

XVII–XVIII asrlarda Yevropa va Osiyo xalqlarining oʻzaro munosabatlarida chuqur oʻzgarishlar yuz berdi. Ilgari ularda harbiy texnika, hunarmandchilik va savdoning rivojlanganlik darajasi bir-biriga yaqin edi. Biroq keyingi davr yevropaliklar uchun juda qulay keldi. Osiyo xalqlari esa turli imperiyalar zulmidan ozod boʻlganida, har safar anʼanalarni tiklash, bosqingacha boʻlgan ijtimoiy va siyosiy hayot tartiblarini qaytadan oʻrnatishga harakat qildilar. Bu tartiblar mahalliy zodagonlarga ham, keng xalq ommasiga ham bosqinchilar oʻrnatgan tartiblardan yaxshiroq, adolatliroq tuyulardi. Eski hayotga qaytish mantigʻiga Xitoyda ham, Hindistonda ham, koʻpchilik islom mamlakatlarida ham qatʼiy amal qilinardi.



- ◆ Xitoy-konfutsiylik sivilizatsiyasi – bu ...
- ◆ Yaponiya sivilizatsiyasi – bu ...
- ◆ Hind sivilizatsiyasi – bu ...
- ◆ Islom sivilizatsiyasi – bu ...

Yangi davrda ham shakllangan, hamma ko‘nikib qolgan, an‘a-naviy tartiblarni ideallashtirish Sharq sivilizatsiyasining muhim jihati bo‘lib qoldi. Aynan shu jihat bir tomondan, ko‘plab tashqi bosqinlar sharoitida sivilizatsiyaning asoslarini saqlab qolish imkonini bergan bo‘lsa, boshqa tomondan, uning rivojlanish sur‘atlarini sekinlashtirdi, fan va texnika sohasidagi yangiliklarni tatbiq etishga, ijtimoiy hayot va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi usullarini joriy qilishga to‘sqinlik qildi.



Ekstensiv – rivojlanishda sifat o‘zgarishlariga emas, faqat son jihatdan ko‘payishga va tezkor natijalarga yo‘naltirilgan o‘rish.



1. Xitoy-konfutsiylik sivilizatsiyasining o‘ziga xos tomonlari nimalardan iborat edi?
2. Yaponiya sivilizatsiyasining o‘ziga xos tomonlari nimalardan iborat edi?
3. Hind sivilizatsiyasining boshqalardan farqli tomonlari nimalardan iborat edi?
4. Islom sivilizatsiyasining boshqalardan farqli tomonlari nimalardan iborat edi?



Ijodiy ish topshirig‘i

T-texnologiyasi asosida xitoy-konfutsiylik, yaponiya, hind, islom sivilizatsiyalarining umumiy va farqli jihatlarini daftaringizga yozing.



Xaritadan foydalanib, xitoy-konfutsiylik, yaponiya, hind, islom sivilizatsiyalarining joylashuv o‘rnini toping.

14-mavzu: XVI–XVIII ASRLARDA XITOI

Siyosiy hayot. XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Xitoyda min sulolasi siyosatidan norozilik kuchaydi. Mamlakatda islohotlar tarafdori bo‘lgan kuchlar shakllandi. Davlat boshqaruvini isloh qilish, mamlakatni boshqarishda bevosita imperatorning rolini oshirish, shuningdek, iqtisodiy o‘zgarishlar samaradorligini va ishlab chiqarayot-

gan mahsulotlarining sifatini oshirish uchun davlat manufakturalari va ustaxonalarini xususiylashtirish, dehqonlarning yerlarini tortib olishni to'xtatish, soliqlar tortish tizimini tartibga solish kabilar muhim o'rin tutardi.



Xitoyda yer egaligi munosabatlari qachon shakllana boshladi?

XVII asr boshlarida islohotchilar Pekinda hokimiyatni egallashga erishdi va amalda o'z dasturidagi talablarni hayotga tatbiq etishga urindilar. Ammo saroy asilzodalarning qarshiligi tufayli islohotchilar hokimiyatdan chetlatilib, ko'pchiligi qatag'on qilindi. Davlat xazinasini o'marish, dehqonlar yerlarini tortib olish, soliqlar va shaxsiy majburiyatlarni oshirish davom etaverdi. Xitoyning xalqaro ahvoli ham tobora yomonlashib bordi.

Biroq minlar hokimiyati uchun hukmron tuzumga qarshi tobora yirik miqyosdagi urushga aylanib borayotgan dehqonlar qo'zg'olonlari, ayniqsa, xavfli edi.

Chin (sin) sulolasi hukmronligi. XVI asr oxirida Amur daryosidan janubda manjur qabilalarining ittifoqi paydo bo'ldi. Manjurlar o'z davlatini tuzib, qo'shni Mo'g'ulistonni bo'ysundirdi. 1636-yili manjurlar sardori Abaxay o'zini xon, yangi davlatni esa Chin (ya'ni «sof», «toza») deb atadi.

Chinlar Xitoyni egallash uchun uzoq kurash olib bordi. Shu davrda Xitoyda xalq qo'zg'olonlarining avj olishi va bir guruh qo'zg'olonchilarning Pekinni egallashi ham chinlarga yordam berdi. 1644-yili Pekinga kirib kelgan manjurlar hukmdori Shunchji Xitoy imperatori deb e'lon qilindi. Chinlar Xitoydagi dehqonlar qo'zg'olonini bostirdi. Mahalliy vatanparvarlarning Nankin shahrida chinlarga qarshi yagona front tuzish uchun urinishi ham muvaffaqiyat qozonmadi. Keyingi bir necha yil davomida chinlarga qarshi bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar ham qo'shinlar tomonidan shafqatsiz bostirildi.

Chinlarning butun Xitoy hududini egallashi oson kechmadi. Har bir shahar qattiq janglar bilan olindi. Uzoq davom etgan urushlardan so'ng Tayvan ham egallab olindi va Xitoy hududi to'liq bo'ysundirildi. Manjurlarning chin sulolasi Xitoyda 1911-yilgacha hukmronlik qildi. Chinlar XVII–XVIII asrlarda o'zlarining bosqinchilik siyosatini davom ettirdi. Koreya, G'arbiy va Shimoliy Mo'g'uliston, Vyetnam, Qashqar bo'ysundirildi, Birma ham chinlarga vassallikni tan oldi.

Iqtisodiy hayot. XVI asr boshlariga kelib, Xitoyda agrar soha rivojlanishning ancha yuqori darajasiga erishgan bo'lib, u mamlakat iqtisodida muhim o'rin tutardi. Ish qurollari oddiy bo'lsa-da, dehqonlar aholining asosiy oziq-ovqati bo'lgan sholidan yuqori hosil olardi. Ular yangi texnologiyalar, masalan, sholi ekishning uyali usulini, sifatli urug' tayyorlash kabilarni joriy qilgandi. Xitoy dehqonlari sholidan tashqari, paxta yetishtirishda ham katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar.

Xitoyda yerga egalik qilishning ikkita asosiy turi – davlat va xususiy yer egaligi mavjud edi. Ammo xususiy yerlar XVI asr davomida kamayib bordi. Dehqonlarning yerlari asta-sekin katta yer egalari, sudxo'rlar va amaldorlarning qo'llariga o'tdi. Yerlarning katta qismi bevosita imperatorning mulkiga aylandi.

Dehqonlar yerlarni ijaraga olib, ekin ekardi. Ijara haqi hosilning 50 foizini tashkil etardi va bu dehqonlarni holdan toydirib, ularning noroziligiga sabab bo'lardi. Bu davrda soliqlar ham doimiy oshib bordi. Ular natural holda sholi bilan olinar va faqat XVI asrdan soliqlar kumush tanga bilan to'lana boshlandi. Bu qiyinchiliklar bir qator dehqonlar qo'zg'olonlariga olib kelib, ular butun imperiya hududini qamrab oldi.

Shaharlarda aholi soni qishloqqa nisbatan ancha kam edi. Shaharliklar, asosan, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanardi. Gazlama ishlab chiqarishda o'z davri uchun ancha mukammal bo'lgan dastgohlar, shu jumladan, suv bilan aylantiriluvchi qurilmalar ham qo'llanilardi.

Binolar qurilishida ko'tarish moslama (kran)lariga o'xshash qurilmalardan foydalanilardi. O'sha paytlardan saqlanib qolgan binolar bugungi kunda ham o'zining mukammalligi va mahobati bilan kishini hayratga soladi. Yirik va mustahkam kemalar qura oladigan xitoylik kemasozlar ham texnik yutuqlarga erishgan edi.

Xitoy texnik taraqqiyotda G'arbdan tobora ortda qolib ketayotgan bo'lsa-da, to XVIII asrning oxirigacha u iqtisodiy jihatdan dunyoning eng qudratli davlatlaridan biri bo'lib qoldi.

Yevropaliklarning Xitoyga kirib kelishi. Xitoy afsonaviy boy mamlakat sifatida yevropaliklarda doimiy qiziqish uyg'otib kelgan. Yevropaliklar Xitoyning texnik yutuqlarini o'zlashtirib olishga intilgan. Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng kuchaygan bu jarayon XVII asrda ham davom etdi. Ispaniya Filippinni egallab olganidan so'ng, atrofdagi orollarda savdo bilan shug'ullanuvchi minglab Xitoy

fuqarolarini yo‘q qilib yubordi. Xuddi shunday yovuzlik keyin ham takrorlandi.

XVII asrda Xitoy qirg‘oqlarida golland kemalari paydo bo‘ldi. Ular Tayvan orollarining bir qismini egallab oldi. Shuningdek, Angliya ham bu hududlarga qiziqish bildira boshladi. Inglizlar Guanchjou hududiga o‘rnashib, bu yerda savdo olib borish uchun Xitoy hukumatidan ruxsat oldi. Yevropaliklar Xitoydan ipak va chinni olib ketib, bu yerga tamaki va o‘qotar qurollar olib kelardi.

XVIII asrning 70-yillarida Rossiya Xitoy bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatishga urindi. Ammo ikkala davlat o‘rtasida Uzoq Sharqda va Markaziy Osiyoda ta‘sir uchun kurash bunga yo‘l qo‘ymadi. Keyin ikki tomon o‘rtasida qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi.



Yevropaliklar Xitoydan ipak va chinni olib ketib, tamaki va o‘qotar qurollarni bu yerga olib kelardi.

XVIII asrning 70-yillarida Rossiya Xitoy bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatishga urindi.

XVI – XVIII asrlarda Xitoy madaniyati. Minlar davrida Xitoy madaniyati gullab-yashnadi. Oldingi davrlarning eng yaxshi yutuqlarini o‘ziga singdirib olgan jamiyat taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarila oldi.

Bu davrda qadimiy din va dunyoqarashga asoslangan madaniyatni Yangi davr talablariga moslashtirish boshlandi. Minlar davrining eng mashhur olimlaridan biri Van Yanmin xitoyliklar dunyoqarashining asosi bo‘lgan konfutsiylikdan voz kechmagan holda, bu ta‘limotni o‘zgargan tarixiy vaziyatga mos ravishda, yangicha sharhlay boshladi.



◆ 1636-yili – ...

◆ XVI asr – ...

◆ XVIII asrning oxirigacha – ...

◆ 1644-yili – ...

Chinlar davriga kelib, adabiyotda ham katta yutuqlarga erishildi. Qadimgi xalq afsonalari asosida «G‘arbiga sayohat» romani yaratilib, unda xitoylik ruhoniyning mo‘jiza izlab Hindistonga qilgan safari tasvirlanadi. Bu roman kitobxonlarning ko‘plab avlodlarida katta taassurot qoldirdi.

XVI–XVII asrlarda teatr san’atining eng mashhur turi, umummilliy teatrga aylangan, kunsiyuy bo’ldi. Unda aktyorlar niqob kiyib rol o’ynashadi. Kunsiyuy asosida shakllangan Pekin operasi butun dunyoga mashhur bo’ldi.

Tasviriy san’atda o’tmish an’analari davom ettirildi. Minlar davrida Tasviriy san’at akademiyasi qayta tiklandi. Badiiy asarlarga tasviriy bezak berish san’ati rivojlandi, peyzaj san’ati ham gullab-yashnadi. Xitoylik ustalar, faqat o’z yurtlaridagina emas, G’arbiy Yevropa mamlakatlarida ham juda qadrlanadigan chinni, gazlama, loklangan miniaturalar yaratishda katta yutuqlarga erishdilar.

Shunday qilib, chin sulolasi davrida Xitoy o’z qudratining cho’qqisiga erishdi. XVIII asr oxiriga kelib, G’arb davlatlari Xitoyga suqilib kirish va uni mustamlakaga aylantirish rejasini amalga oshira boshlagan bo’lsalar-da, Xitoy Osiyoning eng katta va qudratli davlati bo’lib qolayotgan edi. Ammo iqtisodiy va siyosiy qoloqlik oqibatida Xitoy G’arb davlatlarining yarimmustamlakasiga aylandi.



Peyzaj san’ati – tasviriy san’atda tabiatni aks ettirish janri.



1. Manjurlar sardori Abaxay faoliyati haqida nimalar bilasiz?
2. Xitoyning XVII–XVIII asrlardagi bosqinchilik siyosati haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. XVIII asrning 70-yillarida Rossiya – Xitoy munosabatlarining o’ziga xos tomonlari nimalardan iborat edi?
4. XVI–XVIII asrlarda Xitoy madaniyati rivojlanishining o’ziga xos tomonlari nimalardan iborat edi?



Ijodiy ish topshirig’i

Konseptual jadval asosida XVI–XVIII asrlarda Xitoy rivojlanishining o’ziga xos jihatlarini tahlil qiling.



Xaritadan foydalanib, XVI–XVIII asrlardagi Xitoy chegaralariga aniqliklar kiriting.

15-mavzu: XVI–XVIII ASRLARDA HINDISTON

Boburiylar imperiyasiga asos solinishi. XVI asrda Hindiston siyosiy tarqoqlik holatida bo’lib, o’zaro ichki nizo va urushlar mamlakatni holdan toydirgan edi. Hindistondagi ichki siyosiy ahvolni sinchkovlik

bilan kuzatib turgan Kobul hukmdori Zahiriddin Muhammad Bobur vaziyatdan foydalanishga qaror qildi va Hindistonni egallash uchun harbiy yurish boshladi. Bu davrda Shimoliy Hindistondagi Dehli sultonligida afg'onlarning lo'diylar sulolasidan bo'lgan Ibrohim Lo'di hukmronlik qilardi.

U 1526-yil 21-aprelda Bobur qo'shiniga qarshi bo'lgan Panipat jangida mag'lubiyatga uchrab, halok bo'ldi.



O'rta asrlarda Hindistonda qaysi sulolalar hukm surgan?

Dehli sultonligida Bobur taxtga keldi va boburiylar sulolasiga asos soldi. Bobur 1530-yili vafot etgunga qadar Hindistonda hukmronlik qildi. Boburning vasiyatiga ko'ra, taxtga uning katta o'g'li Humoyun o'tirdi. Ammo Humoyunga qarshi birlashgan mahalliy zodagonlar 1540-yili uni taxtdan ag'darishdi. Jangda mag'lub bo'lgan Humoyun Eron shohi Taxmasp I saroyidan panoj topdi. Hindistonda taxtni afg'onlarning sur qabilasi sardori Sherxon egallab oldi. Humoyun uzoq kurashlardan so'ng 1555-yili Dehlini qaytarib oldi, ammo ko'p o'tmay vafot etdi. Taxtga Humoyunning o'g'li Akbar keldi. U Bobur vorislari orasida eng mashhuri, buyuk islohotchi sifatida nom qoldirgan. Bu shoh Hindiston tarixida «Buyuk Akbar» nomi bilan ataladi. Akbar 1556–1605-yillarda Hindistonni boshqardi. U ham harbiy, ham diplomatik usullar yordamida barcha musulmon beklari va hind rojalarini o'ziga bo'ysundirdi.

Akbarshoh islohotlari. Akbarshohning hukmronlik yillari imperiyaning oltin davri bo'ldi. Akbarshoh markazlashgan davlat va kuchli hokimiyatni barpo etish maqsadida imperiyani viloyatlarga ajratib, ularga o'z noiblarini tayinladi. Soliq tizimi ham isloh qilinib, imperiya hududida yagona savdo solig'i joriy etildi, xolisa va jogirdorlar yerlaridan teng miqdorda soliq undiriladigan bo'ldi. Butun imperiya uchun bir xil uzunlik va og'irlik o'lchov birliklari hamda Mirzo Ulug'bek tizimiga asoslangan yagona taqvim joriy qilindi. Mamlakat bo'ylab saroylar, me'moriy inshootlar va bog'lar barpo etildi. Ilm-fan, san'at va dehqonchilik rivojlandi. Yo'llarni ta'mirlash, karvonsaroylar qurish hamda dengiz yo'llari orqali Yevropa mamlakatlari bilan savdo-sotiq ishlari olib borishga katta e'tibor qaratildi.

Islohotlar ichida Akbarga eng katta shuhrat keltirgani diniy islohot bo'ldi. Odamlar islom, hinduizm va boshqa bir qator dinlarga sig'ina-

digan ko'p dinli Hindistonda Akbarshoh diniy murosasozlik siyosatini olib bordi.

U mamlakatni boshqarishga musulmonlar bilan birga hindlarni ham jalb etdi, musulmon bo'lmaganlardan olinadigan jon solig'i – **jizyani** bekor qildi, hindlarning ziyoratgohlaridan olinadigan soliqni ham man etdi. Akbarshoh o'z mamlakatida diniy bag'rikenglik siyosatini yuritib, hindlar orasida islom dinining tarqalishini rag'batlantirdi va ayni paytda hindlarning har qanday kamsitilishini bekor qildi.

Akbarshoh falsafa, din, adabiyot va tarix ilmini yaxshi egallagan ma'rifatli hukmdor edi. U hindlar bilan musulmonlarning tinch-totuv yashashlariga erishdi. Akbarshoh yuritgan adolatli siyosat Boburiylar davlatining ulkan imperiyaga aylanishida, uning mahalliy aholi va amaldorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishida katta rol o'ynadi. Bu esa, o'z navbatida, imperiya qudrati va shon-shuhratining yanada ortishiga xizmat qildi.

Akbarshoh Hindistonda yuritgan adolatli siyosati tufayli «Milliy podshoh», «Xalq hukmdori» nomlariga ham sazovor bo'ldi. U 1605-yilda vafot etdi.



Buyuk Akbar



◆ 1526-yilning 21-aprelida ...

◆ 1530-yil ...

◆ 1556–1605-yillarda ...

◆ Akbarshoh – ...

Akbarshohning islohotlari musulmon zodagonlar va diniy mutassiblarining noroziligiga sabab bo'ldi. Norozilar orasida Akbarshohning o'g'li, taxt vorisi Jahongir Mirzo ham bor edi. U taxtga kelishi bilan, otasining ko'plab islohotlarini bekor qildi.

Imperiya inqirozining boshlanishi. Akbarshoh vorislarining siyosati imperiyaning iqtisodiy ahvolini og'irlashtirdi. Davlat xazinasiga tushumlar kamayib ketdi. Bunday holatda imperiyadan ajralib chiqish, ayirmachilik kayfiyati kuchaydi. Natijada, Boburiylar imperiyasi inqirozga yuz tuta boshladi. Bunday holat, ayniqsa, Shoh Jahonning o'g'li Avrangzeb Olamgir hukmronlik qilgan yillarda (1658–1707) avjiga chiqdi. O'zaro qonli to'qnashuvlar oqibatida taxtga kelgan Av-

rangzeb parchalanayotgan imperiyani saqlab qolishning yo‘li sifatida islom dini qoidalarini qat’iy joriy qilishga kirishdi. Musulmon bo‘lmaganlardan olinadigan jizya solig‘ini qayta tikladi, hindlar uchun qolgan barcha soliqlarni ikki hissaga oshirdi, ularga o‘z bayramlarini nishonlashni taqiqladi, hind ibodatxonalarini buzib tashlashni buyurdi. Oqibatda, mamlakat bo‘ylab xalq qo‘zg‘olonlari boshlanib ketdi.

XVIII asr boshlariga kelib, imperiya parchalana boshladi. Armiya o‘zining avvalgi qudratini yo‘qotdi, mahalliy hukmdorlarning mustaqilligi oshdi. Shunday holatda Hindistonga avval eronliklar, so‘ngra afg‘onlar bostirib kirib, mamlakatni taladi. Boburiy hukmdorlarning hokimiyati tobora zaiflashib bordi. Mamlakat feodal tarqoqlikka qaytib, yevropaliklarning kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratildi.



◆ 1658–1707-yillarda ...

Yevropaliklarning Hindistonga kirib kelishi. Yevropa davlatlarining maqsadi Hindistonning ulkan boyliklariga, unumdor yerlariga ega bo‘lish edi. Boburiylar imperiyasining inqirozi tufayli Yevropa hukmdorlari o‘z maqsadlarini amalga oshirishga kirishdi. Chunonchi, 1757-yili Buyuk Britaniya Bengaliyani bosib oldi. Bu boy hudud Buyuk Britaniyaning keyingi bosqinchilik rejalarini amalga oshirishda tayanch vazifasini o‘tadi. Shu tariqa Buyuk Britaniyaning Hindistonni asta-sekin o‘z mustamlakasiga aylantirish davri boshlandi. Bu jarayonda Buyuk Britaniyaning Ost-Indiya kompaniyasi juda katta rol o‘ynadi. XVIII asr oxirlariga kelib, o‘zining barcha raqiblarini yenggan Ost-Indiya kompaniyasi tarqoq va zaif Hindistonni bo‘ysundirishda yetakchilik qildi.

Madaniyat va san’at. Boburiylar davrida Hindiston fani, madaniyati va san’ati rivojlanishning yangi cho‘qqilarini zabt etdi. Hindistonda matematika, tibbiyot kabi fanlar o‘sha davr Yevropa fanidan ancha oldinlab ketdi. Adabiyotda ham yuksalish davri boshlandi. Akbarshoh saroyida hind adabiyotining «Mahabharata», «Ramayana» kabi mashhur asarlari tarjima qilindi. Sharq xalqlarining buyuk shoiri, ulug‘ mutafakkir olimi Mirzo Abdulqodir Bedil ham shu davrda Hindistonda ijod qildi.

Bu davr ijodkorlari orasida ikki buyuk hind shoiri – Tulsidas va Surdas ajralib turadi. Tulsidas «Ramayana» sujetlari asosida «Rama-



XVIII asrda Hindiston

ning jasoratlari» nomli juda katta poema yaratdi. Rivoyat qilishlaricha, tug'ma ko'r bo'lgan Surdas Krishnaning hayoti haqidagi yorqin poemalar muallifi edi.

Boburiylar davri arxitekturasi mahobati, bezaklarning boyligi, musulmon me'morchiligi va hind saroy arxitekturasi an'alarining



Tojmahal

uyg'unligi bilan ajralib turadi. Bu davrda bunyod etilgan me'moriy obidalarning eng mashhuri, jahon me'morchilik san'atining noyob durdonalaridan biri Tojmahal mavzoleyidir. Uni Shoh Jahon o'zining sevimli xotini Mumtoz Mahalga bag'ishlab qurdirgan.

Shunday qilib, boburiylar davrida o'z taraqqiyotining yangi bosqichini boshdan kechirgan Hindiston XVIII asrdan e'tiboran, inglizlar mustamlakasiga aylana boshladi.

Mamlakatdagi iqtisodiy tushkunlik, siyosiy parokandalik va o'zaro urushlar inglizlarning Hindistonni bosib olishi uchun imkoniyat yaratdi.



1. Hindistonda Boburiylar imperiyasi qay tariqa o'rnatildi?
2. Akbarshoh va Avrangzebning imperiyada yuritgan siyosatini taqqoslang, ularning o'xshash va farqli tomonlarini toping.
3. Boburiylar imperiyasi zaiflashuvi boshlanishiga sabab bo'lgan omillarni qayd eting.
4. Qanday omillar yevropaliklarning Hindistonga kirib kelishi uchun imkon yaratdi?



Ijodiy ish topshirig‘i

«Boburnoma» va «Humoyunnoma» asarlaridan foydalanib, «Boburiylar sulolasining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi shundan iboratki, ...» mavzusida esse yozing.



Internet vositasida *Hindistonda boburiylar davriga* virtual sayohat uyushtiring va mavzuda o‘rganilgan materiallar asosida tarixiy voqelikni tahlil qiling.

16-mavzu: XVI–XVIII ASRLARDA YAPONIYA VA KOREYA

Yaponiya Uzoq Sharqda, Tinch okeani orollarida joylashgan bo‘lib, uni «Kunchiqar mamlakat» deb atashadi.



Yaponiyada yer egaligi munosabatlari qachon uzil-kesil shakllangan?

O‘rta asrlar davomida Xitoy Yaponiya taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Bu ta‘sir, ayniqsa, min sulolasi hukmronligi davrida Xitoy madaniyati, rassomchiligi, adabiyoti, me‘morchilik san‘ati, falsafasi va harbiy sohasida sezilarli bo‘ldi.

Siyosiy tizim. XVI–XVIII asrlarda Yaponiya aholisi toifalarga bo‘lingan bo‘lib, viloyatlarni feodallar – daymyolar nazorat qilar, ularning qo‘lida dvoryan – samuraylar xizmat qilardi. Mamlakat tepasida rasman imperator tursa-da, siyosiy hokimiyat amalda harbiy hukmdor – syogun qo‘lida edi.

Bu davrdagi eng muhim siyosiy voqea butun Yaponiyaning markazlashgan yagona davlatga birlashishi bo‘ldi.

Mamlakatni birlashtirishda uch mashhur tarixiy shaxs: Oda Nobunaga, Toyotomi Xideyosi va Tokugava Ieyasuning xizmatlari beqiyos bo‘ldi. Ular birgalikda jangovar armiya tuzib, mamlakatni fuqarolar urushi girdobidan olib chiqishga muvaffaq bo‘lishdi. Ulardan Tokugava Ieyasu 1603-yili syogun unvonini qabul qildi va Edo (hozirgi Tokio) shahrini poytaxt qilib, uchinchi syogunlikka asos soldi. Bu davlat Tokugava syogunligi deb ataldi. Tokugava



Tokugava Ieyasu

gavalar Yaponiyani birlashtirish ishini yakunlab, uni 1867-yilgacha boshqardi. Mamlakatda tokugava sulolasining mutlaq hokimiyati oʻrnatildi. Biroq bu sulola nomiga boʻlsa-da, imperator hokimiyati daxlsizligini saqlab qoldi. Chunki yapon xalqi uchun imperator Xudoning avlodi hisoblanardi.

Oʻzini oʻzi ajratib qoʻyish. Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin Yaponiyada yevropaliklar paydo boʻlib, xristian dini ham tarqala boshladi. Yevropalik missionerlar uni yaponlar orasida zoʻr berib targʻib qilishdi. Ammo koʻpchilik missionerlar din niqobi ostida yapon xalqini arosatga solishni, Yaponiyaning mustaqilligiga chek qoʻyib, uni bosib olishni maqsad qilib qoʻygan edilar. Yaponiyada XVI asr oxirida qabul qilingan qonunga binoan, barcha xristian missionerlari mamlakatdan quvib yuborildi.

1614-yili syogun xristian dinini taqiqlovchi qonun chiqardi. Qonun xristian dinini mamlakat dushmani deb eʼlon qildi. Budda dinini hurmat qilmaydigan barcha shaxslarning Yaponiyadan chiqib ketishi talab etildi. Shu tariqa Yevropa mustamlakachilari Yaponiyadan quvib yuborildi. Bu hol Yaponiyaning Yevropa bilan munosabatlariga taʼsir etmay qolmadi.

Natijada, Yaponiya tashqi dunyodan oʻzini oʻzi ajratib qoʻydi. Syogun oʻzini oʻzi ajratib qoʻyish siyosati orqali Yaponiyaning mustamlakaga aylanib qolish xavfining oldini olish maqsadini ham koʻzlagan edi.



◆ 1603-yili ...

◆ 1867-yili ...

◆ XVI asr oʻrtalaridan ...

◆ 1614-yilda ...



1603-yili Yaponiyada uchinchi syogun sulolasi – Tokugava xonadoni hukmronligi boshlandi.

Yosimune islohotlari. Yosimune tokugava sulolasining eng mashhur davlat arbobi sifatida tanildi. U tokugava sulolasidan chiqqan sakkizinchi syogun boʻlib, 1716–1745-yillari hukmronlik qildi. Yosimune qoʻriq yerlarni oʻzlashtirish hisobiga dehqonchilik qiluvchilarni ragʻbatlantirish siyosatini yuritdi. Sugʻorish inshootlari tizimini takomillashtirdi. Yerni sotish, sotib olish yoki garovga qoʻyishni taqiqlovchi qonun chiqardi. Mamlakat va jamiyat hayotini tartibga

solishda u joriy etgan «100 moddali Farmon» deb ataluvchi qonunlar to'plami katta ahamiyatga ega bo'ldi.

XVI–XVIII asrlarda Koreya

Yaponiya tajovuzi. XVI asrda Koreyada markazlashgan davlatning asta-sekin zaiflashib borishi qo'shnilarning tajovuzlariga sabab bo'ldi. Ayniqsa, janubda Yaponiya tomonidan xavf kuchaydi.



Qanday omillar qadimgi Chosonning uch qirollikka ajralib ketishiga olib keldi?

1592-yili Yaponiya qo'shini Koreya hududiga bostirib kirdi va koreys qo'shinlari qarshiligini yengib, Seul, Pxenyanni egalladi. Mamlakatning katta qismi yapon qo'shinlari tomonidan bosib olindi. Ular tinch aholiga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'ldilar.

Mamlakatda yapon bosqinchilariga qarshi xalq urushi boshlandi. Bosib olingan hududlarda «Haq ish uchun» xalq partizan guruhlari tuzildi. Xalq qo'shinlarining harakatlariga Li Sun Sin qo'mondonligi ostidagi koreys flotining g'alabalari dalda bo'ldi. Li Sun Sin floti yapon flotini tor-mor qildi.

Ellik minglik Xitoy qo'shinining yordamga kelganligi koreyslarning yaponlarga qarshi kurashini yengillashtirdi. 1593-yili Xitoy va Koreyaning birlashgan qo'shinlari Pxenyani va Seolni ozod qildi.



1592-yilda Yaponiya qo'shini Koreya hududiga bostirib kirdi.
1593-yilda Xitoy va Koreyaning birlashgan qo'shinlari Pxenyani va Seolni ozod qildilar.

Yaponlar bosqini mamlakatda ulkan ma'naviy va moddiy yo'qotishlarga olib keldi. Haydaladigan yer maydonlari keskin qisqarib ketdi. Amaldorlar orasida poraxo'rlik va jinoyatchilik, xalq orasida esa ocharchilik va vabo avjiga chiqdi. Mamlakat endi o'zini tiklayotgan bir paytda, unga manjurlarning hujumi boshlandi.

Koreyaga manjurlarning bostirib kirishi. Xitoyda o'z hukmronligini o'rnatishga intilayotgan manjurlar 1627-yili Koreyaga bostirib kirdilar. Ular koreys qo'shinining qarshiligini yengib, ko'plab shaharlarni egallab oldilar va taladilar. Koreys hukumati bosqinchilar bilan muzokaralar olib bordi. Ikki tomon o'rtasida imzolangan tinchlik

shartnomasiga ko'ra, Koreya Xitoyning yordamidan va u bilan ittifoqchilik munosabatlaridan voz kechishi kerak edi.

Manjur qo'shinlari Koreyaga yangi hujum boshladi. Manjurlar Seulni egallashga muvaffaq bo'ldilar. Noiloj qolgan Koreya taslim bo'ldi. 1637-yilgi yangi shartnomaga ko'ra, Koreya qiroli o'zini manjurlarning vassali deb tan oldi. Koreys hukumati minlar sulolasi bilan har qanday munosabatlarni to'xtatish va manjurlarga Xitoyga qarshi urushda yordam berish, har yili o'lpon to'lab turish majburiyatini oldi. Manjurlarga to'lanadigan ulkan o'lpon xonavayron aholiga og'ir yuk bo'ldi va Koreyaning ahvolini yanada og'irlashtirdi.

Ijtimoiy taraqqiyot. Og'ir iqtisodiy va siyosiy inqiroz Koreya hukmdorlarini mamlakatda islohotlar o'tkazishga majbur qildi. Aholining ilg'or qatlami ham hukumatni shunga undayotgan edi. Feodal munosabatlarning to'siq bo'lishiga qaramasdan, mamlakatda mahalliy bozorlar shakllandi, yarmarka va yirik savdo markazlari paydo bo'ldi, Xitoy va Yaponiya bilan savdo aloqalari kengaydi.

Qirol Yongjo (1725–1776) davrida mamlakatni rivojlantirish maqsadida islohot o'tkazildi. To'g'onlar, suv omborlari qurildi, ocharchilik holati uchun maxsus don omborlari tashkil qilindi. Shuningdek, guruchdan spirtli ichimliklar tayyorlash man etildi va ba'zi bir davlat soliqlari bekor qilindi yoki kamaytirildi. So'roq qilish paytida qiy-noqning eng og'ir turlari (oyoqlarni sindirish) taqiqlandi. Qirol Yongjo davrida dehqonlarning katta yer egalari shaxsiy qaramligini bekor qilish va qul ayolning nevarasi ozod inson bo'lishi haqida deklaratsiya e'lon qilindi. Zaiflashayotgan feodal tuzumni mustahkamlashga bo'lgan bu urinishlar 1785-yili tuzilgan «Qonunlarning buyuk to'plami» deb nomlangan hujjatda o'z ifodasini topdi. Biroq katta yer egalari va amaldorlar hukmronligini mustahkamlash maqsadida qilingan bu kabi qisman yon berishlar, mamlakatdagi butun feodal tuzumining chuqur inqirozini to'xtata olmadi. Mamlakat kuchli davlatlarning mustamlakachilik hududiga aylanib bordi.



Kabuki teatri aktyorlari

Madaniyat va san'at. Yaponlar hayotida san'at alohida rol o'ynaydi. Olamning uy-

g'unligini his etishga intilish, atrofdagi go'zallikni ko'ra olish qobiliyati yaponlar xarakterining o'ziga xos jihatlaridir.

XVI–XVIII asrlarda o'rtada joylashgan qal'a atrofida yapon bog'ini yaratish san'ati rivojlandi. Ko'p qavatli, tomining uchi qayrilgan binolar parvoz qilayotgan katta qushni eslatardi.

XVII asrda an'anaviy yapon teatri – **kabuki** (qo'shiq, raqs, mahorat) paydo bo'ldi. Bu teatr aktyorlari faqat erkaklar bo'lib, ularning yuzlari murakkab usulda grim qilinardi.

Yangi davrda yapon she'riyati ham yuksaklikka erishdi. Poeziyaning eng keng tarqalgan janri qofiyalashmagan besh qatorli lirik she'rlar bo'lib, ular «Tomchi suvda ummonni ko'rish kerak» degan badiiy tamoyil asosida yozilgan. Bu xokku janri deb nomlanib, uning eng mashhur namoyandasi Masuo Basyo edi.

Yangi davrda Koreyada ham bizdagi baxshilik san'atiga o'xshash qo'shiqchilik keng tarqaldi. Bu bilan xalq og'zaki ijodi adabiyot maqomini oldi va yozma adabiyot sifatida ham davom ettirildi.

Tasviriy san'atda ham xalq ijodiyoti, koreys xalqi hayotidan lavhalarni aks ettirish an'analari kuchaydi. Xitoyning peyzaj usuli kirib keldi. Bu «tog' va suvni tasvirlash» janri bo'lib, bu janrda ijod qilgan rassomlardan Chon Son, Li Myonuk, Kim Xondo chizgan rasmlar juda mashhur edi.

Shunday qilib, XVI–XVIII asrlar davomida Yaponiya birlashib, yagona markazlashgan davlatga aylandi, umumyapon milliy bozori shakllandi. Ichki islohotlar hamda oqilona tashqi siyosat tufayli, ko'pchilik Osiyo davlatlaridan farqli o'laroq, o'z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Koreyada esa amalga oshirilgan islohotlar mavjud tizimning inqirozini to'xtata olmadi. Mamlakat Xitoy, Yaponiya, Rossiya va Yevropa davlatlarining mustamlakachilik obyektiga aylanib bordi.



Syogun (*syo* – general, *gun* – qo'shin) – XVII–XIX asrlarda Yaponiyada hokimiyatni boshqargan zodagonlar guruhi.

Kabuki (og'moq, o'zini olib qochmoq) – Yaponiyada XVII asrning oxirida keng tarqalgan mumtoz teatr turi. Unda drama, raqs va musiqa elementlari mujassamlashgan, ayollar rollarini ham erkaklar ijro etgan.

Samuray (*saburau* – xizmat qilmoq) – feodal Yaponiyada harbiy-feodal qatlam.



1. Oda Nobunaganing Yaponiya tarixidagi xizmatiga baho bering.
2. Toyotomi Xideyosi va Tokugava Ieyasularning Yaponiya oldidagi xizmatlarini taqqoslang.

3. Qanday omillar Yangi davrda Koreyaning kuchsizlanishiga olib keldi?
4. Yaponiya va manjurlar bosqini Koreya iqtisodi uchun qanday oqibatlarni keltirib chiqardi?



Ijodiy ish topshirig'i

Matndan foydalanib, Yaponiya va Koreya davlatlarining Yangi davrda erishgan yutuq va kamchiliklarini SWOT chizmasi asosida tahlil qiling va daftaringizga yozing.



Mavzuga aloqador «So'nggi samuray» badiiy filmi ko'ring va xulosa chiqaring.

17-mavzu: XVI–XVIII ASRLARDA USMONIYLAR IMPERIYASI

Imperiyaning yuksalishi. XVI asr boshlarida butun imperiya viloyatga, viloyatlar esa **sanjoq** (tuman)larga bo'lingan edi. Viloyatlarni **vali**, sanjoqlarni esa **sanjoqbey** boshqarardi. Imperiyaning asosiy tayanchi uning qo'shini edi.



Usmoniyar sulolasi asoschisi Usmon davrida amalga oshirilgan islohotlarni bilasizmi?

Imperiya bosib olgan hududlardagi dehqonchilik yerlari davlat mulki deb e'lon qilindi. Sulton bu yerlarni o'z **sipohiy** (otliq askar)lariga harbiy majburiyat evaziga taqsimlab berdi. Ularning miqdori har xil edi. Sipohiyar shu tariqa o'z xo'jaliklariga ega bo'ldilar. Ular o'z yerlarini dehqonlarga ijaraga berar edi. Ayni paytda harbiy harakatlarda qatnashish sipohiyar zimmasiga, zarurat tug'ilganda sulton farmonini ijro etish esa sanjoqbeylarga yuklatilgan. Shuningdek, ular o'z yeridan oladigan daromadi miqdoriga mos ravishda qurolli askarlar ham olib kelishi shart edi. Sipohiy xo'jaligining daromadini ijarachi dehqondan olinadigan soliq tashkil etardi. Bundan tashqari, imperiyaning muntazam piyoda qo'shini – **yanicharlar** (yangi qo'shin), shuningdek, kuchli harbiy dengiz floti ham bor edi. Bu omillar XVI asrda ham Usmoniyar imperiyasiga keng ko'lamda bosqinchilik urushlari olib borish imkonini berdi. Bu davrda Eron imperiyaning Osiyodagi eng yirik raqibiga aylangan edi.



XVII asrda Usmoniylar imperiyasi

Sulton Salim I 1514-yili Eron shohi Ismoil Safaviy qo'shinini tormor etdi. Bu g'alaba sultonning Eron shohi ittifoqchisi bo'lgan Misr sultonligiga qarshi yurish boshlashiga yo'l ochdi. Sulton Salim I dastlab Suriya va Falastinni bosib oldi. **1517-yili** esa Misr poytaxti Qohira shahri egallandi.

Imperiya nafaqat Osiyo va Yevropada, hatto Afrikada ham mustamlakalarga ega bo'ldi. Imperiya hududining kengayishi yirik savdo yo'llarining ham Turkiya nazorati ostiga o'tishiga olib keldi. Bu omillar imperiya markaziy hokimiyatining hamda harbiy qudratining yanada kuchayishini ta'minladi. Oqibatda, Turkiyaning savdo yo'nalishidagi xalqaro nufuzi Yevropa, Osiyo va Afrika mamlakatlari o'rtasida yanada ortdi.

Ichki ahvol. Imperiyaning qudrati faqat sultonlarning oqilona siyosati tufayligina oshmasdan, balki mehnatkashlarni ekspluatatsiya



Sulton Salim I

qilishni kuchaytirish, mustamlaka o'lkalardan tashib kelingan ulkan miqdordagi boyliklar hisobiga ham yuksaldi. Eksploatatsiyaning tobora kuchayishidan tinka-madori qurigan dehqonlar shaharlarga, tog'larga qochib keta boshladilar. Sulton buning oldini olish maqsadida yer egalariga qochib ketgan dehqonlarni majburan qaytarib olib kelish huquqini beruvchi maxsus farmon chiqardi.

Dehqonlarning xonavayron bo'lishi va ko'plab qochib ketishi XVI asr o'rtalaridan boshlab qishloq xo'jaligining inqiroziga olib keldi.

Shu tariqa Turkiya harbiy qudratining zaiflashish davri boshlandi. G'arbiy Yevropada markazlashgan davlatlar, kuchli markaziy hokimiyat qaror topgan bir sharoitda Turkiya tanazzulga uchradi.

1684-yili Yevropa davlatlari Turkiyaga qarshi «**Muqaddas liga**» tuzdilar.

XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Turkiya avvalgidek hujumkor qudratga ega bo'lmay qoldi.



◆ **Vali** – bu ...

◆ **Sanjoqbey** – bu ...

◆ **XVI asr o'rtalaridan boshlab** ...

◆ **1684-yili** ...

Yevropa davlatlariga qaramlikning boshlanishi. Bora-bora Turkiyada iqtisodiy tanglik davri boshlandi. Bunday sharoitda Turkiya Yevropa davlatlari madadiga tayanishni lozim ko'rdi. Yevropa davlatlari savdogarlariga bir qator yengillik va imtiyozlar berila boshlandi. Masalan, Fransiya savdogarlari uchun atigi uch foiz miqdorida bojxona to'lovi joriy etildi. Natijada, Turkiya bozorlari Yevropa tovarlariga to'lib ketdi. Bu esa mahalliy hunarmandchilikka qattiq zarba berdi. Tashqi siyosatda esa Turkiya, birinchi navbatda, Angliya va



Avliyo Chalabiy

Fransiya bilan yaqinlasha boshladi. Sultonlar nazdida ular Rossiyaga qarshi kurashda imperiyaga ittifoqchilar bo'lishi kerak edi. Angliya va Fransiya hukumatlari ham mavjud vaziyatdan o'z manfaatlari yo'lida foydalanib qolishga intildilar. Ularning madadidan umidvor bo'lgan Turkiya **XVIII asrda** Rossiya bilan bir necha bor urushlar olib bordi, biroq yengildi. Mag'lubiyat Turkiyada hukm surayotgan O'rta asr munosabatlarning inqiroziga sabab bo'ldi.

Fan, madaniyat va san'at. XVII asrdan Yevropaning ilg'or g'oyalari ta'siri ostida yirik shaharlar, asosan, poytaxt Istanbulda dunyoviy fanlarni rivojlantirishga harakat boshlanadi. Bu davrda buyuk turk olimi **Koshib Chalabiy**, matematika va astronomiya sohasida **Xizr Xalifa Tabariy**, **Mulla Mehmet Chalabiy**, **Mustafo Koshipzoda** kabi olimlar unumli faoliyat olib bordi.

Shu davrda turk adabiyotida ham o'ziga xos faollik kuzatildi, yirik asarlar yaratildi. Shulardan **Avliyo Chalabiyning «Sayohatnoma»** asari tarixiy-etnografik manba sifatida alohida ahamiyatga ega.

Me'morchilikda ham XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida tushunarsiz, milliylikdan ancha yiroq bo'lgan qorishiq uslublar yaratildi. Vaholanki, XV–XVII asrlarda turk me'morlari buyuk tarixiy obidalarni yaratishgan edi. Ayniqsa, XVI asrning buyuk me'mori Sinon o'zining betakror binolari bilan turk me'morchiligi rivojiga katta hissa qo'shdi.

XVII asr turk me'morchiligining ajoyib namunalari sifatida sultonning To'pqopi saroyidagi Bag'dod va Ravon ko'shklarini ham aytib o'tish lozim. Bu davrda naqqoshlik va miniatura san'ati ham yaxshi rivojlandi. Naqqoshlikda bezak vositasi sifatida, asosan, miniatura rasmlaridan va yozuvlardan foydalanilar edi.

Yevropa madaniyatining ta'siriga qaramasdan, Yangi davrda turk madaniyati, asosan, milliylik va o'ziga xoslikni saqlab qola oldi. Ammo imperiyada boshlangan siyosiy va iqtisodiy inqiroz madaniyat rivojiga ham ta'sir etmasdan qolmadi.

Xullas, O'rta asrlarning qudratli imperiyasi bo'lgan Usmoniylar davlati Yangi davrga kelib, keng miqyosli inqirozni boshidan kechirdi. Bir qator islohotlarni amalga oshirish uchun bo'lgan urinishlarga qaramasdan, mamlakat G'arb davlatlarining yarimmus-tamlakasiga aylanib bordi.



Liga – ittifoq, birlashma.

Imperiya – tili, dini, madaniy an'analari bir-biridan farq qiladigan turli xalqlarni kuch bilan birlashtirgan davlat.



1. Usmoniylar imperiyasi tarixida XVI asr qanday o'rin tutadi?
2. Turkiyaning Yevropa davlatlariga qaramligi qay tariqa sodir bo'ldi?
3. Turkiyadagi Fransiya savdogarlariga qanday imtiyozlar berildi va nima uchun shunday qilindi?
4. XVIII asrda Turkiya – Rossiya munosabatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?



Internet vositasida *XVI–XVIII asrlarda Turkiya davlatiga* virtual sayohat uyushtiring. Taassurotlaringizni daftaringizga qayd eting.

18-mavzu: XVI–XVIII ASRLARDA ERON

Safaviylar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi. XV asr oxirida Eron markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaydigan bir qancha mustaqil hududlarga bo‘linib ketgan edi. Buning oqibatida o‘zaro ichki urushlar tobora avj oldi. Bu esa mamlakat taraqqiyotiga katta salbiy ta‘sir ko‘rsata boshladi. Oqibatda, mamlakat zaiflashdi. Eronning zaiflashuvi Turkiya bosqini xavfini tobora kuchaytira bordi.



Eronda tuzilgan qaysi mustaqil davlat Oltin O‘rda bilan Kavkazortiga egalik qilish masalasida raqobat qila boshlagan?

Natijada, Eronni yagona davlatga birlashtirish hayotiy zaruratga aylanib qoldi. Bu tarixiy vazifa sarkarda, Eronda katta siyosiy nufuzga ega bo‘lgan Ardabil shahri hokimi Ismoil Safaviy tomonidan amalga oshirildi.

Ismoil I Safaviy olib borgan urushlari natijasida katta-katta hududlarni egalladi, 1502-yili esa Tabriz shahrini ishg‘ol etgach, u o‘zini shahanshoh deb e‘lon qildi. Shu tariqa tarixga «Safaviylar davlati» nomi bilan kirgan davlat vujudga keldi. Davlat tarkibi Erondan tashqari hududlar hisobiga kengaygan. Poytaxt etib Tabriz shahri belgilandi. Ismoil I Safaviy markazlashgan davlat tuzibgina qolmay, uni o‘z davrining qudratli davlatlaridan biriga ham aylantira oldi.

Ismoil I Safaviy markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida yer egaligining **suyurg‘ol** shaklini deyarli butunlay bekor qildi. Uning o‘rniga **tiyulni** joriy etdi.

Biroq bu tadbir yirik yer-mulk egalarining markazga bo‘ysunmaslikka intilishlarini to‘xtata olmadi.

Safaviy hukmdorlar tinimsiz bosqinchilik urushlari olib bordilar. Safaviylar davlati tarkibiga kirgan qaram o‘lkalar xalqlarining ozodlik kurashi shafqatsizlik bilan bostirildi.

Shoh Abbos I hukmronligi davri. Abbos I davri (1587–1629)da eng yirik yer-mulk egalarining mustaqilligi tugatilib, Safaviylar davlati o‘z

qudratining cho‘qqisiga erishdi. Bu yer-mulk egalari bir vaqtlar safaviylarga katta yordam bergan, buning evaziga keyingi shohlar davrida juda katta-katta hududlarga mustaqil egalik qilib kelishardi. Ular amalda bu mustaqil hududlarning xonlari edilar.

Abbos I mamlakat poytaxtini Tabriz shahridan **Isfahonga** ko‘chirdi. Mamlakat soliq tizimida tartib o‘rnatdi va soliqlar miqdori kamaytirildi. Savdo-sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirishga alohida e‘tibor berdi. Yangi-yangi karvonsaroylar va savdo yo‘llari qurildi. Savdo karvonlari qaroqchilarga qarshi shafqatsiz kurashdi. Tashqi siyosatda keng ko‘lamli savdo-sotiq yo‘lga qo‘yildi. Bu esa Eronning ichki va tashqi savdosi o‘shishiga olib keldi. Yangi-yangi sug‘orish inshootlari ham bunyod etildi. Bundan tashqari, Abbas I muntazam qo‘shin ham barpo etdi.



Shoh Abbas I

Iqtisodiy tanazzulning boshlanishi. XVIII asrdan boshlab Safaviylar davlatida iqtisodiy inqiroz boshlandi. Bunga yer egaligining tiyul shakli miqdorining ko‘payib borganligi oqibatida davlatga qarashli yer hajmining va davlat xazinasiga tushadigan daromadning kamayishi sabab bo‘ldi.

Buning oldini olish uchun keyingi hukmdorlar dehqonlar to‘laydigan soliq miqdorini oshirdilar. Natijada, dehqon xo‘jaliklari xonavayron bo‘ldi, savdogar va hunarmandlarning ahvoli yomonlashdi, jon solig‘i (jizya) miqdori ham oshirildi.

Pirovardida, dehqonlar uchun yerni ijaraga olib tirikchilik qilishdan manfaat qolmadi. Dehqonlarning tirikchilik ilinjida boshqa joylarga ketishdan o‘zga ilojlari yo‘q edi. Biroq shoh Sulton Husayn bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun 1710-yili dehqonlarning yerni tashlab ketishlarini taqiqlovchi farmon chiqardi.

Dehqon xo‘jaligining xonavayron bo‘lishi ichki savdoning keskin kamayishiga olib keldi.



- ◆ XV asr oxirida Eron ...
- ◆ 1710-yili ...
- ◆ 1502-yili ...
- ◆ Abbas I davri ...

Afg'onlar istilosi. Iqtisodiy inqiroz, o'z navbatida, aholining turli tabaqalari orasida noroziliklarni keltirib chiqardi. Ayni paytda yirik yer-mulk egalarning markaziy hokimiyatga bo'ysunmasligi va bosib olingan o'lka xalqlarining ozodlik uchun kurashi avj oldi.

Chunonchi, 1722-yili afg'onlar o'z yetakchisi Mir Mahmud boshchiligida zaiflashib qolgan Eronga hujum qildi. Eron shohi Sulton Husayn hokimiyatni Mir Mahmudga topshirishga majbur bo'ldi. Shu tariqa Eron tarixida afg'onlarga qaramlik davri boshlandi.

Nodirshohning hokimiyat tepasiga kelishi. Bu davrda safaviylar sulolasi hukmronligi nomiga bo'lsa-da, hamon davom etardi. So'nggi hukmdor Taxmasp II amalda hech qanday hokimiyatga ega emas edi. Buning ustiga, unda xalqni turk va afg'on bosqinchilariga qarshi kurashga chorlay oladigan qobiliyat ham yo'q edi. Shunday sharoitda Eronda shijoatkor, katta lashkarboshilik qobiliyatiga ega Nodir Quli kurash maydoniga chiqdi. U afg'on qo'shinini butunlay tor-mor etib, Eronni afg'on qaramligidan ozod etdi. Nodir Quli Safaviylar davlatining tarkibiga kiruvchi barcha hududlarda o'z hokimiyatini o'rnatib, 1736-yili barcha qabilalar asilzodalarning qurultoyida o'zini Eron shohi **Nodirshoh** deb e'lon qilishga erishdi. Shu tariqa safaviylar sulolasi hukmronligi butunlay barham topdi.

Nodirshoh katta bosqinchilik urushlari natijasida ulkan imperiya tuzdi. Biroq u **1747-yili** o'zaro ichki nizolar natijasida o'ldirildi.

Qojarlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. Nodirshoh halokatan keyin imperiya bir necha qismlarga bo'linib ketdi. Eronda turli qabilalar o'rtasida taxt uchun kurash avj oldi. Bu kurashda asosiy rolni zend va qojar qabilalari o'ynadi. Ular o'rtasidagi kurash **1758-yili zend qabilasi** g'alabasi bilan tugadi. Bu qabila vakillari 1796-yilgacha hukmronlik qildilar. **1796-yili** esa hokimiyatni **qojarlar** egallab oldi.



1722-yilda afg'onlar o'z yetakchisi Mir Mahmud boshchiligida zaiflashib qolgan Eronga hujum qildi.

Abbos I davrida Safaviylar davlati o'z qudratining cho'qqisiga erishdi.

Nodir Quli 1747-yili o'zaro ichki nizolar natijasida o'ldirildi.

Shu tariqa Eronda yangi sulola – qojarlar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. Mamlakat poytaxti Tehron shahriga ko'chirildi. Qojarlar rahnomasi Og'a Muhammad o'zini shahanshoh deb e'lon qildi. Yangi sulola Eronda **1925-yilgacha** hukmronlikni davom ettirdi.

Adabiyot, san'at va me'morchilik. XVI–XVII asrlarda ham Eronning qadimiy madaniy an'analari davom ettirildi. Ayniqsa, shaharsozlik, amaliy san'at va she'riyatda an'analar davomiyliги saqlanib qoldi. Bu davrda shoirlar **Xatoiy** (Ismoil I Safaviy), **Sodiqbek Afshar**, **Soib Tabriziy**, kurd mumtoz adabiyotining yorqin namoyandasi **Ahmad Hasaniy**, kurd shoiri **Mirza Shafiq** va boshqalar unumli ijod qildi.



Xatoiy

Tasviriy san'at va me'morchilik yuqori darajaga ko'tarildi. Ajoyib saroylar, madrasa va masjidlar qurildi. Bular qatorida Isfahonda bunyod etilgan Shoh masjidi, Shayx Lutfulla masjidi, Ali Kapa va Chexel Sotun saroy ansambllari o'zining nafisligi va mahobati bilan ajralib turadi.

Bu davr Eron miniaturasi jahon mumtoz badiiy san'atining eng yuksak namunalaridan hisoblanadi. Isfahon bu san'at turining markaziga aylandi. Miniatura san'atining rivojlanishiga Hirotdagi Behzod maktabi katta ta'sir ko'rsatdi.

XVIII asrda ham madaniy an'analar davom ettirildi. Ammo mamlakatdagi iqtisodiy tushkunlik va siyosiy parokandalik adabiyot va san'atda ham o'z aksini topdi. Bundan tashqari, yevropaliklarning kirib kela boshlashi ham azaliy an'analarga ta'sir etmasdan qolmadi. Bozor talabidan kelib chiqib, gilam va boshqa amaliy san'at buyumlarini ishlab chiqarishga e'tibor kuchaydi. Bu esa Eron madaniyatining keyingi asrlardagi taraqqiyot yo'nalishini belgilab berdi.

Xullas, tinimsiz o'zaro urushlar, qo'zg'olonlar natijasida XVIII asrga kelib, Eron ham iqtisodiy, ham siyosiy inqirozga yuz tutdi. Bu esa mamlakatga Yevropa mustamlakachilarining kirib kelishi uchun imkoniyat yaratdi. Kuchsizlanib qolgan Eron Yevropa davlatlari, birinchi o'rinda Angliya va Fransiya hamda chor Rossiyasining mustamlakachilik obyektiga aylandi. Natijada, Eron yuqoridagi davlatlar bilan bir nechta teng bo'lmagan shartnomalarni imzolab, ularning iqtisodiy va siyosiy ekspansiyasiga keng yo'l ochib berdi.



Tiyul – amaldorlarga xizmat vazifasini bajarish muddatiga, shoh oldidagi alohida xizmati uchun vaqtincha yoki umrbod muddatga beriladigan yer-mulk. Lekin bunday yerlarni meros qoldirish mumkin bo'lmagan.



1. Eronda safaviylar sulolasi qay tariqa o‘rnatildi?
2. Safaviylar markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida qanday tadbirlarni amalga oshirganlar?
3. Nodirshoh qanday sharoitda hokimiyat tepasiga keldi va nega uning hokimiyati uzoqqa cho‘zilmadi?
4. Eronda qojarlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi qay tariqa yuz berdi?



Ijodiy ish topshirig‘i

Matndan foydalanib, daftaringizga XVI–XVIII asrlarda Eron tarixiga oid tarixiy xronologiyani davriy ketma-ketlikda tuzing.

19-mavzu. XVI–XVIII ASRLARDA AFRIKA MAMLAKATLARI

Afrika tarixini sivilizatsiyaviy nuqtayi nazardan ikkiga – Sahroyi Kabirdan shimolga va janubga ajratib o‘rganish ma’qul bo‘ladi.

Shimoliy Afrika. Qit‘aning Sahroyi Kabirdan shimoliy qismida Misr, Sudan, Liviya, Jazoir, Tunis, Marokash va Mavritaniya kabi arab mamlakatlari joylashgan bo‘lib, ular VII asrdan boshlab islom dini va madaniyati ta’siri ostida rivojlandi. XVI asrda ko‘pchilik arab mamlakatlari usmoniyar tomonidan bosib olindi. Mamluklar hukmronligi ostida bo‘lgan **Misr** ham birinchilardan bo‘lib o‘z mustaqilligini yo‘qotdi. **1517-yilning** boshida Salim I armiyasi Misrning poytaxti Qohirani egallab, uni taladi va vayron qildi.

Turklar istilosi mamlakatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga katta o‘zgarish kiritmadi. Faqat mamluklarning siyosiy hokimiyati ag‘darilib, barcha feodallar o‘z mulklari va imtiyozlarini saqlab qoldilar. Misr alohida podsholik maqomini oldi va amalda yarim mustaqil davlat edi. Mahalliy boshqaruv hokimiyati to‘liq mamluk amirlarining qo‘lida saqlanib qoldi. Turklar mamluklarning boshqaruv mahoratidan, mahalliy sharoitni, aholining urf-odatlarini yaxshi bilishidan o‘z manfaatlarini yo‘lida foydalandilar.

Misrda ishlab chiqarish texnikasi hali o‘ta oddiy bo‘lsa-da, manufakturalardagi ichki mehnat taqsimoti mahsulotlarning ko‘payishiga olib keldi. Natijada, ichki va tashqi savdo tez rivojlandi. Misr Yevropa va qo‘shni Osiyo davlatlari bilan qizg‘in savdo munosabatlarini olib bordi. XVIII asr oxiriga kelib, faqat Qohira shahrining o‘zini hisoblaganda chet ellar bilan savdo qiladigan 5 mingta savdogar faoliyat yuritardi.

XVIII asrning 60-yillarida boshlangan mamluk zodagonlarining o'zaro urushlari Misrning iqtisodiy ahvoliga yomon ta'sir ko'rsatdi. Ularning o'zboshimchaligi, dehqon va hunarmandlar ustidan qilgan zolimliklari mamlakatda norozilikni keskin kuchaytirdi. Turk hukmronligi va mamluklar zulmiga qarshi boshlangan xalq harakatiga Qohiradagi al-Azhar masjidining taniqli shayxlari boshchilik qildilar. Ularning da'vati bilan **1795-yilning** yozida qohiralik hunarmand va savdogarlar o'z do'konlarini yopdilar. Mamluk hukmdorlari shayxlar bilan muzokaralar boshlashga majbur bo'ldi hamda zo'rvonlik va qonunsizliklarni to'xtatishga va'da berdi.

1798-yili Napoleon boshchiligidagi fransuz qo'shinlari Misrga bostirib kirdi va Qohirani zabt etdi. Al-Azhar masjidi shu davrda boshlangan fransuz bosqiniga qarshi xalq harakatining ham markaziga aylandi. 1800-yili fransuzlar Misrni tark etishga majbur bo'ldilar.

XVI asr boshida ispanlar **Jazoirga** bostirib kirib, uning qirg'oq bo'yi hududlarini egallab oldi. Ispanlarga qarshi xalq harakatiga boshchilik qilgan sarkarda Xayriddin yordam so'rab Turkiyaga murojaat qildi. Usmoniylar sultoni Salim I Shimoliy Afrikada o'rtnashib olish uchun paytdan foydalanishga urindi va Xayriddinga beklarbegi (beylerbeyi) unvonini berdi. Jazoirga yirik yanicharlar korpusini, harbiy kemalar, artilleriya va moliyaviy yordam jo'natdi. Turklarning yordamiga tayangan Xayriddin birin-ketin Jazoir shaharlarini ispanlardan ozod qildi. Jazoir rasman Istanbulga bo'ysunsa-da, mamlakat podshosi deyarli mustaqil siyosat olib bordi.

XVI asrdan **Liviyaga** ham yevropaliklarning kirib kelishi boshlandi. 1510-yili Tripoli ispanlar tomonidan zabt etildi. Liviyaliklar ham yordam so'rab sulton Salim I ga murojaat qildi. Musulmonlarni ozod qilish shiori ostida harakat qilgan turklar **1551-yili** butun Liviyani imperiyaga qo'shib oldi. XVIII asrdan boshlab, Liviya nomigagina Istanbulga bo'ysunib, mustaqil ichki va tashqi siyosat olib bordi.

XVI asrdan boshlab, ispanlar va turklar **Tunisga** ham qiziqish bildirdi. Natijada, **1574-yili** Tunis qirg'oqlariga kelib tushgan 40 ming kishilik turk qo'shinlari bu yerda ham ispanlar hukmronligiga xotima yasadi.

Sudan va Marokash o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Marokash Usmoniylar imperiyasi va Yevropa davlatlari bilan savdo shartnomalarini tuzib, bundan katta foyda oldi. Mamlakat yaxshi rivojlandi.

G'arbiy Afrika. Yevropaliklar, asosan, portugallar va ispanlarning G'arbiy Afrika hududlariga kirib kelishi XV asrda boshlandi. **1434-yildan 1482-yilgacha** portugallar va ispanlar Yashil burundan Kongo daryosigacha bo'lgan qirg'oq hududlarini o'rganib chiqishdi. Portugaliyaliklar dastlab bu yerdan oltin olib ketishdi. Chunki bu paytda Yevropa bozorlarida qullarga unchalik ehtiyoj yo'q edi.



Insoniyat tarixida quldorlik qachon paydo bo'lgan edi?

Amerika qit'asini muntazam ravishda mustamlakaga aylantirishning boshlanishi va bu yerdagi mahalliy hindularning turli sabablar bilan qirilib ketishi natijasida ishchi kuchiga katta ehtiyoj paydo bo'ldi. Bu ehtiyoj, ayniqsa, plantatsiyali xo'jalik paydo bo'lgan hududlarda juda kuchli edi. Bunday ishchi kuchining manbai, asosan, G'arbiy Afrikaning mahalliy aholisi bo'lib, keyingi bir necha yuz yil mobaynida bu yerlar juda katta qul bozoriga aylantirildi.

XVI asrning oxirigacha qul savdosi bilan faqat portugallar shug'ullandi. Ular G'arbiy Afrika qirg'oqlarida joylashib olib, asta-sekin Senegal va Gambiya daryolari bo'ylab qit'a ichiga kirib bordi. Ammo bu keng hududlarda kuchli davlatlar mavjud bo'lib, portugaliyaliklar o'zlarini istilochilardek tuta olmasdilar. Shu sababli ular asosiy e'tiborini Quyi Gvineyaga, Atlantika okeani qirg'oq bo'yi yerlariga qaratdi. Portugaliyaliklar sohil bo'ylarini to'rtta hududga ajratib, bu hu-



Baatu xalqlarining yerga ishlov berish jarayoni

dudlarni ulardan olinadigan asosiy tovarning nomi bilan atadilar. Ho-zirgi Shimoliy Liberiyaning qirg'oqlari Qalampir qirg'og'i, Fil Suyagi qirg'og'i, Oltin qirg'oq, Volta va Niger daryolari oralig'i esa Qul qirg'og'i deb atalgan.

XVI asr oxiriga kelib, Amerikaning Ispaniya, Angliya va Fransiya mustamlakalariga aylantirilgan barcha hududlarida plantatsiya xo'jaligi keng rivojlantirildi. Natijada, qullar mehnatiga ehtiyoj ham ortib bordi. Afrikadagi ishchi kuchi bozorini egallash uchun Yevropa davlatlari o'rtasida kuchli kurash boshlandi. Bu kurash oqibatida Afrika aholisi juda katta zarar ko'rdi.

XVII asrdan qul savdosida yetakchilik qilishni gollandlar o'z qo'liga oldi va Amerikadagi ispan mustamlakalariga afrikalik qullarni ular yetkazib berdi. Ammo qullar bozorida Gollandiyaning hukmronligi ham uzoqqa cho'zilmadi. XVII asrning ikkinchi yarmidan mustamlaka bozorlarini egallash uchun kurashga Angliya va Fransiya qo'shildi. Ingliz va fransuz plantatorlari o'z xo'jaliklarining kengayishi tufayli qullarning mehnat bozorini o'zlari egallashga, o'z tovarlariga oltin-u kumush bilan haq oladigan portugal hamda golland savdogarlarining xizmatidan voz kechishga harakat qildilar. Qul savdosiga, shuningdek, Shvetsiya, Daniya, Brandenburg kabi davlatlar ham qo'shildi. Yevropaning kuchli davlatlari o'rtasidagi raqobatchilik kurashi XVII asrning ikkinchi yarmi va butun XVIII asr mobaynida davom etdi. Bu kurash maydoni Afrika qit'asi, ayniqsa, G'arbiy va Markaziy Afrika bo'ldi.

Qul savdosi u bilan shug'ullanuvchilarga va savdogarlarga juda katta foyda keltirdi. Yevropa va Amerikadagi Bristol, Liverpul, Manchester, London, Nant, Ruan, Amsterdam, Nyu-York, Yangi Orlean, Rio-de-Janeyro kabi ko'plab shaharlarning jadal rivojlanishi va gullab-yashnashi qul savdosidan keladigan foyda bilan bog'liq edi.

XVI–XVIII asrlarda yevropalik qul furushlar Amerikaga **15–16 million** qul olib kelishdi. Arablar ham musulmon mamlakatlariga taxminan shuncha qul yetkazib bergan. Qullarning ko'pchiligi ularni tutish va tashib ketish jarayonida nobud bo'lardi. Birgina Atlantika okeani orqali amalga oshirilgan qul savdosi jarayonida **60–70 million** afrikalik halok bo'ldi.

Qul savdosi Afrika aholisining tabiiy rivojini to'xtatibgina qolmasdan, afrikaliklar jamiyatini g'ayriodatiy rivojlanish yo'liga ham burib yubordi. Qul savdosi afrikaliklar jamiyatida mulkiy va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirdi, qabilaviy tuzumning buzilishiga, qabila oqso-

qollari orasidan qulfurushlar qatlaminig shakllanishiga olib keldi. Qul savdosi Afrika xalqlarining kuchsizlanishiga, bir-biriga nisbatan ishonchsizlik va nafratning oshishiga sabab bo'ldi. Qul savdosi Afrikaning sillasini quritish evaziga Yevropa va Amerika mamlakatlarning iqtisodiy gullab-yashnashi uchun xizmat qildi.



- ◆ 1517-yili ...
- ◆ 1551-yili ...
- ◆ 1795-yili ...
- ◆ 15–16 million ...

Qul savdosining Afrika uchun eng og'ir oqibatlaridan biri psixologik holat bo'ldi: inson hayoti qadrsizlandi, quldorlar va qullarning tubanlashuvi yuz berdi. Qulchilikning eng g'ayriinsoniy ko'rinishi – irqchilik mafkurasi shakllandi. Yevropaliklar Afrikani zabt etish va mustamlakalarga bo'lib olishdagi o'zlarining g'ayriinsoniy va axloqsiz harakatlarini oqlash uchun bu mafkuradan ustalik bilan foydalandilar.



1798-yili Napoleon boshchiligidagi fransuz qo'shinlari Misrga bostirib kirdi. **Atlantika okeani** orqali amalga oshirilgan qul savdosi jarayonida **60–70 million** afrikalik halok bo'ldi.

XVI–XVIII asrlarda Shimoliy Afrika mamlakatlari Usmoniylar imperiyasi tarkibiga qo'shib olindi. Bu ushbu hududga yevropaliklar ta'sirini kamaytirib, mahalliy arab xalqlarining islom sivilizatsiyasi doirasida o'ziga xos mustaqil rivojlanishi uchun imkoniyat yaratdi.

G'arbiy Afrikaga yevropaliklarning kirib kelishi qit'a tabiiy boyliklarining jadal o'zlashtirilishiga, qulchilik va qul savdosining rivojlanishiga olib keldi. Qul savdosi afrikaliklar tarixida o'ta fojiali iz qoldirdi.



Mamluk – O'rta asrlarda Misrda mavjud bo'lgan harbiylar qatlami. Ular, asosan, kavkazlik va turkiy xalqlar vakillaridan iborat o'smir qullardan shakllantirilgan.

Irqchilik – barcha irqning teng emasligi, xalqlarning tarixi va madaniyatiga irqiy farqlar hal qiluvchi ta'sir etishi to'g'risidagi mafkuraviy qarashlar yig'indisi.



1. Misrning usmoniylar tomonidan zabt etilishi bu yerdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda qanday o'zgarishlarga olib keldi?
2. G'arbiy Afrikaga yevropaliklarning kirib kelishi qachon boshlandi?
3. Yevropaliklarda qul savdosiga ehtiyoj qachon paydo bo'ldi?
4. Qul savdosi afrikaliklar uchun qanday oqibatlarga olib keldi?



IV BOB. 1800–1870-YILLARDA YEVROPA VA AMERIKA MAMLAKATLARI

20-mavzu: 1800–1870-YILLARDA BUYUK BRITANIYA

Sanoatning rivojlanishi. Bu davrda Buyuk Britaniyada sanoat gurrakib rivojlandi. To‘qimachilik, metallurgiya, mashinasozlik, kon sanoati yetakchi o‘rinni egalladi.




Angliya tarixida «Qizil va oq gullar» urushi qachon bo‘lib o‘tgan?

Mashinalashgan ishlab chiqarish oqibatida 1816-yili Buyuk Britaniyada mashinalar 150 million odamning qo‘l mehnatiga teng ishni bajarardi. Vaholanki, bu davrda Buyuk Britaniya aholisi 12 million kishini tashkil etardi.

XIX asrda mashinasozlikda turli xil dastgoh (stanok)larning yaratilishi ishlab chiqarishda inqilobga teng ixtiro bo‘ldi. Stanoksozlikning rivojlanishi metallni qayta ishlash imkonini berdi. Endilikda bir mashina yordamida boshqa yana bir mashina yaratiladigan bo‘ldi.

Sanoat taraqqiyoti transportning yangi turi paydo bo‘lishini taqozo etdi. Buning natijasi o‘laroq, **1825-yili** Buyuk Britaniyada **dunyodagi ilk temiryo‘l** qurildi. Bu hodisa mamlakatning turli mintaqalari



**Sanoat inqilobi davrida
Angliya**

qalarini bir-biri bilan tutashtirdi hamda yuk tashishning arzonlashuvini ta'minladi. Ayni paytda ichki bozor kengaydi.

Oqibatda, zavod va fabrika egalari ko'proq mahsulot ishlab chiqara boshladilar.

Temiryo'l qurilishining boshlanishi, o'z navbatida, cho'yan, temir va po'latga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi. Sanoatning yangi tarmog'i – parovozsozlik paydo bo'ldi. Bu esa qudratli savdo va harbiy dengiz floti tuzishga imkon yaratdi.

XIX asr insoniyat tarixiga bug' mashinalarining qo'llanilishi asri bo'lib kirdi. Mamlakat hayotidagi bu o'zgarishlar Buyuk Britaniyaning «dengizlar hukmdori» mavqeyini yanada mustahkamladi. Shu davrda qishloq xo'jaligida ham mashinalar va kimyoviy o'g'itlardan foydalanish boshlandi. Katta-katta sanoat korxonalarini qurish davom etdi. Temiryo'llar va yirik sanoat korxonalari qurilishi katta mablag' talab etardi. Bu esa tijorat banklarining qudratini yanada oshirdi. Ular endi xalqaro miqyosda ham faoliyat ko'rsata boshladilar.

Mamlakatda sanoat ishlab chiqarishining konsentratsiyalashuvi ro'y berdi. Jahon tarixida birinchi marta mamlakat iqtisodiyotida yetakchilik qishloq xo'jaligidan sanoatga o'tdi. Buyuk Britaniya dunyoning birinchi sanoatlashgan mamlakatiga aylandi.

Sanoat to'ntarishining tugallanishi. XIX asrning 40-yillariga kelib, sanoatning gurrak rivojlanishi va ilm-fan taraqqiyoti yangi bir hodisa – sanoat to'ntarishining tugallanishiga olib keldi.

Sanoat to'ntarishining tugallanishi deyilganda, bir mashina yordamida boshqa mashinaning yaratilishi boshlanganligi tushuniladi. Buyuk Britaniyada bu hodisa XIX asrning 40-yillarida yuz berdi. Sanoatda bug' mashinasi asosiy kuch bo'lib qoldi. Toshko'mir yoqilg'ining eng muhim turiga aylandi.

Parlament islohoti. 1825-yili Buyuk Britaniya parlamenti ish tashlashni taqiqlovchi qonun qabul qildi. Bu qonun ishchilar o'rtasida keskin norozilik keltirib chiqardi. Natijada, parlament islohoti o'tkazish masalasi zaruratga aylandi. Oqibatda, 1832-yili parlament islohoti o'tkazilib, saylov tartibi o'zgartirildi.



- ◆ XIX asrning 40-yillari ...
- ◆ 1816-yili ...

- ◆ Sanoat to'ntarilishining yakunlanishi ...
- ◆ 1825-yili ...



Angliyada bolalar mehnati (1815–1848-yillar)

Unga ko‘ra, yirik sanoat markazlariga parlamentdan 144 o‘rin ajratib berildi. Shu tariqa sanoat burjuaziyasi endi siyosiy jihatdan ham o‘z hukmronligini mustahkamladi. Islohot natijasida parlament quyi palatasining mamlakat siyosiy hayotidagi roli oshdi. U davlat budjetini nazorat qilish huquqini o‘zida saqlab qoldi. Buyuk Britaniya hukumatining faqat quyi palata oldida javobgarligi belgilab qo‘yildi. Quyi palata hukumatga ishonchsizlik bildirgan taqdirda, hukumatning iste‘foga chiqishi majburiy qilib qo‘yildi.

Islohotdan so‘ng saylangan yangi parlament 13 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun 8 soatlik ish vaqti belgiladi. 9 yoshgacha bo‘lgan bolalarning mehnat qilishi taqiqlandi.

Parlament islohoti mamlakatda saylov huquqi uchun kurashni batamom to‘xtata olmadi.

1836-yili London shahrida ishchilarning «Umumiy saylov huquqi uchun kurash ishchi assotsiatsiyasi» tuzildi. U saylov huquqini kengaytirish masalasida 12 yil davomida parlamentga uch marta **xartiya (chartiya)** – yorliq topshirdi. Barcha erkaklarga umumiy saylov huquqi berilishi uchun boshlangan harakat tarixga «**chartistlar harakati**» nomi bilan kirdi.

Bu harakat garchand yengilgan bo'lsa-da, keyingi parlament islohotlariga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

1867-yili ikkinchi parlament islohoti o'tkazildi. Unga ko'ra, shaharlarda o'z uyiga ega bo'lgan hamda alohida xonadonda turadigan barcha erkaklarga saylov huquqi berildi.

Tashqi siyosat. XIX asrning 50-yillari Buyuk Britaniya sanoatning rivojlanish darajasi, savdoning ko'lami va dengizdagi qudrati jihatidan dunyoning eng qudratli davlatiga aylandi.



1825-yili Buyuk Britaniyada dunyodagi ilk temiryo'l qurildi.

XIX asrning 40-yillarida Buyuk Britaniyada sanoat to'ntarishi tugallandi.

1836-yili London shahrida ishchilarning «Umumiy saylov huquqi uchun kurash ishchi assotsiatsiyasi» tuzildi.

Bu qudrat unga mustamlakalari ustidan hukmronlikni yanada mustahkamlash va ularni kengaytirish imkonini berdi. Ingliz hukumati dunyoning strategik jihatdan muhim mintaqalarida qudratli harbiy-dengiz bazalari qurishga va tayanch hududlarni qo'lga kiritishga alohida e'tibor berdi.

Buyuk Britaniya XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmi mobaynida dengiz hamda okeanlar orqali o'tadigan jahon yo'llarida bir qator tayanch punktlarini bosib oldi. Ana shu harbiy bazalarga va o'z harbiy flotining juda katta ustunligiga tayanib, Buyuk Britaniya XIX asrning o'rtalarida eng yirik mustamlakachi davlatga aylandi. Buyuk Britaniya mustamlakalari ichida eng yirigi bo'lgan Hindistonda 300 million aholi bo'lib, Buyuk Britaniyadagiga nisbatan taxminan 10 baravar ko'p edi.

«Oq mustamlakalar». Buyuk Britaniya o'z mustamlakachilik siyosatida «oq koloniyalar»ga katta e'tibor qaratdi. Amerika, Afrika va Avstraliyaga Buyuk Britaniya va Yevropaning boshqa mamlakatlaridan ko'chib borgan kishilar o'zlashtirgan hududlar «Oq mustamlakalar» deb atalardi. Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya ana shunday mustamlakalar edi. Ayni paytda bu mustamlakalar o'zini o'zi boshqarish uchun kurash olib bordilar. Bu kurash, ayniqsa, Kanadada shiddatli tus oldi. Natijada, Buyuk Britaniya 1867-yili Kanadaga dominion maqomini berishga majbur bo'ldi.

XIX asr ko'p jihatdan Buyuk Britaniya asri bo'ldi. Bu yerda birinchi bo'lib huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslari yara-

tildi. Fan va texnika taraqqiyoti sanoat to‘ntarishiga olib keldi va Angliya «dunyo ustaxonasiga» aylandi. To‘xtovsiz urushlar olib borgan inglizlar Yer yuzi aholisining chorak qismini birlashtirgan ulkan imperiyani yaratdilar.



Iste’fo (vazifadan chetlashish) – mansab vazifasidan ketmoq.

Konsentratsiya (birga, markaz) – biror narsaning muayyan bir joyda to‘planishi.

Dominion – o‘zini o‘zi boshqaradigan qaram yer, o‘lka.



1. *Buyuk Britaniyada sanoat rivojlanishi va uning oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?*
2. *«Sanoat to‘ntarishi tugallandi» degan iboraning mazmunini izohlab bering.*
3. *Buyuk Britaniyada parlament islohoti uchun olib borilgan kurash qanday yakun topdi?*
4. *Buyuk Britaniyaning eng yirik mustamlakachi davlat bo‘lganligiga misollar keltiring.*



Ijodiy ish topshirig‘i

Mavzu matnini «Insert» jadvali asosida tahlil qiling va ikki qismli kundalik tuzing.



Internet vositasida *XIX asrda Buyuk Britaniya davlatiga* virtual sayohat uyushtiring. Taassurotlaringizni daftaringizga qayd eting.

21-mavzu: 1800–1870-YILLARDA FRANSIYA

Fransiyada Birinchi imperiya (1804–1814). 1799-yilgi davlat to‘ntarishidan so‘ng Napoleon Birinchi konsul lavozimini egalladi. Keyin umrbod konsullikka saylandi. 1804-yili Senat uni «Fransuzlar imperatori Napoleon I» deb e‘lon qildi. Shu tariqa Fransiyada monarxiya qayta tiklandi. Biroq bu monarxiya zodagonlarga emas, burjuaziyaga xizmat qilar edi.



Fransiyada qachon toifaviy monarxiya, ya‘ni toifa vakillari yig‘iniga tayannadigan, markazlashgan davlat shakllana boshladi?

Birinchi imperiya davrida Napoleon urushlari natijasida imperiya hududlari kengayib bordi. **1805-yili Austerlis jangida** Napoleon, aso-



Austerlis jangi

san, Rossiya va Avstriya qo'shinidan iborat birlashgan armiya ustidan hal qiluvchi g'alabani qo'lga kiritdi. Jangda Napoleonga qarshi Rossiya va Avstriya imperatorlari Aleksandr I hamda Frans II ishtirok etdi.

O'z g'alabalaridan ruhlangan Napoleon endi Buyuk Britaniyaga nisbatan «qit'a qamali» e'lon qildi. Unga ko'ra, Napoleonga qaram barcha davlatlarning Buyuk Britaniya bilan savdo-sotiq qilishi taqiqlandi. Napoleonning maqsadi shu yo'l bilan Buyuk Britaniyani bo'y-sundirish edi.

Rossiya ham 1807-yili Napoleon bilan tinchlik hamda ittifoq to'g'risida Tilzit shartnomasini imzolab, Fransiyaning Yevropadagi barcha g'alabalarini tan oldi. Shartnomaga ko'ra, Rossiyaga Buyuk Britaniya bilan aloqani uzish va qit'a qamaliga qo'shilish majburiyati yuklandi.

Ammo Napoleon Buyuk Britaniyaga qarshi qit'a qamalidan ko'zlangan maqsadiga erisha olmadi. Aholi tinimsiz urushlardan charchadi, mamlakatda norozilik, bosib olingan hududlarda milliy-ozodlik harakati kuchaydi.

Napoleonga bu noroziliklarni bostirish uchun katta bir g'olibona urush kerak edi. Shuning uchun ham u Rossiyaga qarshi urush boshlab, unda g'alaba qozonishni rejalashtirdi.



◆ 1799-yili ...

◆ Birinchi imperiya davri – bu ...

◆ 1804-yili ...

◆ 1825-yili ...

Rossiyaga qarshi urush. 1812-yili Napoleon Rossiyaga qarshi urush boshladi. Urush Rossiya tarixiga «Vatan urushi» nomi bilan kirdi. 1812-yil 7-sentabrda ikki davlat qoʻshini oʻrtasidagi hal qiluvchi jang Moskva yaqinidagi Borodino qishlogʻida boʻlib oʻtdi. Borodino jangida har ikki tomon ham koʻplab qurbonlar berdi. Napoleon Moskvani egalladi. Ammo Napoleon armiyasida tartib yoʻqolib, askarlar yoppasiga talonchilik bilan shugʻullana boshladi. Armiyada jangovar ruh yoʻqoldi.

Napoleon Moskvani tashlab chiqishga majbur boʻldi. M.I. Kutuzov boshchiligidagi Rossiya armiyasi chekinayotgan fransuzlarni taʼqib qilib, ularga katta talafot yetkazdi.

Imperiyaning qulashi. Yevropa mamlakatlari qoʻshinlaridan iborat qurolli kuchlar bilan Napoleon armiyasi oʻrtasidagi hal qiluvchi jang 1813-yili Leypsig ostonasida boʻlib oʻtdi. «Xalqlar jangi» deb nom olgan bu jangda Napoleon qoʻshini tor-mor etildi.

1814-yili ittifoqchi davlatlar armiyasi Parij shahriga kirib keldi. Napoleon taxtdan voz kechishga majbur boʻldi. Ittifoqchilar uni Elba oroliga surgun qildilar. Shu tariqa imperiya quladi.

Ittifoqchi davlatlar Fransiyada burbonlar sulolasi hokimiyatini tiklashga qaror qildilar. Inqilob yillari qatl etilgan qirol Lyudovik XVI ning ukasi Lyudovik XVIII Senatning qarori bilan taxtga oʻtqazildi. Ittifoqchilar Fransiya bilan sulh shartnomasini imzoladilar. Unga koʻra, Fransiya Napoleon davrida bosib olgan barcha hududlardan mahrum etildi.

Vaterloo jangi. Ayni paytda Fransiyada ichki vaziyat murakkablashib bordi. Bunga eski zodagonlarning feodal tartiblar va mutlaq monarxiyani tiklashni, shuningdek, qoʻllaridan ketgan mol-mulklarini qaytarib berishni talab qilishlari sabab boʻldi. Napoleon davridan boyib olgan yangi zodagonlar va armiyadan boʻshatilgan zobitlar ham mamlakatdagi holatdan norozi edi.

Vaziyatdan surgundagi Napoleon foydalanib qolishga qaror qildi. U 1815-yilning mart oyida Elbadan Fransiyaning janubiga yetib keldi. Qirol Lyudovik XVIII ning Napoleonga qarshi yuborgan 30 ming kishilik qoʻshini ham Napoleon tomoniga oʻtib ketdi. Napoleon Parij shahrini egallab, yana taxtga oʻtirdi. Biroq u bu safar hokimiyatni



Vaterloo jangi

atigi 100 kun boshqardi. Ittifoqchi davlatlar (Buyuk Britaniya, Gollandiya va Prussiya) juda katta armiyani Napoleonga qarshi qo'ydi. Ikki o'rtada **1815-yil Vaterloo** qishlog'ida (hozirgi Belgiya davlati hududida) hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi. U tarixga «**Vaterloo jangi**» nomi bilan kirdi. Jangda Napoleon qo'shini butunlay tor-mor etildi. Ikkinchi bor taxtdan voz kechgan Napoleon endi uzoq Muqaddas Yelena oroliga surgun qilindi va u shu yerda 1821-yili vafot etdi. Fransiyada Burbonlar hokimiyati qayta tiklandi.

Vena kongressi. G'olib davlatlar Kongress chaqirdilar. Bu Kongress 1814–1815-yillarda Avstriyaning poytaxti Vena shahrida bo'lib o'tdi. Kongressning asosiy maqsadi – Yevropani g'olib davlatlar manfaatlarini yo'lida qayta taqsimlashdan iborat edi. Kongressning yakunlovchi hujjatiga binoan, Fransiya hududi o'zining 1789-yilgi chegarasigacha qisqartirildi. Yevropada Buyuk Britaniya va Rossiyaning ta'siri kuchaydi.



1812-yilning 7-sentabrida Borodino jangi bo'lib o'tdi.

1813-yilda Leypsig ostonasida «Xalqlar jangi» bo‘lib o‘tdi.
1821-yilda Napoleon vafot etdi.

Ayni paytda Vena kongressi qora tanli qullar savdosini taqiqlovchi **deklaratsiya** ham qabul qildi.

«**Muqaddas ittifoq**». Yevropada kelgusida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan inqiloblarga qarshi birgalikda kurashish maqsadida 1815-yili Vena kongressida uch davlat – Rossiya, Avstriya va Prussiya monarx-lari ittifoq tuzdilar. U tarixga «Muqaddas ittifoq» nomi bilan kirdi.

Fransiyada Iyul monarxiyasi. Ikkinchi imperiyaning o‘rnatilishi. 1824-yili Lyudovik XVIII vafot etdi. Taxtni ukasi Karl X egalladi. U o‘z hokimiyatini yanada mustahkamlashga urinib, 1830-yili mamlakat parlamentini tarqatib yubordi va fuqarolar saylov huquqlarining yana-da cheklanishini ma‘lum qildi. Bu esa Parij shahrida inqilob bosh-lanishiga olib keldi. Uning ishtirokchilari burjuaziya, ishchilar, hu-narmand va talabalar bo‘ldi. Inqilobning maqsadi Fransiyada Res-publika tuzumini o‘rnatish edi.

Fransiya qiroli Karl X inqilobdan cho‘chib chet elga qochib ketdi. Hokimiyat yirik burjuaziya – bankirlar, yirik sanoatchilar va katta yer egalari qo‘liga o‘tdi. Ular burbonlarning qarindoshi Lui Filippni taxt-ga o‘tqazib, shu yo‘l bilan monarxiyani saqlab qoldilar. Bu hodisa 1830-yilning iyul oyida ro‘y berganligi tufayli tarixga «Iyul mo-narxiyasi» nomi bilan kirdi. Uning davrida yangi Konstitutsiya qabul qilindi. **Konstitutsiyada** so‘z, matbuot, yig‘inlar o‘tkazish erkinliklari e‘lon qilindi. Saylovchilar uchun yosh va mulk senzleri kamaytirildi.

Ammo ishchilar va dehqonlarning ahvoli og‘irligicha qoldi. Ular tomonidan boshlangan bir nechta qo‘zg‘olon shafqatsiz bostirildi.



◆ 1815-yili ...

◆ 1824-yili ...

◆ Iyul monarxiyasi – bu ...

1848-yil inqilobi. 1846-yili Fransiyada qish juda sovuq kelib, kuzgi g‘alla nobud bo‘ldi. Oqibatda, oziq-ovqat mahsulotlari, birinchi nav-batda, nonning narxi oshib ketdi.

Bu ham yetmaganidek, qahraton qish natijasida tut daraxtlarini sovuq urdi, pilla yetishtiruvchi to‘qimachilik sanoati inqirozga uchra-di va ishsizlikni yuzaga keltirdi.

Bunday vaziyat ishlab chiqarishning keskin kamayishiga, pulning qadrsizlanishiga olib keldi. Korxonalarining yopilishi yoki ishchi o'rinlarining qisqartirilishi natijasida ishsizlik oshib bordi. Bularning barchasi inqilobning yuzaga kelishiga sharoit yaratdi.

Nihoyat, 1848-yilning fevral oyida Fransiya tarixida yana bir inqilob yuz berdi.

Qisqa vaqt ichida Parij shahridagi barcha muhim joylar, muassalar qo'zg'olonchilar qo'liga o'tdi. Qirol Lui Filipp taxtdan voz kechib, Buyuk Britaniyaga qochib ketdi. Qo'zg'olonchilar qirol saroyini egallab, uning taxtini yoqib yubordilar.

Shu tariqa 1848-yil fevral inqilobi natijasida Iyul monarxiyasi quladi. 25-fevral kuni esa Fransiya Respublika deb e'lon qilindi. Bu Fransiya tarixidagi ikkinchi Respublika edi. Fransiya parlamenti muvaqqat hukumat tuzdi.

Yangi hukumat matbuot, namoyishlar o'tkazish erkinligini e'lon qildi. Shuningdek, 21 yoshga to'lgan barcha erkaklarga saylov huquqi berildi.



1846-yili Fransiyada qish juda sovuq kelib, kuzgi g'alla nobud bo'ldi.

1848-yil 25-fevral kuni Fransiya Respublika deb e'lon qilindi.

Ikkinchi imperiya. Mamlakatda tartib o'rnatishga qodir hokimiyat zarur edi. Shu tufayli hukmron tabaqalar katta vakolatlarga ega prezidentlik lavozimini joriy etishga qaror qildilar.

1848-yilning dekabr oyida Napoleon Bonapartning jiyani Lui Napoleon Bonapart Fransiya Prezidenti etib saylandi. Uning asl maqsadi Fransiya imperiyasini qayta tiklash edi.

1852-yil 2-dekabrda u o'zini Napoleon III nomi bilan Fransiya imperatori deb e'lon qildi. Shu tariqa Fransiyada Ikkinchi imperiya o'rnatildi. Napoleon III «Imperiya – bu tinch-totuvlik», deb aytgan bo'lsa-da, Fransiya bir necha tashqi urushlarni olib bordi. Bu urushlardan birida yengilganligi bois Ikkinchi imperiya ham quladi.

XIX asrda hech bir xalq fransuzlarchalik ko'p urushlarda qatnashmadi, boshqa birorta yevropalik millat fransuzlardek ko'p inqilobni amalga oshirmadi. Natijada, XIX asr oxiriga kelib, Fransiya dunyoning eng qudratli davlatlari qatoriga kirsada, inqiloblar va urushlardagi juda katta yo'qotishlar tufayli rivojlanish sur'atlari tobora pasayib borayotgan edi.



Kontributsiya – urushda yetkazilgan zarar o‘rnini qoplash uchun mag‘lub davlat tomonidan to‘lanadigan to‘lov.

Senz – fuqarolarning saylov huquqidan foydalanishlarini cheklaydigan shartlar. Ular mulk, yosh, jins va boshqa senzlar bo‘lishi mumkin.



1. Fransiyada Birinchi imperiya qay tariqa vujudga keldi?
2. Vena kongressida qanday masalalar hal etildi?
3. 1848-yil fevral inqilobi va uning oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Fransiyada Ikkinchi imperiya qay tariqa o‘rnatildi?



Ijodiy ish topshirig‘i

«Birinchi imperiya halokati sabablari» mavzusida esse yozing.



Fransiyada Birinchi va Ikkinchi imperiyaning ijobiy va salbiy jihatlarini T-chizma asosida tahlil qiling va daftaringizga yozing.

22-mavzu: 1800–1870-YILLARDA GERMANIYA VA ITALIYA

Germaniyada inqilobning kelib chiqish sabablari. Germaniya inqilobining asosiy sababi – O‘rta asr feodal tartiblarining kapitalistik taraqqiyotga to‘siq bo‘lib kelayotganligi edi. Buning natijasida Germaniyada hamon siyosiy tarqoqlik hukm surardi. Oqibatda, yagona umumiy bozor vujudga kelmadi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi boshqa ilg‘or davlatlardan orqada qoldi. Zo‘ravonlikka asoslangan davlat boshqaruvi har qanday hurfikrlikni ta‘qib qilar edi. Bu omillar Germaniyada ham inqilobning yetilishiga olib keldi. ***Inqilobning asosiy maqsadi Germaniyaning siyosiy tarqoqligiga barham berish va feodal tartiblarni tugatish edi.*** Inqilobga burjuaziyaning konstitutsiyaviy monarxiya tarafdori bo‘lgan mo‘tadil qismi rahbarlik qildi.



O‘rta asrlarda Germaniyada ishlab chiqarish kuchlarining o‘sishi qachon boshlangan?

1848-yilgi inqilob. Yevropaning boshqa davlatlarida 1847-yili yuz bergan iqtisodiy inqiroz Germaniyani ham chetlab o‘tmadi. Bu inqi-

roz ishsizlikning ko'payishiga, ish haqining pasayishiga olib keldi. Barcha tovarlar, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarining narxi ko'tarilib ketdi. Oqibatda, och qolgan aholi ko'chaga chiqdi. Fransiyada boshlangan 1848-yilgi fevral inqilobi ta'sirida Berlinda qo'zg'olon boshlandi. Berlin ko'chalari barrikadalar bilan qamrab olindi. Tun bo'yi shiddatli ko'cha janglari davom etdi. Shunday sharoitda Prussiya qiroli murosa yo'lini izlashga majbur bo'ldi va Millat majlisi (parlament)ga saylov belgilashga hamda konstitutsiya ishlab chiqishga va'da berdi. Siyosiy vaziyatning, biroz bo'lsa-da, yumshashiga erishgan qirohokimiyati inqilobni bostirishga erishdi, biroq inqilob butunlay izsiz ketmadi.

1848-yili Prussiya qirolligida konstitutsiya joriy etilishining o'zi katta siyosiy voqea bo'ldi.



Kamillo Kavur

Italiyaning birlashtirilishi. 1861-yili Birlashgan Italiya qirolligi tashkil etildi. Kapitalizmni yanada rivojlantirish zarurati mamlakatning birlashuvini nihoyasiga yetkazishni taqozo etardi. Busiz Italiya Yevropada o'z o'rniga ega bo'lgan davlatga aylana olmas edi. Til va madaniyat birligi Italiyani yagona davlatga birlashtirish imkonini berdi. Bosh vazir **Kamillo Kavur** uzoqni ko'ra oluvchi siyosatchi, mo'tadil islohotlar va konstitutsiyaviy monarxiya tarafdori edi.

K. Kavur Avstriya zulmiga qarshi kurashda Fransiya bilan shartnoma tuzishga erishdi. Avstriya qo'shini mag'lubiyatga uchratilib, u bilan sulh tuzildi. Biroq Sitsiliya va Neapol qirolligi Italiya siyosiy tarqoqligining tayanchi bo'lib qolayotgan edi.

Italiyani birlashtirishning qizg'in tarafdori, xalq qahramoni **Juzeppe Garibaldi** 1860-yili o'z harbiy kuchlari bilan Sitsiliya oroliga kelib tushdi. Xalq ommasi uni xaloskor sifatida kutib oldi. Sitsiliyaning Palermo shahri egallandi. Shundan so'ng J. Garibaldi qo'shini Neapolga yurish qildi. Neapol qo'shini tor-mor etildi va Neapol qirolligi tugatildi.

Italiyaning birlashishida uch buyuk shaxsning xizmatlari beqiyos. Bular bosh vazir K. Kavur, Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi milliy-ozodlik urushlarida nom qozongan xalq qahramoni J. Garibaldi, «Yosh Italiya» jamiyatiga rahnamolik qilgan Juzeppe Madzinidir.

Badiiy adabiyotda har uchala milliy qahramonning Italiyani birlashtirishdagi xizmatlarini nazarda tutib, ularni «Vatanning aql-zakovati, joni hamda shamshiri»ga qiyoslashadi.



1847-yilda Germaniyada iqtisodiy inqiroz yuz bergan.

1861-yilda Birlashgan Italiya qirolligi tashkil etildi.

Italiyaning birlashishida uch buyuk shaxs: Kamillo Kavur, Juzeppe Garibaldi, Juzeppe Madzinilarning xizmatlari beqiyos.

Mamlakatda konstitutsiyaviy monarxiya qaror topdi hamda ikki palatali parlament (Senat va Deputatlar palatasi) joriy etildi. 1866-yili Avstriya qo‘l ostida qolgan Venetsiya viloyati ham, 1870-yilda esa Fransiya ta‘sirida bo‘lgan Rim shahri ham Italiya qirolligiga qo‘shib olindi. Shu tariqa Italiyani yagona davlatga birlashtirish yakunlandi.

Germaniyani birlashtirish uchun kurash.

Germaniyada ham jamiyatning ilg‘or qatlami milliy birlashuv uchun kurashayotgan edi. Bu yerda ham butun mas‘uliyatni Germaniyada mavjud ko‘plab davlatlardan biri o‘z zimmasiga olishi zaruriyatga aylandi. Bunday sharaf Prussiyaga nasib etdi. Prussiya bu davrda Germaniya imperiyasidagi eng qudratli davlat edi.

Qirollikda o‘z davrining eng mashhur davlat arbobi **Otto fon Bismark** kanslerlik qilardi. U Germaniyani yagona davlatga birlashtirishdek tarixiy ishga rahbarlik qildi.

1866-yili Prussiya Avstriya ustidan qozongan tarixiy g‘alabadan so‘ng Bismark Germaniyada mavjud davlatlarning Prussiya bilan «Shimoliy Germaniya Ittifoqi»ni tuzish haqidagi shartnomani imzolashlariga erishdi. Bismark ittifoq kansleri – Bundeskansler lavozimini egalladi. Bismark o‘z yordamchilari bilan qisqa muddatda Shimoliy Germaniya ittifoqi konstitutsiyasini ishlab chiqdi.

Bu konstitutsiya asosiy matnidagi ba‘zi bir o‘zgarishlarni hisobga olmaganda, 50 yildan ko‘proq vaqt davomida – 1919-yil Veymarda Germaniya Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingunga qadar amal qilib keldi.



Otto fon Bismark

Ko'plab mayda davlatlarga bo'linib ketgan Germaniya XIX asrda nemis millatining katta qismini birlashtirgan zamonaviy davlatga aylandi. Asr oxiriga kelib, Germaniya eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egalladi.

Italiya birlashgandan so'ng konstitutsion monarxiya yo'lini tanladi. Ichki bozorning sust taraqqiy etganligi hukmron doiralarni bosqinchilikka, mustamlaka imperiyasini tuzishga chorladi.



◆ 1848-yil ...

◆ 1861-yili ...

◆ 1848-yil Prussiya qirolligi ...

◆ Otto fon Bismark ...

Germaniyani birlashtirish yo'lidagi asosiy tashqi to'siq Fransiya edi. Prussiya unga qarshi urushga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshladi.



Mo'tadil burjuaziya – burjuaziyaning murosaga intiluvchi, muammolarni tinch yo'l bilan hal etishga, hukmron tabaqalar bilan kelishishga intiluvchi qismi.



1. Germaniyadagi inqilobning sabablari va uning asosiy maqsadi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Italiya inqilobi asosiy maqsadining qaysi xususiyati Germaniya inqilobining asosiy maqsadidan farq qilgan?
3. Birlashgan Italiya qirolligi qay tariqa tashkil etildi?
4. Germaniyani yagona davlatga birlashtirishda Prussiya bosh vaziri Bismarkning tarixiy rolini qayd eting.



Ijodiy ish topshirig'i

Venn diagrammasi yordamida Germaniya va Italiya tarixidagi umumiylik hamda farqli jihatlarni tahlil qilib, daftaringizga yozing.



Internet vositasida XIX asrning 40–60-yillari oralig'ida Germaniya va Italiya davlatiga virtual sayohat uyushtiring. Taassurotlaringizni xronologiya tarzida daftaringizga qayd eting.

23-mavzu: 1800–1870-YILLARDA ROSSIYA

Iqtisodiy hayotning o'ziga xos xususiyatlari. Chor Rossiyasida krepostnoylik tartiblari jamiyat taraqqiyotiga katta g'ov bo'lib qoldi. G'arbiy Yevropa davlatlari va AQSHda mashinalashgan sanoat rivojla-

nayotgan bir davrda, Rossiyada hamon manufaktura ishlab chiqarishi hukmron edi. Qishloq xo'jaligida esa hamon O'rta asr krepostnoylik tartiblari yetakchilik qilardi va u taraqqiyotning asosiy to'sig'iga aylangan edi.



Kiyev Rusi davlatida ruslar qachon xristian dinini qabul qilishgan?

Samoderjaviye va krepostnoylikka qarshi kurash. 1812-yilgi Fransiya – Rossiya urushida erishilgan g'alabadan keyin ham chor Rossiyasida samoderjaviye boshqaruv tartibi va krepostnoylik huquqi saqlanib qolaverdi. Ushbu holat chor Rossiyasining ilg'or fikrli kishilarini harakatga chorladi. Ular o'z vatanini Yevropaning yetakchi davlatlari qatorida ko'rishni istardilar. Vatanidagi mavjud tuzumni o'zgartirmay turib, o'z orzularining ro'yobga chiqmasligini ham yaxshi bilardilar.

Ular samoderjaviye va krepostnoylikka qarshi aniq dastur bilan kurash boshladilar. Bu kurash Rossiya tarixiga «**Dekabristlar harakati**» nomi bilan kirgan. Dekabristlar zodagonlarning farzandlari edilar. Ularning bir guruhi Rossiyada Respublika o'rnatish tarafdorlari bo'lsa, ikkinchisi konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish istagida edi.

Dekabristlar ikkita maxfiy jamiyat tuzdilar. Ulardan biri «**Janubiy jamiyat**», ikkinchisi «**Shimoliy jamiyat**» deb ataldi. Har ikki jamiyat ham Rossiya Konstitutsiyasining loyihasini yaratdi. «Janubiy jamiyat»ning ko'zga ko'ringan arbobi Vatan urushi qatnashchisi **Pavel Pestel** edi.



Pavel Pestel

U yaratgan konstitutsiya loyihasi «Rus haqiqati» deb ataldi. Loyihada samoderjaviye, krepostnoylik huquqini yo'q qilish va Rossiyada Respublika idora usulini joriy etish ko'zda tutildi. Hamma fuqarolar uchun teng saylov huquqi asosida saylanadigan «Xalq vechesi» Rossiya parlamenti bo'lishi belgilandi.

«Shimoliy jamiyat»da **Nikita Muravyov** tayyorlagan konstitutsiya loyihasi Rossiyani konstitutsiyaviy monarxiya deb e'lon qilishni ko'zda tutardi. Mulk senzi asosida saylanadigan ikki palatali Xalq



Nikita Muravyov

Vechesi oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat organi (parlament) bo'lishi kerak edi.

Dekabristlar o'z maqsadlariga qo'zg'olon ko'tarish orqali erishish mumkin deb hisoblab, unga tayyorlana boshladilar. Qo'zg'olon vafot etgan imperator Aleksandr I o'rniga ukasi Nikolay I ning taxtga o'tqazilishi marosimi o'tkaziladigan kunga belgilandi. Qo'zg'olon dekabristlarga sodiq harbiy qism tomonidan amalga oshirilishi lozim edi. Qo'zg'olon **1825-yilning 14-dekabr** kuni bosh-

landi, biroq u muvaffaqiyatsizlikka uchradi va imperatorga sodiq harbiy kuchlar tomonidan bostirildi.

Dekabristlar harakatining rahbarlaridan besh kishi, shu jumladan, P. Pestel va N. Muravyov dorga osildi, qolgan ko'pchiliklari esa Sibirga surgun qilindi. Biroq dekabristlar harakati behuda ketmadi. Ular ilgari surgan g'oyalar Rossiya jamiyatining ilg'or qatlamini uzoq vaqtgacha samoderjaviye va krepostnoylikka qarshi kurashga ilhomlantirib keldi.

Dekabristlar qo'zg'oloni bostirilgach, mamlakatda reaksiya kuchaydi. Norozilik bildirishning, erkin fikr yuritishning har qanday ko'rinishi hukumat tomonidan shafqatsiz ravishda ta'qib etildi. Ayniqsa, rus adabiyotining ilg'or vakillari qattiq quvg'in ostiga olindilar.

Krepostnoylik huquqining yemirilishi. 1853–1856-yillardagi Qrim urushida Rossiya mag'lubiyatga uchradi. Bu mag'lubiyat Rossiyaning iqtisodiy qoloqligi oqibati edi. Rossiyada krepostnoylik tuzumi allaqachon taraqqiyotning asosiy to'sig'iga aylangan edi. Shuningdek, bu mag'lubiyat krepostnoy huquq bekor qilinmas ekan, Rossiyada kapitalizm tez sur'atlar bilan taraqqiy etishi mumkin emasligini ham ko'rsatib berdi.



Imperator Aleksandr II

Mamlakatda vujudga kelgan kuchli norozilik to'liqini bostirish maqsadida imperator **Aleksandr II 1861-yil 19-fevralda** «**Krepostnoy huquqni bekor qilish to'g'risida**»gi Qonunni imzoladi.

Qonunga ko'ra, krepostnoy dehqonlar shaxsan ozod bo'ldilar. Bundan buyon dehqonlarni sotib olish, sotish yoki boshqa birovga hadya qilish taqiqlandi.

Dehqon endi pomeshikning ruxsatisiz oila qurish, mustaqil sur'atda shartnoma, savdo bitimlari tuzish, ko'chmas mulk sotib olish va uni meros qoldirish kabi huquqlarga ega bo'ldi.



1812-yilgi Fransiya – Rossiya urushida Rossiya g'alabaga erishgan.

Dekabristlar Rossiyada ikkita maxfiy jamiyat – «Janubiy jamiyat» va «Shimoliy jamiyat»ni tuzganlar.

1861-yil 19-fevralda Rossiyada «Krepostnoy huquqni bekor qilish to'g'risida»gi Qonun imzolandi.

Hukumat dehqonlarni ozod qilib, yer berishga majbur bo'ldi. Shunday qilinmasa xalq g'azabga kelishi mumkin edi. Bundan tashqari, dehqonlarning asosiy soliq to'lovchilar bo'lib qolishi ham hisobga olindi. Dehqonlarga berilgan yer chek yer deb ataldi. Hukumat pomeshikning manfaatini ham hisobga oldi. Jumladan, pomeshik o'z ixtiyoridagi yerning 1/3, cho'l hududlarda esa 1/2 qismini saqlab qolish huquqiga ega bo'ldi. Bundan tashqari, dehqon shu vaqtgacha hukumat qarorida belgilanganidan ko'proq hududdagi yerdan foydalanib kelgan bo'lsa, uning ortiqchasi pomeshikka o'tkazilar edi. Bunday yerlar «otrezok» deb atalgan.

Dehqon o'ziga berilgan yerga egalik qilish uchun «vikup» to'lashi shart edi. Biroq dehqonda «vikup» uchun pul bo'lmaganligi sababli davlat tomonidan beriladigan bo'ldi. Dehqonlar bu qarzni 49 yil davomida davlatga foizi bilan to'lab borishi shart edi.

Islohotning tarixiy ahamiyati. 1861-yilgi islohot natijasida krepostnoy huquq yemirildi. Biroq islohot dehqonlarni birdaniga ozod etmadi. Krepostnoylik asorati uzoq davom etdi. Natijada, Rossiya qishloq xo'jaligida kapitalizm juda sekinlik bilan rivojlana bordi. Shunday bo'lsa-da, islohot muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Chunonchi, dehqonlar shaxsiy erkinlik va fuqarolik huquqiga erishdilar. Iqtisodiyotda kapitalistik munosabatlarning mustahkamlanishi uchun keng imkoniyat yaratildi. Dunyoning yetakchi davlatlariga nisbatan kech bo'lsa-da, boshlangan sanoat to'ntarishi davom etdi.

Tashqi siyosat. Rossiya XIX asrda ham boshqa buyuk davlatlar qatori bosqinchilik urushlarini to'xtatmadi. Jumladan, uzoq davom etgan urushlardan so'ng, 1864-yilga kelib, butun Kavkaz Rossiya tarkibiga kiritildi. Ayni paytda O'rta Osiyoni bosib olish uchun harbiy harakatlar boshlab yuborildi.



- ◆ 1825-yil 14-dekabrda ...
- ◆ Vikup – ...
- ◆ 1853–1856-yillarda ...

- ◆ 1861-yil 19-fevralda ...
- ◆ 1864-yili ...

1867-yilda Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligining bosib olingan hududlarida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi.

1867-yilda Rossiya o‘ziga qarashli bo‘lgan Alyaskani AQSHga sotdi. Bu bilan Rossiya o‘z tashqi siyosatida tobora kuchayib borayotgan AQSHga tayanishni rejalashtirgan edi.

Madaniyat. 1800–1870-yillari Rossiya ma’naviy hayotida chuqur o‘zgarishlar yuz berdi. Aynan shu davrda Rossiya jahon madaniyatining eng yuqori o‘rinlaridan birini egalladi. Rus adabiyotining mashhur namoyandalari Aleksandr Sergeyeovich Pushkin, Lev Nikolayevich Tolstoy, Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy shu davrda ijod qildi. Ularning yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlari rus xalqining ma’naviy olamini dunyoga tanitdi. A.S. Pushkin zamonaviy rus adabiy tiliga asos soldi. Uning «Ruslan va Lyudmila», «Kavkaz asiri», «Yevgeniy Onegin», «Kapitan qizi» kabi asarlari Rossiya hayoti bilan birga, rus tilining ham butun boyligini namoyon qildi.

A.S. Pushkin ijodi rus adabiyotining keyingi rivojiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi. L.N. Tolstoyning «Bolalik», «Kazaklar», «Urush va tinchlik», F.M. Dostoyevskiyning «Jinoyat va jazo», «Telba» kabi asarlarida rus xalqining hayoti, kishilarning ichki dunyosi juda katta mahorat bilan ochib berilgan. Shuningdek, XIX asrda ijod qilgan buyuk rus shoir va yozuvchilaridan Mixail Yuryevich Lermontov, Nikolay Vasilyevich Gogol, Ivan Sergeyeovich Turgenev asarlari ham dunyoga mashhur bo‘ldi.

Bu davr rus musiqa san’ati buyuk kompozitorlar Mixail Ivanovich Glinka va Pyotr Ilich Chaykovskiy nomi bilan bog‘liq. M.I. Glinka ijodi XIX asrning birinchi yarmida rus musiqa madaniyatining eng cho‘qqisi bo‘lib, u rus mumtoz musiqasiga asos soldi. Uning eng mashhur asari «Ruslan va Lyudmila» operasi hisoblanadi. Rus musiqa san’atining keyingi rivoji M.I. Glinka ta’siri ostida shakllandi.

P.I. Chaykovskiy XIX asr rus madaniyatining yirik namoyandasi, musiqa san’atining dahosi hisoblanadi. Uning «Yevgeniy Onegin», «Uxlayotgan go‘zal», «Shelkunchik» kabi operalari hamon jahon teatrlari sahnasidan tushmay kelmoqda. Bu davr rus tasviriy san’atida Silvestr Feodosiyevich Shedin, Karl Pavlovich Bryullov va Ilya

Yefimovich Repin kabi buyuk rassomlar ijod qildi. Ular ijodida Rossiyaning boy tabiati va rus kishilarining murakkab ichki dunyosi aks ettirildi.

Rus madaniyatining yutuqlari Rossiyaga dunyoning ilg'or mamlakatlari qatoridan o'rin olish imkonini berdi.

Rossiya Yangi davrda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishganiga qaramasdan, XIX asrning 70-yillarida ham u Yevropaning eng qo'loq davlatlaridan biri bo'lib qolayotgan edi. Qoloqlikning sabablari 1861-yilgacha saqlanib qolgan krepostnoy huquq hamda kishilar-da tashabbuskorlik va tadbirkorlikka to'siq bo'layotgan qoloq siyosiy tizimning mavjudligi edi.



Vikup – krepostnoylikdan ozod bo'lgan dehqonning o'ziga berilgan yerni haq to'lash evaziga sotib olishi.

Reaksiya kuchlari – ilg'or g'oyalarni ta'qib etuvchi, eski tartiblarni saqlab qolish yoki ularni qayta tiklashga intiluvchi kuchlar.

Samoderjaviye – Rossiyada hukmdorning cheklanmagan hokimiyati.

Surgun – jazo tariqasida boshqa yerlarga jo'natish.



1. Matndan Rossiyaning iqtisodiy taraqqiyot jihatidan G'arbiy Yevropa mamlakatlariidan orqada qolganligi sabablarini aniqlang.
2. Dekabristlar harakati o'z oldiga qanday maqsadlarni qo'ygan edi?
3. Rossiyada hukm surgan reaksiya haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Rossiya hukmron doiralari nega krepostnoylik huquqini bekor qilishga majbur bo'ldilar va u qanday tartiblarda amalga oshiriladigan bo'ldi?



Ijodiy ish topshirig'i

XIX asrda Rossiya davlati taraqqiyotiga xos tarixiy jarayonlarning umumiy va farqli jihatlarini T-texnologiyasi asosida tahlil qiling va ustun shaklida daftaringizga yozing.



Internet vositasida XIX asrning 40–70-yillari oralig'ida Rossiya davlatiga virtual sayohat uyushtiring va mavzuda o'rganilgan tarixiy voqealarni tahlil qiling.

24-mavzu: 1800–1870-YILLARDA AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI

AQSH iqtisodiy taraqqiyoti. Mustaqillik yillarida AQSHda sanoat tez sur'atlar bilan rivojlanib, XIX asrning 30-yillarida sanoat inqilobi boshlandi. XIX asr o'rtalarigacha AQSH, asosan, qishloq xo'jaligiga

asoslangan mamlakat edi. Mamlakat shimolida qishloq xo'jaligining asosini fermer xo'jaligi tashkil etdi. Fermerlikning asosini yollanma mehnat tashkil qilib, ular pomeshiklarga qaram dehqonlarga nisbatan ko'proq tovar sotish va sotib olish imkoniyatiga ega edilar. Amerika qishloq xo'jaligiga xos bu xususiyatlar AQSH iqtisodiyotining tez rivojlanishiga yordam berdi.



O'rta asrlarda Amerikada nega faqat mayya, ink va kechua qabilalari o'zlarining davlatlarini barpo qilganlar?

Plantatsiya xo'jaligi. AQSHda xo'jalik yuritishning ikki tizimi uzoq vaqt davom etib keldi. Fermerlar xo'jaligi rivojlangan shimoliy shtatlarda qulchilik XIX asrning boshlaridayoq bekor qilindi. Janubiy shtatlarda esa qulchilikka asoslanuvchi plantatsiya xo'jaligi hukmronlik qilardi. Janubning tabiiy sharoiti paxta yetishtirish uchun qulay edi.

Buyuk Britaniya va AQSHda sanoatning tez rivojlanishi paxtaga bo'lgan talabni tobora oshirib bordi. Buyuk Britaniya fabrikalari AQSHdan paxta xarid qilishni ko'paytirib borganlari sari qullarni ekspluatatsiya qilish kuchaydi. Bu zulm shafqatsizligi jihatidan krepostnoylikning eng ayanchli shakllaridan ham dahshatli edi.

Ayni paytda ko'pgina oq tanli kishilar, ishchilar, fermerlar, ziyolilarning ilg'or qatlamlari qulchilikning bekor qilinishi uchun kurash olib bordilar. Shu tariqa abolitsionistlar harakati vujudga keldi.

AQSHda qulchilikka nafrat bilan qarovchi kishilar soni tobora ortib bordi. 50-yillarning oxirlarida atoqli abolitsionist, oq tanli fermer Jon Braun Virjiniyada qullar qo'zg'olonini ko'tarishga urinib ko'rdi. U Allegan tog'ida joylashib olib, bu yerdan qo'zg'olonni plantatsiyalarga yoyishni umid qilgandi. Braun tuzgan qurolli guruh 22 kishidan iborat bo'lgan. Guruhda 5 nafar qora tanli kishi ham bor edi. Yomg'irli tunda u qurol-yarog'lar saqlanadigan kichik omborni bosib olishga muvaffaq bo'ldi. So'ngra Braun qo'shni plantatsiyalardagi qullarni ozod qilish va quldorlarni garov sifatida qo'lga olish uchun o'z odamlarini yubordi.

Ammo Braun umumiy qo'zg'olon ko'tarishga muvaffaq bo'lolmadi. Tez orada hukumat qo'shini Braunning qurolli guruhini tormor etdi. Og'ir yarador bo'lgan Braun esa qamoqqa olindi va osib o'ldirishga hukm qilindi.

Quldorlar isyoni. Bu davrda AQSHda ikki partiyaviy tizim ham to'la shakllanib bo'lgan edi. Respublikachilar partiyasining xalq orasida eng obro'li arbobi Avraam Linkoln (1809–1865) edi. Linkolnning qulchilikka qarshi chiqishlarini ishchilar, fermerlar, burjuaziyaning ilg'or qismi qo'llab-quvvatladi. A. Linkoln saylov oldi kompaniyasini «O'zingizga yer olish uchun ovoz bering!» shiori ostida tashkil qilib, yerlarni fermerlarga bepul tarqatish to'g'risida qonun qabul qilishga va'da berdi.



XIX asrning 30-yillarida AQSHda sanoat inqilobi boshlandi.
XIX asrning 50-yillarining oxirlarida Jon Braun Virjiniyada qullar qo'zg'olonini ko'tarishga urinib ko'rdi.

1860-yili AQSH prezidentligi uchun bo'lgan saylovlarda Respublikachilar partiyasi vakili **Avraam Linkoln** g'alaba qozondi. Uning prezidentlikka saylanishi bilan hukumatda quldorlar hukmronligiga barham berildi. Bu esa qulchilikka qarshi kuchlarning juda katta va ayni vaqtda tinch yo'l bilan erishgan siyosiy g'alabasi edi. Ular birinchi marta hukumatda hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Janub plantatorlari saylovda mag'lubiyatga uchragan Demokratlar partiyasining asosiy tayanchi edi. Ular qonuniy yo'llar bilan qulchilikni saqlab qolishga muvaffaq bo'lolmasliklariga ishonch hosil qildilar. Shuning uchun janubiy shtatlarda qulchilikka asoslangan alohida davlat tuzishga kirishdilar va AQSH tarkibidan chiqqanliklarini, o'z prezidentiga ega bo'lgan konfederatsiyasi tuzilganligini e'lon qildilar. Shuningdek, alohida qo'shinga ham ega bo'ldilar. Shu tariqa janub plantatorlari qulchilikni saqlab qolish yo'lida milliy manfaatlarga xiyonat qildilar. Endi AQSHda fuqarolar urushi boshlanishi muqarrar bo'lib qoldi.



Avraam Linkoln

Fuqarolar urushi (1861–1865). 1861-yilning aprel oyida Shimol bilan Janub o'rtasida fuqarolar urushi boshlandi. Kuchlar nisbati jihatidan Shimol ustun edi. Fuqarolar urushi **1865-yilning aprelda** Shimolning g'alabasi bilan tugadi.

Biroq reaksiyon kuchlar yollagan qotil A. Linkolnni otib o'ldirdi. Ammo bu qotillik qulchilikni bekor qilishga to'sqinlik qila olmadi. **1865-yilning dekabr** oyida AQSHda qullik bekor qilindi.



AQSHda fuqarolar urushi

1866-yili AQSH Kongressi tomonidan konstitutsiyaga tuzatish kiritildi. Unga ko‘ra, qora tanlilarning fuqarolik va siyosiy huquqlari oq tanlilarniki bilan tenglashtirildi.



◆ 1861-yil aprelda ...

◆ Jon Braun Virjiniyada – ...

◆ 1865-yilning dekabr oyida ...

Fuqarolar urushining natijalari. Urushda Shimolning erishgan g‘alabasi katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. G‘alaba mamlakat yaxlitligini saqlab qoldi. Qulchilik bekor qilindi va «Gomstedlar to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi.

AQSHning g‘arbiy yerlarida ham qishloq xo‘jaligida kapitalizm rivojlanishi uchun imkoniyat yaratildi. G‘alaba g‘arbiy yerlarning qulchilik tarafdorlari tomonidan bosib olinishi xavfiga barham berdi. Janubda ham fermer xo‘jaligi rivojlanishi uchun keng yo‘l ochildi. Tarixiy g‘alaba sanoat to‘ntarishini tezroq tugallash va Amerika sanoatining rivojlanishi uchun sharoit yaratdi.

Amerika adabiyoti va san'ati. XIX asr boshlarida AQSHning ko'pchilik aholisi savodli bo'lgani uchun Injilni, Uilyam Shekspir, Charlz Dikens kabi ingliz yozuvchilarining asarlarini o'qirdi. Ayniqsa, Daniyel Defo asarining qahramoni Robinzon Kruzo amerikacha hayot ruhiga yaqin bo'lgani uchun milliy adabiyotning keyingi yo'nalishini belgilab berdi.

Tabiatni, mahalliy hindularni o'ziga bo'ysundirish uchun doimiy kurash – Amerika milliy adabiyotining asosiy mavzulari bo'lib qoldi. Keyinchalik **Fenimor Kuper** «Pionerlar», **German Melvill** «Mobi Dik» asarlarida shu mavzuni davom ettirdi. Eskilik bilan yangilik, eski va yangi dunyo o'rtasidagi kurash mavzusi Amerikaning **Uolt Uitmen**, **Mark Tven** kabi mashhur yozuvchilari asarlarida, **Genri Longfello** she'rlarida aks etdi.

Tasviriy san'at XVIII asrda inglizlarga taqlid qilishdan iborat bo'ldi. Bu davrdagi **Benjamin Uest**, **Jon Kopli** kabi rassomlar portret va peyzaj janrida ijod qilib, ular Yevropada mashhur bo'lishdi. 1850-yillardan boshlab, bir nechta tasviriy san'at va musiqa maktablari ochildi. Ularda Yevropa mamlakatlaridan kelgan rassom va kompozitorlar asosiy rol o'ynadi.

XIX asr AQSH uchun jadal rivojlanish asri bo'ldi. Hali asr boshlarida davlatning bir butunligini saqlab qolish uchun fuqarolar urushi olib borgan xalq asr oxiriga kelib dunyoning eng rivojlangan va kuchli davlatlaridan biriga aylandi.

Keng demokratik erkinliklar, huquq va majburiyatlar tengligi, odamlarning tadbirkorligi va tashabbuskorligi uchun yaratilgan imkoniyatlar AQSHni dunyoning eng qudratli mamlakatiga aylantirdi.



Abolitsionistlar (bekor qilish) – Amerikada qullikni bekor qilish tarafdorlari.

«Gomstedlar to'g'risida»gi Qonun – G'arbdagi bo'sh yotgan katta yer jamg'armasini fermer xo'jaligi yuritishni istagan shaxslarga bepul bo'lib berish to'g'risidagi qonun.

Konfederatsiya (ittifoq, birlashma) – aniq maqsad yoki harakatni amalga oshirish uchun birlashgan suveren davlatlar ittifoqi.

Fermer – xususiy yoki uzoq muddat ijaraga olingan yerda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanuvchi qishloq xo'jaligi tadbirkori, fermer xo'jaligi egasi.

Plantatsiya xo'jaligi – AQSHning janubida qullar mehnatiga asoslangan yirik dehqonchilik xo'jaligi.



1. AQSHda yuz bergan fuqarolar urushining sabablarini tartib bilan daftaringizga yozing.
2. Nega Shimol uchun fuqarolar urushiga kirish AQSHning ikkiga bo'linib ketishidan ustun qo'yildi?
3. Shimolning g'alabasini ta'minlashda prezident A. Linkoln qanday rol o'ynadi?
4. Shimol erishgan g'alabani tarixiy ahamiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?



Ijodiy ish topshirig'i

Mavzu matnini o'qish jarayonida uchragan sizga notanish bo'lgan so'zlarni daftaringizga yozing hamda lug'at yordamida tushunchalarni tahlil qiling.



Internet vositasida XIX asrda AQSHga virtual sayohat uyushtiring va prezident Avraam Linkoln faoliyatini tahlil qiling.

25-mavzu: LOTIN AMERIKASI XALQLARINING MILLIY-OZODLIK KURASHI

Mustaqillik uchun kurashning boshlanishi. Lotin Amerikasi mamlakatlari hamon Ispaniya va Portugaliya mustamlakalari edi. Ispaniya hukmron tabaqalari mustamlakachilik zulmini tobora kuchaytirdi. Chunonchi, Ispaniyadan yuborilgan amaldorlar, generallar va boshqa zobitlar mustamlakalarda katta boylik jamg'ardilar. Ular kreollarga mensimay qarardilar.



O'rta asrlarda qaysi xalq Janubiy Amerikada Urubamba daryosi havzasida Kusko shahriga asos soldi?

Kreollar orasida pomeshiklar, savdogarlar va ruhoniylar vakillari bor edi. Ispaniya amaldorlari kreollarni mustamlakalardagi oliy ma'muriy lavozimlarga yo'latmas, ular bilan takabburona muomala qilar edilar. Kreollar Ispaniya xazinasiga to'lanadigan og'ir soliq-lardan, mustamlakachi amaldorlarning beboshligidan va Ispaniya ma'murlari mustamlakalarning boshqa davlatlar bilan savdosini taqiqlab qo'yganligidan aziyat chekkanlar. Portugaliya mustamlakasi bo'lgan Braziliyada ham vaziyat Ispaniya mustamlakalarinikidan farq qilmas edi.

Mustamlakachilik zulmi qishloq xo'jaligi va savdoni yanada rivojlantirish uchun asosiy to'siq bo'lib qoldi. Bu omillar Ispaniyaning



XIX asrda Lotin Amerikasi

mustamlakachilik zulmiga qarshi ozodlik harakatini keltirib chiqardi. Bu harakatning asosiy maqsadi – mustaqil davlatlar tuzish edi. Kreolardan chiqqan o‘qimishli kishilar, pomeshiklar, ayniqsa, zobitlar orasida ozodlik g‘oyalari keng tarqaldi. Mustamlakalarda burjuaziya hali zaif edi.

Shu sababli kreollardan chiqqan inqilobchilar ozodlik harakatiga boshchilik qildilar. Ozodlik harakatining arboblari xalq ommasining – hindular, metis va mulatlardan chiqqan dehqonlar bilan hunarmandlarning hamda mustaqillik tufayli o‘z qismatining yengillashuviga umid bog‘lagan qora tanli qullarning ham madadiga tayandi.

Meksikada mustaqillik uchun urush. 1810-yili mustamlakalarda ommaviy qo'zg'olon boshlandi. Lotin Amerikasi xalqlarining ozodlik kurashi jarayonida ko'pgina ajoyib vatanparvarlar yetishib chiqdi.

Meksika xalqi ozodlik kurashining shonli qahramonlari **Migel Idalgo va Xose Morelos**ning nomlarini hozir ham hurmat bilan eslaydi. Qishloq ruhoniysi Idalgoni mahalliy aholi, ayniqsa, hindular sevar edi. U hindularning tillarini bilardi. 1810-yili Idalgo dehqonlarning eng kambag'al tabaqalariga mansub bo'lgan hindular bilan mulatlarni mustaqillik uchun kurashga va o'zlaridan tortib olingan yerlarni qaytarib olishga chaqirdi. Qo'zg'olon ko'targan hindu va mulatlardan butun bir qo'shin tuzildi. Idalgo quldorlarga o'zlarining hamma qullarini o'n kunlik muddatda ozod qilib yuborishni buyurdi va hindu jamoalari mustamlakachi ma'murlarga to'lab kelgan o'lponni bekor qildi.



Simon Bolivar

Ispaniya qo'shini qo'zg'olonni bostirdi. Asir olingan Idalgo esa otib o'ldirildi. Idalgoning eng yaqin safdoshi Morelos uning ishini davom ettirdi. Biroq Ispaniyaning muntazam qo'shini bu safar ham qo'zg'olonchilardan ustun keldi, Morelos ham otib tashlandi. Keyinchalik ozodlik harakatiga rahbarlikni badavlat pomeshiklar qo'lga oldilar. Meksikada mustaqillik uchun kurash davom etdi.

Nihoyat, **1821-yili Meksika mustaqillikka erishdi.** Qullik bekor qilindi. Keyinroq Meksika Respublika deb e'lon qilindi.

Venesuela mustaqilligi. Venesuelada mustaqillik urushiga **Simon Bolivar** rahbarlik qildi. U Janubiy Amerika xalqlarining eng mashhur qahramoni bo'lib qoldi. Bolivar venesuelalik badavlat kreol – pomeshik va savdogar oilasida tug'ildi. Juda yaxshi ilm olgan Bolivar Yevropa bo'ylab safar qildi.

«Ispaniya mening mamlakatimni bandi qilgan zanjirlarni parchalab tashlamagunimcha xotirjam bo'lmayman», – derdi u. Bolivar Venesuela ozodlik qo'shinini tuzdi.



1810-yilda Meksikada ommaviy qo'zg'olon boshlandi.

1821-yilda Meksika mustaqillikka erishdi.

Venesuelada mustaqillik urushiga Simon Bolivar rahbarlik qildi.


U ispan qo‘shinlariga qarshi olib borgan muvaffaqiyatli janglari uchun general unvonini va «Xaloskor» degan faxriy nomni oldi.

Bolivar faqat zamindor kreollargagina tayanib qolmay, qora tanlilar bilan hindularni ham kurashga otlantirdi. Qullik bekor etilganini e‘lon qildi va shu tariqa qora tanli qullarning bir qismini o‘z qo‘shiniga jalb etdi. Hindu dehqonlarga esa urush tamom bo‘lishi bilan oq, ular o‘z yerlariga ega bo‘lishini va‘da berdi.

Bolivar Yevropaning ilg‘or jamoatchiligiga murojaat qilib, yordam so‘raganida, uning da‘vatiga ko‘plab ko‘ngillilar hozirjavoblik bilan Lotin Amerikasi xalqlariga yordam berishga qaror qildilar va Venesuelaga yetib keldilar. Ular orasida irland, ingliz, nemis, italyan, polyak va ruslar bor edilar.

1811-yili Venesuela mustaqil deb e‘lon qilindi. Bolivar Yangi Grenadaning Ispaniyadan ozod bo‘lishiga yordam berdi va Yangi Grenada Venesuela bilan birlashdi. Birlashgan davlatga Xristofor Kolumb sharafiga **Buyuk Kolumbiya** deb nom berildi.

Bolivar Buyuk Kolumbiya prezidenti lavozimini egalladi. U hindularga solinadigan o‘lponni bekor qildi. Yirik pomeshiklarning yerlarini musodara qilish to‘g‘risidagi qonun loyihasini ishlab chiqdi.



XIX asrning boshlarida Lotin Amerikasida tashkil topgan yangi davlatlar

Ammo bu tadbir pomeshiklarning qarshiligiga duch kelib, amalga oshmay qoldi.

Bolivar Ispaniyadan ozod qilingan barcha Amerika Respublikalari konfederatsiyasini tuzishni orzu qilardi. Inqilobning eng qiyin, hal qiluvchi davrida Bolivar xalq bilan birga bo'ldi va unga fidokorona xizmat qildi. Shuning uchun ham u yirik pomeshiklarga yoqmadi.

Ular Bolivarni jismonan yo'q qilishga qaror qildilar. Oxir-oqibatda u 1830-yili iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Bolivar afsus bilan bunday deb yozgan edi: «Inqilobga xizmat qilish – dengizni shudgor qilish bilan barobar». Lotin Amerikasi xalqlari shu paytga qadar atoqli qahramon – Amerikadagi mustamlakalarning xaloskori Bolivarni hurmat bilan eslaydilar.



- ◆ 1810-yilda ...
- ◆ 1821-yilda ...

- ◆ 1811-yilda ...
- ◆ 1830-yilda ...

Mustaqillik uchun kurashning yakunlanishi. Argentinada mustaqillik uchun qurolli kurash 1810-yili boshlandi. Kurash boshlangan 25-may sanasi tarixda Argentina xalqining milliy bayrami kuni bo'lib qoldi. Argentinani Xose San-Martin qo'mondonligidagi inqilobiy qo'shin ozod qildi va Argentina mustaqillikka erishdi.

Keyingi yillarda Paragvay, Chili va boshqa davlatlar mustaqillikka erishdilar. 1822-yili esa Braziliya Portugaliyadan mustaqil deb e'lon qilindi. Ispaniya mustamlakachiligiga qarshi o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan Yuqori Peru vatanparvarlari qo'shini Bolivarining safdoshi general Sukre boshchiligida ispan qo'shinini tor-mor etdi. Yuqori Peru Ispaniya zulmidan ozod bo'ldi. Yuqori Peru S. Bolivar sharafiga **Boliviya** deb ataldi.



Xose San-Martin

Urugvay ham mustaqil deb e'lon qilingan bo'lib, keyinroq to'la mustaqillikka erishdi. Shu tariqa Lotin Amerikasidagi mustaqillik uchun kurashlar yakunida Ispaniya hukmronligiga chek qo'yildi va bir qancha yangi mustaqil davlatlar tashkil topdi. Ispaniya faqat Kuba va Puerto-Rikoni o'z qo'lida saqlab qola oldi, xolos.

Braziliyadan tashqari barcha Lotin Amerikasi mamlakatlarida Respublika tuzumi oʻrnatildi. Lotin Amerikasidagi mustaqillik uchun kurashlar mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik kurashi hamda burjua inqiloblari ham edi.

Bu inqiloblarda mahalliy aholi Ispaniya bilan Portugaliyaning mustamlakachilik zulmidan ozod boʻldi.

Mustamlakachilik davrida yaratilgan xoʻjalik asta-sekin kapitalistik xoʻjalikka aylanib bordi. Biroq bu xoʻjalik hali ham qoʻl mehnatiga asoslangan, xomashyo eksporti va chet el investitsiyasiga qaram edi. Faqat 1860-yildan Lotin Amerikasi mamlakatlarida iqtisodning sezilarli oʻsishi kuzatiladi. Yevropa davlatlari kapital, texnika kiritib, xoʻjalikning rivojlanishiga sarmoya sarflay boshladi. Aholi, asosan, emigratsiya hisobiga jadal oʻsdi. Yirik shaharlar – sanoat va madaniyat markazlari paydo boʻldi. Jamiyatda industrial sivilizatsiya belgilari yaqqol koʻrina boshladi.



Kreollar – Lotin Amerikasiga dastlab koʻchib kelgan ispan va portugallarning avlodlari.

Lotin Amerikasi – bu aholisining koʻpchiligi soʻzlashadigan ispan va portugal tillari lotin tili negizida tashkil topgan mamlakat. Shu sababli ushbu atama Janubiy va Markaziy Amerika mavzesiga nisbatan qoʻllaniladi.

Metis – Amerikada oq tanli aholiga mansub kishilar bilan hindular oʻrtasidagi nikohdan tugʻilgan avlod.

Mulat – oq tanli va qora tanli kishilar oʻrtasidagi nikohdan tugʻilgan avlod.



1. Lotin Amerikasi qay tariqa mustamlakaga aylangan edi?
2. Lotin Amerikasi mamlakatlarining milliy-ozodlik kurashi va uning natijalari haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Mustaqillik yoʻlidagi urushlar natijasida tashkil topgan milliy davlatlarning roʻyxatini tuzing. Ularni xaritadan toping.
4. Bolivarining taqdiri nima bilan tugadi?



Ijodiy ish topshirigʻi

Konseptual jadval asosida Lotin Amerikasi davlatlarining oʻziga xos jihatlari tahlil qiling.



Internet vositasida XIX asrda Lotin Amerikasi mamlakatlariga virtual sayohat uyushtiring. Xalq qahramonlari: Idalgo, Morelos, Simon Bolivar, Xose San-Martin, Sukre faoliyatini tahlil qiling va rangli klaster tayyorlang.



V BOB. 1800–1870-YILLARDA OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI

26-mavzu: 1800–1870-YILLARDA HINDISTON

Buyuk Britaniya mustamlakachilik tartibi. Buyuk Britaniya hukmron tabaqalari Yangi asrda ham Hindistonni butunlay o'z mustamlakalariga aylantirish siyosatini davom ettirdilar. Shu maqsadda, hukumat «Hindiston ishlari bo'yicha nazorat kengashi» tashkil etdi.

Bu kengash Buyuk Britaniyaning Hindistondagi mustamlakachilik siyosatining yo'nalishlarini belgilab borardi.



Qaysi Dehli sultoni qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikni yuksaltirgani, oqilona boshqaruvi tufayli «xalq homiysi» nomini olgan?

Shuningdek, Buyuk Britaniya parlamenti Hindistonni boshqarish to'g'risida qonun qabul qildi. Unga ko'ra, «Ost-Indiya» kompaniyasi-ning Kalkutta shahridagi gubernatori Buyuk Britaniyaning Hindiston-
dagi barcha mustamlakalari general-gubernatori etib tayinlandi. Shu
tariqa kompaniya amalda Hindistonni boshqaruvchi mustamlakachi
ma'muriyat apparatiga aylantirildi.

Buyuk Britaniya to'qimachilik sanoati mahsulotlarining Hindiston-
da sotilishi mahalliy to'qimachilik hunarmandlarini xonavayron qildi.
Chunki ularning mahsuloti sifat jihatidan Buyuk Britaniya tovarlari
bilan raqobat qila olmasdi. Oqibatda, Hindistonning o'n minglab to'-
quvchilari ochlikka mahkum etildi.

«Ost-Indiya» kompaniyasi katta harbiy kuchga tayanar edi. U
hindlarning o'zidan ham yollanma qo'shin tuzdi. Bu qo'shin askari
sipohiy deb atalardi. Qo'shinga ingliz zobitlari qo'mondonlik qili-
shardi.

Hindistonda faqat shu qo'shingina hindlarning birdan bir uyush-
gan tashkiloti edi, xolos. Kompaniya sipohiylarning Buyuk Britaniya-
ga so'zsiz itoat etib, xizmat qilishini istardi. Mustamlakachilar
mahalliy aholining milliy his-tuyg'ularini hisobga olmasdilar.

Oqibatda, mana shu yagona uyushgan, sipohiylardan iborat harbiy
kuch orasida ham mustamlakachilik tartiblaridan norozilik tobora ku-
chayib bordi.

Sipohiyar qo'zg'oloni. Sipohiyar qo'zg'olonining boshlanishiga
bevosita turtki bo'lgan sabab qo'shinda patron bilan o'qlanadigan mil-
tiqning joriy etilishi bo'ldi. Yangi patronning usti yog'langan qog'oz
bilan qoplangan bo'lib, miltiqni o'qlashdan oldin qalin qog'ozni tish
bilan yirtib tashlash kerak edi. Sipohiyar orasida qog'oz po'stloq
ustiga surtilgan yog' sigir va cho'chqa yog'ining aralashmasidan tay-
yorlangan, degan gap tarqalib ketdi.



Hindistonni butunlay o'z mustamlakasiga aylantirish maqsadida, ingliz
hukumati «Hindiston ishlari bo'yicha nazorat kengashi»ni tashkil etdi.

«**Ost-Indiya**» kompaniyasining yollanma qo'shini – sipohiyar hindlarning
birdan bir uyushgan tashkiloti edi.

Hinduiylik dinida sigir muqaddas hisoblanadi va uning go'shti
iste'mol qilinmaydi. Hind sipohiyi sigir yog'i surtilgan patronni tishi
bilan tishlashni o'z dinining qattiq tahqirlanishi, musulmon sipohiyi



Sipohiyalar qo'zg'oloni

esa cho'chqa yog'i surtilgan patronni tishi bilan tishlash islom dinining ongli ravishda taqdiranishi (islomda cho'chqa go'shti harom hisoblanadi) deb qabul qildi.

Oqibatda, ular yangi patronni olishdan bosh tortdilar. Oxiri, bu hodisa qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keldi.

Qo'zg'olon 1857-yili boshlandi. Sipohiyalar tez orada Dehli shahrini egalladilar. Ular shoh saroyiga bostirib kirishdi, Bahodirshoh II hind xalqini mustamlakachilarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga chorlovchi chaqiriqni imzolashga majbur bo'ldi.

Qo'zg'olonning bostirilishi. Buyuk Britaniya Hindistonga qo'shimcha harbiy kuchlar yuborishga majbur bo'ldi. Shundan so'ng harbiy kuch ustunligi Buyuk Britaniya bosqinchilari tomoniga o'tdi.

Britaniya qo'shini qo'zg'olonchilar egallagan shaharlarni qamal qilib, ularni shturm bilan egalladilar. Aholi o'zini qahramonona himoya qildi. Janglar ko'chalarda olib borildi. Mustamlakachilar to'plarni fillarga ortib, Dehliga olib kirdilar va bu tadbir jang taqdirini hal qildi.

Qo'zg'olonni bostirish paytida dahshatli vahshiyliklar qilindi. Buyuk Britaniya askarlari xotin-qizlar, bolalar va keksalarni ayashmadi. Asir tushganlarni bir joyga to'plangan olomon oldida to'p og'ziga bog'lardilar va to'pdan o'q otib, parcha-parcha qilib tashlardilar.

1858-yili Hindiston Buyuk Britaniya mulki deb e'lon qilindi. Qo'zg'olonchilar tor-mor keltirilgan bo'lsa-da, mustamlakachilar ba'zi islohotlarni o'tkazishga majbur bo'ldilar. Chunonchi, yer egalarning soliqlarni oshirishi taqiqlab qo'yildi. Mahalliy roja (knyaz)larning o'z yerlariga egalik huquqi daxlsiz deb e'lon qilindi. «Ost-Indiya» kompaniyasi esa tugatildi. Hindistonni boshqarish Britaniya ma'murlari qo'liga o'tdi.



- ◆ Sipohiyar qo'zg'olonining sabablari ...
- ◆ 1857-yili ...
- ◆ 1858-yili ...

Hindistonda ziyolilar qatlamining shakllanishi. Buyuk Britaniya hukumati qo'zg'olondan zarur xulosalar chiqardi. Jumladan, hindlarning ilm olishlariga yo'l ochdi. Maktab, kollej va boshqa o'quv yurtlari ta'sis etildi. Hindlar Yevropa davlatlari universitetlarida ham ta'lim olish imkoniga ega bo'ldilar. Shu tariqa mahalliy ziyolilar qatlami shakllana bordi.

Yevropacha ma'lumotga ega bo'lgan hindlar davlat xizmatiga qabul qilina boshlandi. Ular orqali ingliz tilining tarqalishi yanada kengaya bordi. Ingliz tilini o'rgangan va Britaniyada ta'lim olgan yoshlar orqali hind jamiyatiga Yevropaning ilg'or g'oyalari kirib kela boshladi.

Shunday qilib, XIX asrning 70-yillarigacha Hindistonning iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Sekinlik bilan bo'lsa-da, kapitalizm rivojlandi. Milliy-ozodlik harakati paydo bo'lib, ingliz mustamlaka hukmronligiga qarshi kurash kuchaydi.



Sipohiy (jangchi) – Buyuk Britaniya zobitlari rahbarlik qilgan hindlardan tuzilgan yollanma qo'shin.



1. *Hindistonda o'rnatilgan Buyuk Britaniya mustamlakachilik tartiblari haqida nimalarni bilib oldingiz?*
2. *Mustamlakachilar Hindistonni qay tariqa boshqardilar?*

3. *Sipohiyalar qo'zg'olonining sabablarini tushuntirib bering.*
4. *Buyuk Britaniya hukumati qo'zg'olonni bostirish uchun qanday choralar ko'rdi va qo'zg'olonning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat edi?*



Ijodiy ish topshirig'i

Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanidan «Agra. Yulduzlar girdobi» qismini o'qing va «Boburiylarning Hindiston tarixida tutgan o'rni» mavzusi bilan bog'lab, daftaringizga esse yozing.

27-mavzu: 1800–1870-YILLARDA XITOIY

Chin (Sin) imperiyasining zaiflashuvi. XVIII asr oxirlariga kelib, imperiyaning istilochilik qudrati zaiflashdi. Iqtisodiy turg'unlik va mamlakat aholisining asosiy qismini tashkil etuvchi dehqonlarning qashshoqlashuvi ularni qo'zg'olon ko'tarishga majbur etdi.



O'rta asrlarda Xitoyda qaysi sulolalar hukm surgan?

Shu tariqa Xitoy ichki ziddiyatlar iskanjasida qoldi. Hukmron sulola umri tugayotgan tuzumni butun choralar bilan saqlab qolishga urindi. Ular barcha qarshiliklarni shafqatsizlik bilan bostirdilar. Bu davrda Xitoyga Buyuk Britaniya va Fransiya savdogarlarining kirib kelishi kuchaydi. Ularning faol harakatlari Xitoy hukumatini xavotirga solib qo'ydi. Chet elliklarning mamlakatga ko'plab kirib kelishining oldini olish maqsadida imperator 1757-yili Xitoy bandargohlarini tashqi savdo uchun yopiq deb e'lon qildi. «Yopiq eshiklar» deb nom olgan bu siyosat Xitoyni tashqi dunyodan ajratib qo'yishga qaratildi.

Tashqi savdo imperator amaldorlari nazorati ostida faqat Guanchjou porti orqaligina olib boriladigan bo'ldi. Xitoyning o'zini o'zi yakkalab qo'yish siyosati feodal tartiblarining saqlanishiga xizmat qildi. Uning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga katta zarar yetkazdi. Imperator ma'murlari fan va texnika sohasida boshqa xalqlarning yutuqlarini rad etdilar. Mamlakat qoloqlik botqog'iga botib qoldi.

Shunday bir sharoitda Buyuk Britaniya hukumati Xitoyni o'z savdogarlari uchun ochishga bor imkoniyati bilan urindi. Chin imperatorining qaysarligini sindirish uchun unga bir bahona kerak edi.

Birinchi afyun urushi. Buyuk Britaniya savdogarlari Hindistondan g'ayriqonuniy ravishda Xitoyga afyun (qora dori) kirita boshladilar. Mahalliy Xitoy ma'murlari afyun ortilgan karvonlarni musodara qilganiga javoban Britaniya hukumati afyun va ingliz tovarlarini olib kirishni qonunlashtirish uchun 1840-yili Xitoyga qarshi urush boshladi. Urush tarixga «Birinchi afyun urushi» nomi bilan kirgan. Bu urush 1842-yilgacha davom etdi. Urushda Xitoy iqtisodiy va harbiy texnika jihatidan qoloqligi tufayli mag'lubiyatga uchradi.



Afyun urushi. Karikatura

Urush yakunida Buyuk Britaniya Gonkong orolini bosib oldi va Xitoyni chet el savdogarlari uchun bir nechta portni ochib qo'yish haqidagi shartnomani imzolashga majbur etdi.

Lekin Xitoy afyun olib kirilishining qonuniy ekanligini tan olmadi.



- ◆ 1840-yili ...
- ◆ 1856-yili...

- ◆ Afyun urushlari – bu ...
- ◆ Xun Syutsyuan – bu ...

Ikkinchi afyun urushi. 1856–1860-yillari Ikkinchi afyun urushi ro'y berdi. Bu safar Xitoy Buyuk Britaniya va Fransiyaning birlashgan qo'shinlaridan qaqshatqich zarbaga uchradi. Ular Pekin bo'sag'alari-da juda boy xazinalarga ega bo'lgan imperatorning yozgi saroyini taladilar va vayron qildilar. Mustamlakachilar Xitoyni yangi, teng bo'lmagan shartnomalar tuzishga majbur etdilar. Chet elliklarga yana boshqa portlar orqali ham savdo olib borishga ruxsat etildi va yangi imtiyozlar berildi. Ayni paytda ingliz va fransuz fuqarolari Xitoy hududida Xitoy qonunlari va sudiga bo'ysunishdan ozod qilindi. Agar ular jinoyat qilsalar, ularni tegishli mamlakatning elchisi o'sha mamlakatning qonunlariga binoan sud qilardi. Dengiz savdosida ustunlikni egallagan Buyuk Britaniya Xitoyda hammadan ko'proq imtiyozga ega bo'lib oldi. Dengiz sohilidagi katta shaharlarda vujudga keltirilgan maxsus kvartallarda faqat ajnabiylar yashashar, Xitoy ma'murlari esa bu yerlarga kira olmas edilar.

Dehqonlar qo'zg'oloni va Taypinlar davlati (1850–1864). Hukumatning taslimchilik siyosati oqibatida Xitoyning Yevropa davlatlari yarimmustamlakasiga aylanib borishi hamda feodal zulmning ku-



Xitoyda 1854-yilgi taypinlar qo'zg'oloni

chayishi xalq ommasining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Oqibatda, dehqonlar qo'zg'olon ko'tarishga majbur bo'ldilar. Bu qo'zg'olon 1850-yilda mamlakat janubida boshlandi. Chin sulolasi va feodallarga qarshi kurash mustamlakachilarga qarshi kurash bilan qo'shib ketdi.

Qo'zg'olonga dehqonning o'g'li, maktab o'qituvchisi Xun Syutsyuan boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar Yanszi viloyatida «Samoviy mo'l-ko'lchilik davlati» («Taypin tyango») barpo etdilar. Uning mar-kazi Nankin shahri bo'ldi. Xun Syutsyuan fikricha, bunday davlatlarda dehqonlar jamoa bo'lib yashashlari, jamoada «hech bir narsada teng-sizlik bo'lmasligi, hammaning to'q va kiyimi but bo'lishi uchun yerga ega bo'lgan holda unga birgalikda ishlov berish, oziq-ovqatni birga-likda tanovul qilish, kiyim-kechakni baravar taqsimlash, pulni birga-likda sarflash lozim» edi. Aholi turmushi harbiy tartib asosida qurildi. Har bir oilaning qo'shinga bitta askar yetkazib berishi belgilab qo'yildi. Harbiy qism boshlig'i ayni paytda qism joylashgan hududda davlat

hokimiyatini amalga oshirardi. Barcha erkaklar bitta mehnat lageriga, ayollar va bolalar boshqa yerga joylashtirildi.



Birinchi afyun urushi 1840–1842-yillarda bo‘lib o‘tdi.

Taypinlar davlati 1850–1864-yillar oralig‘ida mavjud bo‘ldi.

1757-yili Xitoy imperatori bandargohlarini tashqi savdo uchun yopiq deb e‘lon qildi.

Taypinlar mag‘lubiyati. Qo‘zg‘olon rahbarlarining orzu-umidlari puch xayol edi, xolos. Ularning yerni oilaga oila a‘zolari soniga qarab teng bo‘lib berish haqidagi rejalari qo‘zg‘olonda ishtirok etayotgan mulkdor tabaqalarni qo‘zg‘olondan uzoqlashtirdi. Bu hol taypinlar rahbarlari orasida nizo kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Yer ololmagan dehqonlar esa umidsizlikka tusha boshladilar. Bu esa davlat ma‘murlariga taypinlarni tor-mor keltirishda yordam berdi. Hukumat kuch to‘plab, hujumga o‘tdi. Unga Buyuk Britaniya, Fransiya va Amerika Qo‘shma Shtatlari yordam ko‘rsatdilar. Buyuk davlatlar Xitoyda inqirozga yuz tutgan chin sulolasi hukmronligi saqlanib qolishidan manfaatdor edilar. 1864-yili hukumat qo‘shinlari qo‘zg‘olon rahbarlari joylashgan Nankin shahrini ishg‘ol qildilar. Xun Syutsyuan o‘z joniga qasd qildi. Taypinlar qo‘zg‘oloni bostirilganidan keyin chet el mustamlakachilari chin sulolasini qo‘llab-quvvatlashni davom ettirdilar va uning yangi-yangi yon berishlariga erishdilar.

XIX asrning boshlarida hali buyuk davlat sanalgan Xitoy asr o‘rtalariga kelib, G‘arb davlatlari, so‘ngra esa AQSH, Rossiya va Yaponiyaning ham mustamlakachilik manfaatlari kesishgan eng dolzarb hududga aylandi. Xitoyning iqtisodiy va harbiy qoloqligi uning o‘z-o‘zicha saqlanib qolayotgan buyuk davlat maqomiga qaramasdan, uni G‘arb davlatlarining yarimmustamlakasiga aylantirdi.



Afyun (abiyun) – mudratuvchi, uxlatuvchi so‘zidan kelib chiqqan, kuchli giyohvand modda.



1. Xitoy qay tariqa buyuk davlatlar asoratiga tushib bordi?
2. «Yopiq eshiklar» siyosatidan ko‘zlangan maqsad nima edi va u qanday oqibat-larga olib keldi?
3. Xitoyni chet el kapitali uchun ochishda afyun urushlari qanday rol o‘ynadi?
4. Taypinlar qo‘zg‘oloni va uning mag‘lubiyati sabablari haqida nimalarni bilib oldingiz?



Ijodiy ish topshirig'i

Venn diagrammasi yordamida Xitoyda bo'lib o'tgan Birinchi va Ikkinchi afyun urushlarining umumiy va farqli jihatlarini tahlil qiling va daftaringizga yozing.



Internet vositasida *XIX asrda Xitoy davlatiga* virtual sayohat uyushtiring va Xun Syutsyuan faoliyatini tahlil qiling.

28-mavzu: 1800–1870-YILLARDA YAPONIYA

Yaponiyaning kuch bilan «ochilishi». XVI asrdayoq Yaponiyada xristian dinining tarqalishi taqiqlangan edi. Hukmdorlar xristian dinini yapon xalqi milliy an'analarini buzuvchi, xristian missionerlarini bosqinchilarning dastlabki guruhi deb hisoblaganlar. Shu tufayli XVII asrda Yaponiya hukmdorlari mamlakatni chet elliklar uchun yopib qo'ydilar va mamlakatdan barcha yevropaliklarni quvib yubordilar.



Syogun hokimiyati Yaponiyada qay tariqa o'rnatilganligini eslang.

Syogun farmonida shunday deyilgan edi: «Shu davrdan boshlab, Yaponiyaga chet ellardan hech kim, hatto elchilar ham kiritilmaydi. O'lim xavfi ham bu farmonni bekor qila olmasligi lozim».

Shu tariqa yillar ketidan yillar o'taverdi. Va nihoyat, 1854-yili AQSH harbiy-dengiz floti Yaponiyani ochilishga majbur etdi. Shu yili AQSH bilan Yaponiya o'rtasida «Tinchlik va do'stlik to'g'risida»gi Shartnoma imzolandi. Unga ko'ra, Yaponiya AQSHga ikkita portini ochdi va AQSH konsulini qabul qildi. AQSHdan so'ng Yaponiyaga Yevropa davlatlari ham kirib kela boshladilar. Ularning maqsadlari Yaponiya bozorlarini egallash edi.

1858-yili amerikaliklarga yana bir nechta port ochib qo'yildi. Yaponiyadagi AQSH fuqarolariga eksterritoriallik huquqi berildi. Ayni paytda AQSH tovarlariga juda past boj to'lovlari belgilandi. Tez orada xuddi shu mazmundagi shartnomalar Yevropa davlatlari bilan ham imzolandi. Aslida bu shartnomalar Yaponiyani kamsituvchi, teng bo'lmagan shartnomalar bo'lib, harbiy jihatdan qudratli davlatlarga yon bermaslikning iloji yo'q edi. Shu tariqa Yaponiyaning siyosiy va iqtisodiy yopiqlik davri tugadi.

«Ma'rifatli boshqaruv» davrining boshlanishi. Chet el davlatlari uchun «ochilish» Yaponiya iqtisodiga ham salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Chunki Yaponiya bozorlarining chet el tovarlari bilan to'ldirilishi bu yerdagi manufaktura va hunarmandchilik ishlab chiqarishiga katta zarba berdi. Natijada, chet elliklarni mamlakatdan quvib chiqarishni talab qiluvchilar harakati kuchaydi.

Ayni paytda samuraylarning savodxon qismi va ziyolilar Yaponiya chet elliklar uchun yopiq bo'lgan yillarda mamlakat taraqqiyoti AQSH va G'arbiy Yevropa davlatlaridan orqada qolganligini yaxshi tushunganlar. Shuning uchun ular chuqur islohotlar o'tkazish yo'li bilan Yaponiyani zamonaviy davlatga aylantirish haqida o'ylay boshlaganlar.

Imperator tarafdorlari Yaponiyani modernizatsiya qilish uchun kurashuvchilar harakatidan syogun hokimiyatini tugatish va imperator hokimiyatini qayta tiklash uchun foydalanishga qaror qildilar.

Shu tariqa mamlakatning kuch bilan ochilishi va syogun hukumatining chet davlatlar bilan imzolagan teng bo'lmagan shartnomalari



Yaponlarda sholi oqlash jarayoni

mamlakatda fuqarolar urushi boshlanishiga turtki bo'ldi. Syogun hokimiyatini ag'darish uchun ommaviy harakatning asosiy kuchini samuraylar tashkil etdi. Ularga qishloq va shaharlarning boy hamda o'rta tabaqalari qo'shilishdi. Fuqarolar urushi natijasida syogun hokimiyati ag'darildi.

1867-yili tokugava sulolasining oxirgi syoguni **imperator Mutsuxitoning** foydasiga oliy hokimiyatdan voz kechdi. Shu yili unga **imperator Meydzi** («ma'rifatli boshqaruv») nomi bilan toj kiydirildi.



Imperator Meydzi

Meydzi islohotlarining boshlanishi.

Yaponiya uchun modernizatsiya davri boshlandi. Hukumat o'z oldiga milliy an'analardan voz kechmagan, mustaqillikni to'la saqlab qolgan holda G'arb namunasida Yaponiyani zamonaviylashtirish vazifasini qo'ydi. Dastlab agrar islohot o'tkazildi. Bu islohot yerni sotish va sotib olishga, uni xususiy mulkka aylantirishga ruxsat berdi. Natijada,

asrlar davomida katta yer egalari uchun mehnat qilib kelgan dehqonlar chek yerga ega bo'ldilar. Shuningdek, yer uchun katta soliq ham belgilab qo'yildi.

Bu soliq qiymati hosildan olinadigan daromad hajmining 50 foiziga teng edi. Shuning uchun ham islohotdan 10 yil o'tgach, yer olgan dehqonlarning atigi 1/3 qismi o'zlariga berilgan yerni qo'llarida saqlab qola oldilar. Qolganlari esa ijarachilarga aylandilar. Shunday bo'lishiga qaramay, islohot qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlarning rivojlanishini ta'minladi.

Ma'muriy sohada o'tkazilgan islohot mahalliy knyazlar hokimiyatini tugatdi. Knyazlar qudratini sindirish uchun dastlab ular yerlarining bir qismi musodara qilindi. So'ng knyazlar boshqaruv huquqidan ham mahrum etildi. Joylarda hokimiyat imperator tayinlaydigan gubernatorlar qo'liga o'tdi.



1854-yili AQSH harbiy-dengiz floti Yaponiyani ochilishga majbur qildi.

1858-yili Yaponiyada amerikaliklarga yana bir nechta port ochib qo'yildi.

1867-yili tokugava sulolasining oxirgi syoguni imperator Mutsuxitoning foydasiga oliy hokimiyatdan voz kechdi.

Harbiy islohotga ko'ra, Yaponiyada umumiy harbiy majburiyat joriy etildi. Samuraylar avvalgi qiyofasini yo'qotdi. Endi ular doimiy

harbiy xizmatda bo'lish imtiyozidan mahrum bo'ldilar. Yevropacha shakldagi yangi qo'shinni tuzish boshlandi.

Fransiyadan harbiy mutaxassislar taklif etildi. Qo'shin Yevropadan sotib olingan zamonaviy qurollar bilan qayta qurollantirildi. Garchand qo'shin yevropacha andoza asosida tuzilgan bo'lsa-da, uning mafkurasi yaponcha bo'lib qolaverdi. Chunonchi, qurolli kuchlarda xizmat qiluvchilar ongiga o'z davlatining manfaatlariga sodiqlik, imperatorga muhabbat va o'limni nazar-pisand qilmaslik g'oyalari izchillik bilan singdirildi. Bu xususiyatlar «yaponcha milliy ruh»ning qirralari, belgilari deb hisoblandi.

Bundan tashqari, yaponlar ongiga Yaponiyaning quyosh xudosi Amaterasu xohishiga ko'ra paydo bo'lganligi, shuning uchun ham bu davlat Osmon va Yer kabi abadiy mavjudligi, imperatorga xudo Amaterasudek mehribonlik xos ekanligi, uning hech qachon nohaq bo'lishi mumkin emasligi ta'kidlandi. Imperatorga sodiqlik vatanparvarlikning oliy namunasi ekanligi, yaponlarning boshqalardan ustunligi, millatning ulug' vazifasi kabi g'oyalar ham undan-da kam bo'lmagan sabr-bardosh bilan singdirila borildi. Ayni paytda G'arb davlatlari siquviga qarshi turmoq uchun barcha Osiyo davlatlari Yaponiya imperatori hokimiyati ostiga birlashishi lozimligi haqidagi g'oyalar ham esdan chiqarilmadi.

Bu g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishda ibodatxona, qo'shin va maktablar faoliyatiga katta e'tibor berildi. Bu g'oyalar kelgusida Yaponiyaning Osiyo qit'asida olib borgan keng ko'lamlı bosqinchilik urushlarini mafkuraviy jihatdan tayyorlash jarayonida muhim rol o'ynadi.



◆ 1854-yilda ...

◆ Amaterasu – bu ...

◆ 1867-yil ...

◆ Yaponlar ongiga ... sabr-bardosh bilan singdirila borildi.

Iqtisodiy taraqqiyotning yangi xususiyatlari. Meydzi islohotlari mamlakatda feodal tarqoqlikka chek qo'ydi. Natijada, yagona yapon ichki bozori vujudga keldi. Mamlakatda yagona pul birligi – iyena joriy etildi. Hukumat ishlab chiqarishni sanoatlashtirish masalasiga Yaponiyani uning ichki ishlariga chet davlatlar aralashuvi xavfidan himoya qiluvchi asosiy omil deb qaradi. Shuning uchun ham davlat sanoat korxonalari qurilishlariga homiylik qildi. Asosiy sanoat korxonalari davlat mablag'i hisobiga qurildi, keyinchalik ular imtiyozli

asoslarda turli firmalarga sotildi yoki ijaraga berildi. Davlat tadbirkorlikni har tomonlama rag‘batlantirdi va qo‘llab-quvvatladi. Meydzi islohotlari tarixga «Meydzi inqilobi» nomi bilan kirgan.

XIX asr, ayniqsa, uning ikkinchi yarmi Yaponiyada kapitalizmning shiddatli rivojlanish davri bo‘ldi. U Meydzi inqilobidan so‘ng an’anaviy sivilizatsiya mamlakatlari ichida birinchi bo‘lib industrial taraqqiyot yo‘liga kirdi, kapitalistik taraqqiyot uchun sharoit yaratildi, konstitutsiya qabul qildi, siyosiy partiyalar paydo bo‘la boshladi, huquqiy davlatning belgilari namoyon bo‘ldi.



Modernizatsiya – zamonaviylashtirish.

Eksterritorial huquq – chet el fuqarolarining shaxsi, uy-joyi va mol-mulki daxlsizligi hamda mahalliy davlat sudining ularni sud qila olmasligi.



1. Nima sababdan AQSH va Yevropa davlatlari uchun Yaponiyani «ochilish»ga majbur etish zarur edi?
2. Yaponiyada syogun hokimiyati qay tariqa ag‘darildi?
3. Imperator Musuxito o‘tkazgan islohotlar haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Meydzi islohotlarining Yaponiya taraqqiyotidagi o‘rniga baho bering.



Ijodiy ish topshirig‘i

Yaponlar ongiga sabr-bardosh bilan singdirilib borilgan g‘oyalarni tahlil qiling va daftaringizga yozing. Zamonaviy Yaponiya rivojlanishida «Yaponcha milliy ruhning qirralari» mavzusida esse yozing.



Internet vositasida *XIX asrda Yaponiya davlatiga* virtual sayohat uyushtiring va Yaponiya modernizatsiyasining belgilarini ustun holatga keltirib, daftaringizga yozing.



Mavzuga aloqador «Syogun» badiiy filmini ko‘ring va xulosa chiqaring.

29-mavzu: 1800–1870-YILLARDA KOREYA

XIX asr boshlarida hokimiyatdan siqib chiqarilgan asilzodalar hukmron guruhga qarshi jangga hozirlanar edi. Li hukmron sulolasiga qarshi boy zamindor Xon Gyon Ne boshchiligidagi eng yirik qurolli qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tdi. Ular dastlab erishgan bir qator muvaffaqiyatlariga qaramasdan, oxir-oqibatda mag‘lubiyatga uchrab, shafqatsiz jazolandi. Asirga olingan Xon Gyon Ne qatl etildi. Isyonning

bostirilishi mamlakatda noroziliklarni to'xtata olmadi. 1813-yili Jejudo orolida dehqonlar va baliqchilarning qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. Keyin bir qator qurg'oqchilik yillari keldi, ularda ochlikdan va kasalliklardan ko'plab odamlar qirilib ketdi.



Li Son Ge qachon li sulolasiga asos solgan edi?

Koreyani ochlik va vabo epidemiyasi qamrab oldi. Shaharlarda ochlarning bir qator isyonlari ro'y berdi.

XIX asrning 30–60-yillarida Koreya. XIX asrdan koreys jamiyatining barcha tizimlaridagi inqiroz yanada keskinlashdi. Ichki siyosiy ziddiyatlar tufayli zaiflashgan li sulolasi tanazzulga yuz tutdi. Ana shunday paytda mamlakatga Koreyani chet davlatlar uchun ochish va uni mustamlakaga aylantirishga intilayotgan kapitalistik davlatlar xavf solayotgan edi. Bu xavf dastlab yevropalik xristian missionerlarining faolligi oshganligi bilan ifodalandi.

1831-yili Rim papasi Koreya yepiskopligi tuzilganligini e'lon qildi. 1832-yili Koreya qirg'oqlari yaqinida paydo bo'lgan kema Buyuk Britaniya nomidan savdo munosabatlari o'rnatishni taklif qildi, lekin rad javobini oldi. Bu orada xristian cherkovi missionerlari vakillari Koreyaga yashirin kirib kelib, o'z faoliyatlarini olib borayotgan edilar. Ular, asosan, fransuz missionerlari edi. Bu missioner-



Suv tashuvchilar Koreya. XIX asr

larning xristian dinini qabul qilgan koreyslar bilan birga qatl etilishi Koreyaga fransuz harbiy kemalari yuborilishi uchun bahona bo'ldi. Harbiy kuchlarga tayangan fransuzlar missionerlarning o'limi uchun tovon sifatida Koreya portlarining ochilishini talab qildilar. Biroq tashrif muvaffaqiyatsiz bo'ldi – ikkita kema Koreya qirg'oqlari yaqinida sayozlikka o'tirib qoldi.

Xitoyning chet davlatlar uchun zo'rvonlik bilan «ochilishi» va manjurlarning qudratli G'arb davlatlariga taslim bo'lishi Koreyaning hukmron doiralari juda katta ta'sir ko'rsatdi. Seullik hukmdorlar mamlakatni tashqi dunyodan yana ham qattiqroq va yana ham to'laroq ajratib qo'yish yo'liga o'tdilar.



◆ 1831-yili ...

◆ 1832-yili ...

◆ Li sulolasi tanazzulining sabablari – bu ...

XIX asrning o'rtalarida Koreyadagi ichki vaziyat xalq g'azabining oshib borishi bilan xarakterlanadi. Missionerlardan biri o'z yashirin xabarida: «Kichik bir uchqun shunday yong'in keltirib chiqarishi mumkinki, uning oqibatlarini, hatto hisobga olib ham bo'lmaydi», deya yozgandi.

Ocharchilik ahvolni yanada og'irlashtirib yubordi. Dehqonlarning ko'plab qo'zg'olonlari ko'tarildi, biroq ularning hammasi hukumat tomonidan shafqatsizlik bilan bostirildi. Bu orada kapitalistik davlatlarning Koreyaga bosimi ham kuchaydi. Ayniqsa, amerikaliklar bir necha bor Koreya portlarini o'zlari uchun «ochishga» va teng bo'lmagan shartnomalar tuzishga urinib ko'rdilar.

Lekin ularning barcha urinishlari koreyslarning qattiq qarshiligiga uchradi va amalga oshmadi.

1863-yili 12 yoshli Li Sze Xvan Qirol Kojon nomi bilan taxtga o'tqazildi. Hokimiyatni vaqtincha **tevongun** (hokim) bo'lgan uning otasi Li Xa In egallab oldi. Tevongun eng muhim davlat lavozimlariga o'z odamlarini qo'yib olgan **noron** (oqsoqollar) asilzodalar partiyasining zo'rvonligiga chek qo'ydi. U, hatto dvoryan bo'lmagan qatlamlar – savdogarlar, o'ziga to'q mayda yer egalari ayrim vakillariga ham davlat xizmatiga kirish imkoniyatini yaratdi. Koreyaning ilgari hal qiluvchi ta'sirga ega bo'lgan asilzodalarning qudrati bir qadar zaiflashdi.

Oddiy kishilar to'laydigan harbiy soliq barcha qatlamlar uchun majburiy uy boshi solig'i bilan almashtirildi. Asilzodalar va oddiy

xalqni «tenglashtirish» maqsadida xalq uchun qora rangli oyoq kiyim kiyish taqiqlandi. Yangi podsholikning obro'yini oshirish uchun tevongun XVI asrda yaponlar bosqini paytida yonib ketgan Kyonbokkun saroyini tikladi.



1813-yili Jejudo orolida dehqonlar va baliqchilarning qo'zg'oloni bo'lib o'tdi.

XIX asrning o'rtalarida Koreyadagi ichki vaziyat xalq g'azabining oshib borishi bilan xarakterlanadi.

1863-yili Koreyada hokimiyatni tevongun, ya'ni hokim nomi bilan mashhur Li Xa In egalladi.

Biroq Koreya hukmron tabaqalarining zamon talablariga mos iqtisodiy islohotlarni o'tkazmaganligi, mamlakatni tashqi dunyodan ajratib qo'yganligi Koreya iqtisodiyotining nochor ahvolda qolaverishiga sabab bo'ldi.

Bu esa, oxir-oqibat, Koreyaning Yaponiya mustamlakasiga aylanib qolishiga olib keldi.

Mustamlaka yillarida iqtisodiy o'sishning yuqori darajasi ta'minlandi, hozirgi zamon koreys madaniyati shakllandi, zamonaviy sanoatning asoslari yaratildi, o'rtacha umr darajasi ikki marta oshdi, zamonaviy boshlang'ich ta'lim keng joriy qilindi. Ayni paytda mustamlaka hokimiyati tomonidan koreyslarni kamsitishga qaratilgan avtoritar siyosat olib borilishi milliy-ozodlik harakatiga sabab bo'ldi.



1. XIX asr boshlarida Koreyada yuz bergan qo'zg'olonlarning sababini tushuntirib bering.
2. Koreyaning zaiflashishida missionerlar qanday rol o'ynadi?
3. Koreyada hokimiyatni hokim Li Xa In qachon egallagan?
4. Qanday omillar Koreyaning iqtisodini nochor ahvolga solib qo'ydi?



Badiiy-tarixiy asar bilan ishlashga doir topshiriq

n.ziyouz.com saytidan Chingiz Aytmatovning «Chingizxonning oq buluti» qissasini ko'chirib olib o'qing va taassurotlaringizni daftaringizga yozing.



XIX asr Koreya davlati tarixiy jarayonlarini klaster shakliga keltiring.

30-mavzu: 1800–1870-YILLARDA USMONIYLAR IMPERIYASI

Davlat tuzumi. Usmoniylar imperiyasi soʻz yuritilayotgan davrda ham mutlaq monarxiya boʻlib, Oʻrta asrlarga xos harbiy davlat belgilari toʻla saqlanib qoldi. Davlatni huquqi hech narsa bilan cheklanmagan sulton boshqarar edi. Aynan uning zulmga asoslangan hokimiyati va yangilikni qabul qilishga mutlaqo tayyor emasligi jamiyat taraqqiyoti yoʻlidagi asosiy gʻovga aylandi. Aholining ruhoniylardan boshqa barcha davlat xizmatchilari sultonning quli hisoblangan. Toʻgʻri, mamlakatda islohotlar oʻtkazishga urinishlar ham boʻldi. Biroq ular muta-assib din arboblari va mustamlakachi chet el davlatlarining qarshiligi tufayli amalga oshmay qolaverdi.



Kichik Osiyodagi Saljuqiylar davlati qachon parchalanib ketdi?

«Sharq masalasi». XVIII asr oxiriga kelib, Yevropaning kuchli davlatlari Usmoniylar imperiyasining zaiflashib qolganligidan foydalanib, uning mustamlaka hududlariga koʻz olaytira boshladilar. Bu hududlar geografik va siyosiy jihatdan katta ahamiyatga ega, tabiiy boyliklarga, xomashyolarga boy oʻlkalar edi.

Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstriya va Rossiya hukmron doiralarning har biri bu oʻlkalardan mumkin qadar koʻproq oʻljani qoʻlga kiritishga intildilar. Yevropa davlatlarining Usmoniylar imperiyasiga qaram oʻlkalarni egallab olish uchun oʻzaro kurashi tarixga «Sharq masalasi» degan nom bilan kirgan. Buyuk Britaniya va Fransiya imperiyani oʻz taʼsirida tutishga urindilar.



Turk askarlari. XIX asr

Rossiya esa Turkiyaga qaram boʻlgan Bolqon yarimorolida mustahkam oʻrnashib olishga va Qora dengizning Bosfor hamda Dardanell boʻgʻozlarini, shuningdek, Istanbul shahrini qoʻlga kiritishga intilgan.

Sharq masalasining keskinlashuvi. Yevropaning taraqqiy etgan mamlakatlarida kapitalistik ishlab chiqarishning rivojlanishi yangi-yangi xomashyo oʻlkalari boʻlgan talabni yanada oshirib yubordi. Bu hodisa ularning Turkiya

mustamlakalari uchun kurashini yanada kuchaytirdi. Imperiya xalqlarining milliy-ozodlik kurashidan Yevropa davlatlari Turkiya ichki ishlariga aralashish quroli sifatida foydalandilar. Chunonchi, 1827-yili Londonda Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya o'rtasida Turkiyaga qaram Gretsiyaga muxtoriyat huquqi berilishini ko'zda tutuvchi bitim imzolandi.

Fransiya esa 1830-yili Jazoirni bosib oldi. Sulton hukumatining bunday ketma-ket muvaffaqiyatsizligi rasman Turkiyaga qaram Misr hukmdori Muhammad Alining bosh ko'tarishiga sabab bo'ldi.



Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstriya va Rossiya hukmron doiralarning har biri Turkiyadan mumkin qadar ko'proq o'ljani qo'lga kiritishga intildilar. **1830-yili** Fransiya Jazoirni bosib oldi.

Muhammad Ali sulton qo'shinini tor-mor etgach, Istanbul shahriga yo'l ochildi. Sultonni halokatdan Rossiya saqlab qoldi. Oxirgi maqsadi – birinchidan, Qora dengiz bo'g'ozlari va Istanbul shahrini qo'lga kiritish bo'lgan Rossiya uchun kuchli Muhammad Alidan kuchsiz sulton hokimiyati ma'qul edi.

Ikkinchidan, Muhammad Alining g'alabasi uni qo'llab-quvvatlayotgan Fransiyaning ham g'alabasiga teng edi. Bunga yo'l qo'yishni istamagan Rossiya Turkiya sultoniga o'z yordamini taklif qildi.

Rossiya flotining tazyiqi bilan Muhammad Ali o'z qo'shinini Misrga qaytarib olib ketdi. Endi Rossiya – Turkiya o'rtasida yaqinlashuv yuz bera boshladi. Bunga Buyuk Britaniya va Fransiya, tabiiyki, toqat qila olmas edi. Endi ular Muhammad Alini yanada kuchliroq qo'llab-quvvatlay boshladilar.

Muhammad Ali esa o'z hokimiyatini meros qilib qoldirish huquqini sultondan talab qildi. Bu talab yangi urush boshlanishiga bahona bo'ldi. Urush yakuniga ko'ra, 1840-yili Muhammad Ali Misr va Sudanni boshqarishni meros qilib qoldirish huquqini qo'lga kiritdi.

Imperiyaning yarimmustamlakaga aylanishi. Yevropa davlatlari Turkiya ichki ishlariga aralashishni tobora kuchaytirdilar. 1853-yili Rossiyaning Turkiyaga qaram o'lkalarda mustahkamlanib olishga urinishlari ular o'rtasidagi urushni keltirib chiqardi. Bu urush Rossiya tarixiga «**Qrim urushi**» (1853–1856) nomi bilan kirgan. Urush boshlanishi oldidan Rossiya podshosi Nikolay I sultondan Rossiyani



Qrim urushi

Turkiyaga qaram o'lkalarda yashovchi barcha pravoslav xalqlari, shuningdek, xristianlikning Falastindagi muqaddas qadamjolari ustidan homiy deb tan olishini talab qildi. Buyuk Britaniya va Fransiya Turkiya sultonini bu talabni rad etishga undadilar. Oqibatda, Rossiya – Turkiya urushi boshlandi.

Urushda Buyuk Britaniya, Fransiya va Turkiya uchlik ittifoqi g'alaba qozondi. Biroq bu g'alaba Turkiyaning Buyuk Britaniya va Fransiya qaramligini yanada kuchaytirdi. Urush natijasida 1856-yil imzolangan Parij Tinchlik shartnomasi Turkiya ustidan amalda G'arb davlatlarining «homiyligi»ni o'rnatdi. Chet elliklarga Turkiyada yer va boshqa ko'chmas mulklar sotib olishga ruxsat berildi. Xorijiy davlatlarga berilgan konsessiyalar kafolatlandi. Shu tariqa Turkiyaning yarimmustamlakaga aylanishi uchun yo'l ochildi. XIX asrning 60-yillariga kelib, mustamlakachi davlatlar Turkiyada uning siyosatini belgilashga imkon beruvchi iqtisodiy va siyosiy mavqega ega bo'lib oldilar.

Xullas, mamlakatdagi qoloq ijtimoiy va siyosiy tizim tufayli imperiya asta-sekin yemirilib bordi. Imperiya va unga qaram hu-

dudlarda mustaqillik uchun kurash avj oldi. Turkiyaning chet davlatlardan qarzi juda ko‘payib ketdi. Shu tariqa bir vaqtlar dunyoning 3 ta qit‘asida katta-katta mustamlakalarga ega bo‘lgan Turkiya endilikda Yevropaning kuchli davlatlari yarimmustamlakasiga aylandi.



- ◆ 1827-yili ...
- ◆ 1830-yili ...
- ◆ 1853-yili ...
- ◆ Rossiya – Turkiya urushi boshlanishi sababi – bu ...



Konsessiya (lotincha – ruxsat, yon berish) – davlat korxonalarini, mulkini muayyan muddatga chet el kapitaliga berish haqidagi kelishuv shartnoma.



1. Usmoniylar imperiyasining davlat tuzumi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. «Sharq masalasi» qanday masala edi va u qay tariqa vujudga kelgan?
3. «Sharq masalasi»da Yevropa davlatlari o‘rtasidagi kurashga baho bering.
4. Usmoniylar imperiyasi qay tariqa yarimmustamlakaga aylandi?



Badiiy-tarixiy asar bilan ishlashga doir topshiriq

n.ziyouz.com saytidan Jaloliddin Rumiyning «Qalb ko‘zingni och» asarini o‘qing. Mustaqil ravishda «Usmoniylar imperiyasining inqirozi sabablari shundaki, ...» mazmunida esse yozing.



Usmoniylar imperiyasi tarixiy jarayonlarini xronologiya shakliga keltiring.

31-mavzu: 1800–1870-YILLARDA ERON VA AFG‘ONISTON

Davlat tuzumi. Eron XIX asrda ham mutlaq monarxiya bo‘lib, shoh cheklanmagan huquqqa ega edi. Butun hokimiyat uning qo‘lida to‘plangan. Shoh huzurida maxfiy kengash tuzilgan bo‘lib, uning tarkibiga **sadri a‘zam, amin-ad-davla, vazir, hakimboshi** va **shayxulislom** kirardi.



Safaviylar davlati dastlab qaysi hududda tashkil etilgan edi?

Davlat viloyatlarga bo'lingan, ularni **beklarbegi** boshqargan. Taxt vorisiga Ozarbayjon ham berilgan bo'lib, uning qarorgohi Tabriz shahrida joylashgan edi.

XIX asrga kelib, Sharqda hukmronlikni o'z qo'llariga olish uchun kurash olib borayotgan Buyuk Britaniya va Fransiyaning Eronga qiziqishi kuchaydi. Kavkazda o'z hukmronligini o'rnatish uchun Rossiya bilan 1826–1828-yillari bo'lgan urushlarda Eron mag'lubiyatga uchradi va Kavkazga bo'lgan da'vosidan voz kechdi.

Eronning Buyuk Britaniya bozoriga aylanishi. Rossiya bilan urushdagi mag'lubiyat va uning oqibatlari Eron hukmron tabaqalari o'rtasida keskin norozilik keltirib chiqardi. Oqibatda, Eronning qator viloyatlarida yirik yer-mulk egalari boshchiligida shohga qarshi isyon ko'tarildi. Buyuk Britaniya Eronning og'ir ahvolidan foydalanib, uni teng bo'lmagan shartnomani imzolashga majbur etdi. Unga ko'ra, Buyuk Britaniya Eron bilan savdo-sotiq ishlarida katta imtiyozlarga ega bo'lib oldi.

Oqibatda, u Eron bozorlarini o'zining yengil sanoati mahsulotlari bilan to'ldirib tashladi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy dehqonlarni, hunarmand va savdogarlarni xonavayron qildi. Shu tariqa Eron yirik mustamlakachi Buyuk Britaniyaning sanoat mahsulotlari sotiladigan bozoriga aylanib qoldi. Bu mamlakatda pulga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi.

Natijada, davlat apparatidagi mansablarni sotish va sotib olish nihoyatda kuchaydi. Viloyat hokimlari, katta-katta yer-mulk egalari davlat xazinasiga soliq to'lamay qo'ydi. Bu omillar mamlakat mehnatkash qatlamlari orasida keskin norozilik kelib chiqishiga sabab bo'ldi va oxir-oqibat, 1848-yilda qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keldi. Bu qo'zg'olon tarixga «**Bobiylar qo'zg'oloni**» nomi bilan kirdi.



XIX asrda Eron Rossiya bilan bo'lgan urushlarda mag'lubiyatga uchradi va Kavkazorti hududlariga bo'lgan da'vosidan voz kechdi.

1848-yilda Eronda bobiyalar qo'zg'oloni boshlandi.

Bobiylar qo'zg'oloni. Qo'zg'olon shoh tuzumiga, zulmiga va yer egaligiga qarshi qaratilgan edi. Qo'zg'olon ishtirokchilari, asosan, hunarmandlar, mayda savdogarlar, shahar kambag'allari va shahar atrofida yashovchi dehqonlar edi. Qo'zg'olonda ruhoniylarning quyi tabaqasi ham qatnashdi.

Qo'zg'olonchilar bobiylik ta'limoti tarafdorlari edilar. Bu ta'limotning asoschisi sayyid Ali Muhammad bo'lib, o'ziga Bob («Haqiqat va adolat yo'liga olib chiquvchi eshik») taxallusini qabul qilgan edi. Bobiylik atamasi shu taxallusdan kelib chiqqan.

Qo'zg'olon 1850-yilning o'rtalarigacha davom etdi. Harbiy jihatdan ustun bo'lgan shoh qo'shini bobiylik qo'zg'olonini bostirdi. Ali Muhammad esa qatl etildi.

Eron – Buyuk Britaniya urushi. Buyuk Britaniya Eronning zaiflashib qolganligidan foydalanishga qaror qildi. O'rta Osiyodagi xonliklarga ta'sir o'tkazishda Hirot shahrining katta ahamiyatga ega ekanligini unutmagan Buyuk Britaniya Eronni rasman Hirotga da'vosidan voz kechishga majbur etdi. Biroq 1856-yili Eron Hirot shahrini bosib oldi. Bunga javoban Buyuk Britaniya Eronga urush e'lon qildi. Bu urushda Eron mag'lubiyatga uchradi.

1857-yili Buyuk Britaniya va Eron o'rtasida Parij Tinchlik shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Eron Hirot va Afg'onistonning boshqa hududlariga bo'lgan da'vosidan butunlay voz kechdi.



- ◆ 1826–1828-yillarda ...
- ◆ Eronda shoh huzurida maxfiy kengash tarkibi – bu ...
- ◆ Parij Tinchlik shartnomasiga ko'ra, ...

Parij Tinchlik shartnomasi Buyuk Britaniyaning Erondagi ta'siri sezilarli darajada o'sishiga xizmat qildi.

Afg'oniston. Mustaqillik uchun kurash. XVI asrdan boshlab, afg'onlar Eron safaviylariga qarshi uzoq yillar davomida kurash olib bordilar. 1709-yili Qandahor viloyatida Eron bosqinchiligiga qarshi navbatdagi qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olonga afg'onlarning gilzoiy qabilasi xoni Mir Vaysxon rahbarlik qildi. Uning harbiy qismi Qandahor shahrini egalladi.

Afg'oniston – Eron munosabatlari. Qisqa vaqt ichida Qandahor qudratli xonlikka aylandi. U 1722-yili Eron poytaxti Isfahonni ham egalladi va Mir Vaysxonning o'g'li Mir Mahmud o'zini Eron shohi deb e'lon qildi. Endi Eron mustaqillik uchun kurash boshladi. Bu kurashga Eron qo'shini qo'mondonlaridan biri Nodir Quli boshchilik qildi. Eron afg'on bosqinchilaridan to'la ozod etildi.

1736-yili Nodir Quli Nodirshoh nomi bilan Eron shohi deb e'lon qilindi. U ayni paytda katta bosqinchilik urushlari ham olib bordi. Afg'onistonni ham bo'ysundirdi. Afg'onistonni itoatda tutib turish

uchun Erondan ko‘plab jangchilarni oilalari bilan Kobul va boshqa shaharlarga ko‘chirtirib keltirdi.

Afg‘oniston davlatining tashkil topishi. 1747-yili Nodirshoh o‘ldirilgach, imperiya ham parchalandi. Afg‘oniston davlatining tashkil topishi uchun qulay sharoit tug‘ildi.



◆ 1709-yilda ...

◆ 1722-yilda ...

◆ 1736-yilda ...

◆ 1747-yilda ...

1747-yili afg‘on qabila xonlarining **jirg‘asi** (kengashi) afg‘onlarning abdali qabilasi sardori Ahmadxonni Afg‘oniston shohi deb e‘lon qildi. Ahmadshoh qisqa vaqt ichida mamlakat hududini birlashtira oldi.

Bu g‘alabalar evaziga u o‘ziga «Durri durrone» unvonini qabul qildi va abdali qabilasining nomini **durroniy** nomi bilan o‘zgartirdi.

Markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaslik harakati va bosib olingan o‘lka xalqlarining doimiy qo‘zg‘olonlari oqibatida durroniylar sulolasining hukmronligi zaiflashdi. Ahmadshohning vorislari bu ikki omilga qarshi qanchalik kurashmasinlar, ularni bartaraf eta olmadilar.

Durroniylar sulolasi hukmronligining barham topishi. Ayni paytda vorislar o‘rtasida taxt uchun kurash ham avj oldi. Bundan boshqa qabilalar xonlari foydalanishga urindilar. Chunonchi, barakzaylar yetakchisi Fathxon taxt uchun kurashda hali u vorisni, hali bu vorisni qo‘llab, davlatda bosh vazir lavozimini egallab oldi va butun davlat ishlarini amalda o‘z qo‘lida to‘plashga erishdi.

U yirik harbiy sardorlardan biri, ukasi Do‘st Muhammadxon yordamiga tayanardi. Ular Afg‘onistonning deyarli barcha yirik viloyatlari hokimlarini o‘zlariga qarashli kishilardan tayinlanishiga erishdilar. Uzoq davom etgan o‘zaro kurashlardan so‘ng 1826-yili Do‘st Muhammadxon Afg‘oniston taxtini egalladi va o‘zini amir deb e‘lon qildi.

Shu tariqa durroniylar sulolasi hukmronligi barham topdi. Mamlakatda barakzaylar sulolasi hukmronligi o‘rnatildi. Bu sulola hukmdori amir Do‘st Muhammadxon butun Afg‘onistonni yagona davlatga birlashtirish va uni kuchli davlatga aylantirishga harakat qildi.

Birinchi ingliz – afg‘on urushi (1838–1842). Afg‘oniston geografik jihatdan muhim strategik mintaqada joylashganligi uchun bu

davlat hududida Buyuk Britaniya va Rossiya manfaatlarini to'qnashdi. Buyuk Britaniya Afg'onistonni o'z ta'sir doirasiga olish maqsadida unga hujum qildi. Qisqa vaqt ichida Kobul shahrini egaladi. Taxtga durrioniylar sulolasining vakili Shuju o'tqazildi.

Biroq erksevar afg'on xalqini bo'y-sundirish oson emas edi.

Kobul aholisi qo'zg'olon ko'tardi. Bu qo'zg'olonda Do'st Muhammadxonning o'g'li Akbarshoh katta rol o'ynadi. Buyuk Britaniya qo'shini qo'mondonligi barcha harbiy qismlarini Afg'onistondan olib chiqib ketish to'g'risidagi shartnomani imzolashga majbur bo'ldi.

1842-yili Buyuk Britaniya qo'shini Afg'onistondan chiqib ketdi. Shu tariqa birinchi afg'on – ingliz urushi Buyuk Britaniya mag'lubiyati bilan tugadi. Do'st Muhammadxonning amirlik hokimiyati qayta tiklandi.



Afg'oniston Rossiya va Angliya qurshovida. Karikatura



1747-yili abdali qabilasining sardori Ahmadxon Afg'oniston shohi deb e'lon qilindi.

1826-yili Do'st Muhammadxon Afg'oniston taxtini egalladi.

1842-yili Buyuk Britaniya qo'shini Afg'onistondan chiqib ketdi.

1857-yili Buyuk Britaniya bilan Afg'oniston o'rtasida harbiy shartnoma tuzildi.

Buyuk Britaniya bilan yangi urush kelib chiqishini istamagan Do'st Muhammadxon 1855-yili ingliz – afg'on do'stlik shartnomasini imzoladi. 1857-yili Buyuk Britaniya bilan Afg'oniston o'rtasida harbiy shartnoma ham tuzildi.

Bu shartnoma Buyuk Britaniya uchun Afg'onistonni vassal davlatga aylantirish yo'lidagi birinchi qadam bo'ldi.

1863-yili Do'st Muhammadxon vafot etgach, uning o'g'illari o'rtasida taxt uchun kurash avj oldi. Afg'onistonda o'z manfaatlariga ega bo'lgan Buyuk Britaniya va Rossiya uning ichki ishlariga aralashmasligini bildirdi.

1870-yili Afg'oniston mustamlaka ham, qaram davlat ham emas edi. Biroq uning chegaralariga janubi-sharqdan Buyuk Britaniya, shimoldan esa Rossiya tobora yaqinlashib kelayotgan edi.

XIX asrda Eron kuchli milliy armiyaga, markaziy davlat apparatiga va yagona soliq tizimiga ega emasdi. Eron Rossiya va Buyuk Britaniyaning mintaqadagi bosqinchilik intilishlariga qarshilik qila olmadi.

Mamlakat ichkarisidagi islohotlarga diniy mutaassiblik va unga asoslangan davlat tuzumi, ijtimoiy institutlarning kam taraqqiy etganligi xalaqit berayotgan edi. Natijada, Eron kuchli davlatlarning yarimmustamlakasiga aylantirildi.

Buyuk Britaniyaning bir necha bor urinishlariga qaramasdan, Afg'oniston o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Ammo, ajablanarlisi shundaki, o'z mustaqilligini saqlab qolgan, kuchli davlatlarning ta'siri o'ta cheklangan Afg'oniston taraqqiyotning eng ortida qolib ketdi. U XIX asr oxirida ham qabila-urug'chilik munosabatlari va natural xo'jalik saqlanib qolgan mamlakatlardan biri edi.



Sadri a'zam – bosh vazir.

Amin ad-davla – moliya va ichki ishlar vaziri.

Hakimboshi – saroy bosh tabibi.

Durri durrin – javohirlar javohiri.

Jirg'a – kengash.



1. Eronning davlat tuzumi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Qanday omillar bobiyalar qo'zg'olonini yuzaga keltirdi?
3. Eron qay tariqa Buyuk Britaniya ta'sir doirasiga tushib qoldi?
4. Afg'onistonda durriniylar sulolasi hukmronligi qanday barham topdi?
5. Nima uchun Buyuk Britaniya Afg'onistonni bosib olishga yoki o'ziga vassal davlatga aylantirishga erisha olmadi?
6. Amir Do'st Muhammadxon Buyuk Britaniya va Rossiyaga nisbatan qanday siyosat yuritdi?



Ijodiy ish topshirig'i

Mavzuga doir asosiy tushunchalarni lug'at yordamida ingliz tiliga tarjima qiling va daftaringizda jadval ko'rinishida aks ettiring.



Internet vositasida *XIX asrda Eron va Afg'onistonga* virtual sayohat uyushtiring. Eron va Afg'oniston tarixidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlang. Daftaringizga T-texnologiyasi asosida tahlil qiling.

32-mavzu: 1800–1870-YILLARDA AFRIKA XALQLARI

Qit’adagi holat. Afrika xalqlari XIX asrda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichida yashardi. Chunonchi, Efiopiya, Misr, Tunis, Marokash, Sudan va Madagaskar kabi davlatlarda feodal monarxiya qaror topgan bo’lsa, ba’zilarida hamon ibtidoiy jamoa tuzumi saqlanib qolgan edi. Qabilalar ko’chmanchi turmush tarziga ega bo’lib, ularning kichik-kichik guruhlari o’zlari uchun qat’iy belgilangan hudud chegarasidagina ovchilik va termachilik bilan hayot kechirardi. Ular qishloq xo’jaligini, metallga ishlov berishni va metall ish qurollaridan foydalanishni bilishmasdi.



Mali davlati tarixida VIII asr, XI asr, XIII asrlarda qanday tarixiy voqealar sodir bo’lgan edi?

G’arbiy Afrikadagi **Gana** va **Mali** davlatlari eng qadimgi davlatlar hisoblanardi. Afrikada qishloq xo’jaligi taraqqiy etgan xalqlar ham yashashardi. Ular, asosan, qahva, yeryong’oq va kakao yetishtirardi.

Afrikaning bo’lib olinishi. Katta tabiiy boyliklarga ega bo’lgan Afrika Yevropaning kuchli davlatlari e’tiborini tortmay qolmadi. Yevropa davlatlarining bosqinchiligi Afrika xalqlari hayotini keskin o’zgartirib yubordi. An’anaviy savdo aloqalari uzildi. Mahalliy ishlab chiqarish vayron bo’ldi. Afrikaliklarni qul qilib sotish XIX asr o’rtalarigacha davom etdi. Buning natijasida qit’adan millionlab kishilar sotib yuborildi. Portugaliya mustamlakalari bo’lgan Angola va Mozambik eng muhim qul savdosi bazalari edi.

XIX asrdan boshlab, qit’aning ichkari qismini ham mustamlakaga aylantirish boshlandi. XIX asr oxiriga kelib, qit’a hududining 90 foizi mustamlakachilar qo’liga o’tdi. Faqat ikki davlat – **Liberiya** va **Efiopiyagina** o’z mustaqilligini saqlab qola oldi, xolos.

Afrikada mustaqil Liberiya davlati tashkil topishi. Uning tashkil topishi AQSHda qulchilikka qarshi kurash bilan bog’liq. 1816-yili AQSHda erkinlikka erishgan qora tanli qullarni Afrikaga joylashtirish harakati boshlandi. Natijada, 1821-yili Gvineya qirg’oqlaridan 13 ming km² yer maydoni sotib olindi. U yerda **Monroviya** (AQSH Prezidenti Monro nomidan olingan) manzilgohi tashkil etildi va Amerikaning sobiq qora tanli qullaridan bir qismi bu yerga joy-




Yevropalik qulfurushlar kemada afrikalik qullarni olib ketmoqda

lashtirildi. Joylashib olgan bu sobiq qullar manzilgoh hududini tobora kengaytirib bordilar.

1847-yili esa Liberiya ozod davlati tuzilganligi e'lon qilindi. Bu davlatda G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikadagi ilg'or tartib-qoidalar joriy etildi. Liberiya Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasidagi raqobatdan ustalik bilan foydalanib, o'z mustaqilligini saqlab qola oldi.

Efiopiya. XIX asrda ham Efiopiyada O'rta asr munosabatlari hukm surardi. U bir necha knyazliklar birikmasidan iborat davlat edi. Ularning har biri o'z qo'shiniga ega edi. Bu knyazliklar nomigagina markaziy hokimiyatni tan olardilar. Yevropa davlatlari ana shu omildan foydalanishga urindilar. Mamlakatni chet ellik dushmanlar bosib olish xavfi tobora kuchayib bordi.

Shunday bir sharoitda Efiopiya siyosat maydoniga kichik yer ega-sining o'g'li **Kassa** chiqdi. Kassa Efiopiyani yagona davlatga birlashtirdi va 1855-yili o'zini imperator deb e'lon qildi. U yaxshi harbiy tayyorgarlik ko'rgan qo'shin tuza oldi. Yirik feodallarni o'z qo'shiniga ega bo'lish huquqidan mahrum etdi. Mamlakatda



Afrikaning bo'lib olinishi

iqtisodiyotni yuksaltirishga qaratilgan qator islohotlar o'tkazdi. Imperator fuqarolarni o'zlari oldin shug'ullangan mehnat faoliyatini davom ettirishga chaqirdi.



Efiopiya, Misr, Tunis, Marokash, Sudan va Madagaskar kabi davlatlarda feodal monarxiya qaror topgan.

Gana va Mali davlatlari G'arbiy Afrikadagi eng qadimgi davlatlar hisoblanadi.

Afrikada ikki davlat – Liberiya va Efiopiyagina o'z mustaqilligini saqlab qolgan.

1847-yili Liberiya ozod davlati tuzildi.

Biroq uning islohotlari yirik feodallar va cherkovning qarshiligiga uchradi. Buyuk Britaniyaning aralashuvi bilan 1867-yili Kassa ho-

kimiyati agʻdarildi. Ammo Buyuk Britaniya Efiopiyada mustahkam oʻrnasha olmadi.

Efiopiya xalqining oʻzgalarga qaram boʻlmaslik yoʻlidagi irodasi Buyuk Britaniyaning harakatlarini yoʻqqa chiqardi. Shu tariqa Efiopiya ham oʻz mustaqilligini saqlab qoldi.

Janubiy Afrikaning mustamlakaga aylantirilishi. XIX asr boshlarida Buyuk Britaniya Janubiy Afrikadagi Kap koloniyasini bosib oldi. Koloniya aholisi **burlar** (*bur* – dehqon) deb atalardi. Ular fransuz, nemis va gollandlarning avlodlari edi.

Burlar endi u yerdan koʻchishga majbur boʻldilar. Ular yangi joyda ikkita davlat tuzdilar. Ulardan biri ozod Oranj Respublikasi, ikkinchisi esa Transvaal deb ataldi. Burlar mahalliy aholiga nisbatan oʻta shafqatsiz munosabatda boʻldilar.

Fransiya mustamlakalari. Misrda XVIII–XIX asrlar chegarasida mamluk jangchilari va mahalliy aholi mamlakatga bostirib kirgan Napoleon Bonapart boshchiligidagi fransuz qoʻshiniga qarshi kurashda qatnashdi. Fransuz qoʻshinlarining qolgan-qutgani taslim boʻlganidan keyin misrliklar Buyuk Britaniya qoʻshinini haydab chiqarish uchun kurashdilar.

Rasman Misr Usmoniylar imperiyasining oliy hokimiyati ostida boʻlsa-da, amalda deyarli toʻla mustaqillikni saqlab qolgan edi.

Fransiya 1830-yili Jazoirni bosib oldi. Jazoir aholisi fransuz mustamlakachilariga shiddatli qarshilik koʻrsatdi. Istilochilarga qarshi milliy-ozodlik kurashini olib bordi. Bu kurashda jazoirliklar yoʻl-boshchisi Abdulqodir alohida rol oʻynadi.

1847-yili Abdulqodir qoʻshini qurshab olindi va tor-mor etildi. Abdulqodirning oʻzi halok boʻldi. Biroq milliy-ozodlik kurashi toʻxtab qolmadi. Jazoirliklar uzoq yillar davomida istilochilarga qarshi milliy-ozodlik kurashi olib bordilar.

Marokash aholisi mamlakat ichkarisiga kirib borgan portugal, ispan va fransuz mustamlakachilariga muvaffaqiyatli ravishda qarshilik koʻrsatdi. Fransiya Hind okeanida Madagaskar orolini bosib olishga bir necha bor urinib koʻrdi, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchradi.



- ◆ Misrda XVIII–XIX asrlar chegarasida ...
- ◆ 1867-yili ...
- ◆ Abdulqodir faoliyati ...
- ◆ XIX asrning 90-yillarida ...

Mustamlakachilar Afrikaning harbiy-texnik jihatdan qoloqligidan, uning xalqlari tarqoq ekanligidan, qabilalar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlardan ustalik bilan foydalandilar.

XIX asrning 70-yillarida Afrikaning ichkarisidagi katta maydonlar hali yevropaliklarga deyarli noma'lum edi.

Bu hududlarning Yevropa davlatlari o'rtasida mustamlaka sifatida taqsimlanishi XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida tugallandi.

XIX asr Afrika qit'asini Yevropa davlatlari tomonidan mustamlakaga aylantirish davri bo'ldi. Asr oxiriga kelib, Afrikani bosib olish, asosan, yakunlandi. O'z vatanini va mustaqilligini himoya qilgan yuz minglab afrikaliklar mustamlakachilar bilan bo'lgan tengsiz janglarda halok bo'ldilar. Mustamlakachilar esa qit'aning tabiiy boyliklarini talash, aholisini shafqatsiz ekspluatatsiya qilish natijasida cheksiz boyliklar orttirib, Yevropani yuksaltirishga hissa qo'shdilar.



Mamluklar – asosan, qullikka aylantirilgan Gruziya va Shimoliy Kavkaz aholisi.

Burlar – Janubiy Afrikadagi golland, fransuz va nemis mustamlakachilarning avlodlari.



1. Afrika qit'asi xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda boshqa qit'a xalqlaridan orqada qolib ketganligi sabablari haqidagi o'z mulohazalaringizni daftaringizga qayd eting.
2. Afrika qay tariqa mustamlakaga aylantirildi?
3. Afrika xalqlarining milliy-ozodlik harakatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Jazoir aholisining fransuz mustamlakachilariga qarshilik harakatini kim boshqargan?



Ijodiy ish topshirig'i

Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining mustamlakalarga aylantirilishi va ularning milliy-ozodlik kurashi jarayonining umumiy hamda farq qiluvchi jihatlarini taqqoslang. Barcha ma'lumotlarni daftaringizda murakkab krossvord holatiga keltiring.



Mavzuga oid Piter Abraxamsning «Qabrdagi gulchambar» romanini o'qing va taassurotlaringizni esse shaklida daftaringizga yozing.

XULOSA

Aziz o'quvchilar! Siz jahon tarixi Yangi davrining 1870-yilgacha bo'lgan bosqichi voqealari bilan tanishdingiz. Bu davrda Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida O'rta asrchilik asta-sekin Yangi davr bilan, feodal tartiblar yangi, burjuacha hayot tarzi bilan almashganligini ko'rib chiqdik.

Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va madaniy hayotda yangi jihatlar paydo bo'ldi.

Siyosiy sohada katta o'zgarishlar – absolut monarxiya va milliy davlatlarning shakllanishi va mustahkamlanish jarayoni yuz berdi. Ayni paytda G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining dastlabki belgilari paydo bo'ldi.

Insonning ma'naviy dunyosida ham o'zgarishlar yuz berdi. Fan va madaniyatning yangi yutuqlari kishilar hayotiga kirib bordi. Universitet va maktablarning soni ko'paydi, xonadonlarda kitoblar, gazetalar paydo bo'ldi. Natijada, kishilar asta-sekin diniy aqidalar ta'siridan ozod bo'la boshladi. Diniy ongning hukmronligi saqlanib qolgan joylarda ham endi uni isloh qilish lozimligi haqidagi g'oyalar paydo bo'ldi.

Yevropada XVII–XVIII asrlarning dunyoqarashi sifatida **Gumanizm, Reformatsiya va Ma'rifat g'oyalari** shakllandi. Har bir keyingi ta'limot o'zidan oldingisining ilg'or g'oyalari asrab qoldi va ularning hammasi insonning «yashashga, ozodlikka va mulkka» bo'lgan huquqlarini ta'minlashga intildi.

Ammo Lotin Amerikasi, Osiyo va Afrika xalqlarining o'z ozodligi, qadr-qimmati va mustaqilligi uchun kurashi ham, ularda demokratik tushunchalarning shakllanishi ham aynan Yangi davrda boshlandi.

Shu ma'noda, Yevropa va Shimoliy Amerikada XIX asrda g'alaba qozongan industrial sivilizatsiya va unda mujassamlashgan umuminsoniy qadriyatlar dunyodagi barcha xalqlar kurashining mazmuniga aylandi.

Bu kurash jarayoni va uning natijalari bilan siz keyingi sinflarda tanishasiz.

MUNDARIJA

Kirish. Yangi davrning boshlanishi.....	3
---	---

I BOB. YEVROPADA YANGI DAVRNING SHAKLLANISHI

1-mavzu: Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati.....	7
2-mavzu: Yangi davr boshlarida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida industrial jamiyatning shakllanishi.....	13
3-mavzu: Yevropada Reformatsiya.....	18
4-mavzu: G‘arbiy Yevropada Yangi davr madaniyatining shakllanishi.....	22

II BOB. XVI–XVIII ASRLARDA YEVROPA VA AMERIKA MAMLAKATLARI

5-mavzu: Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi. XVII asrdagi Angliya burjua inqilobi.....	28
6-mavzu: XVI–XVIII asrlarda xalqaro munosabatlar.....	34
7-mavzu: Fransiyada mutlaq monarxiya. Buyuk fransuz burjua inqilobi	37
8-mavzu: Buyuk fransuz burjua inqilobining yakunlanishi va tarixiy ahamiyati.....	42
9-mavzu: XVI–XVIII asrlarda Germaniya imperiyasi.....	45
10-mavzu: XVI–XVIII asrlarda Rossiya imperiyasi.....	49
11-mavzu: XVIII asrda Shimoliy Amerika. Amerika Qo‘shma Shtatlarining tashkil topishi.....	54
12-mavzu: Ma‘rifat asri.....	59

III BOB. XVI–XVIII ASRLARDA OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI

13-mavzu: XVI–XVIII asrlarda Osiyo mamlakatlari rivojlanishining asosiy xususiyatlari...65	
14-mavzu: XVI–XVIII asrlarda Xitoy.....	69
15-mavzu: XVI–XVIII asrlarda Hindiston.....	73
16-mavzu: XVI–XVIII asrlarda Yaponiya va Koreya.....	79
17-mavzu: XVI–XVIII asrlarda Usmoniylar imperiyasi	84
18-mavzu: XVI–XVIII asrlarda Eron.....	88
19-mavzu: XVI–XVIII asrlarda Afrika mamlakatlari.....	92

**IV BOB. 1800–1870-YILLARDA YEVROPA VA
AMERIKA MAMLAKATLARI**

<i>20-mavzu:</i> 1800–1870-yillarda Buyuk Britaniya.....	97
<i>21-mavzu:</i> 1800–1870-yillarda Fransiya.....	101
<i>22-mavzu:</i> 1800–1870-yillarda Germaniya va Italiya.....	107
<i>23-mavzu:</i> 1800–1870-yillarda Rossiya.....	110
<i>24-mavzu:</i> 1800–1870-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlari.....	115
<i>25-mavzu:</i> Lotin Amerikasi xalqlarining milliy-ozodlik kurashi.....	120

**V BOB. 1800–1870-YILLARDA OSIYO VA AFRIKA
MAMLAKATLARI**

<i>26-mavzu:</i> 1800–1870-yillarda Hindiston.....	126
<i>27-mavzu:</i> 1800–1870-yillarda Xitoy.....	130
<i>28-mavzu:</i> 1800–1870-yillarda Yaponiya.....	134
<i>29-mavzu:</i> 1800–1870-yillarda Koreya.....	138
<i>30-mavzu:</i> 1800–1870-yillarda Usmoniylar imperiyasi.....	142
<i>31-mavzu:</i> 1800–1870-yillarda Eron va Afg‘oniston.....	145
<i>32-mavzu:</i> 1800–1870-yillarda Afrika xalqlari.....	151
Xulosa.....	156

**RAHMON FARMONOVICH FARMONOV,
USMON TOSHPO‘LATOVICH JO‘RAYEV,
SHUHRAT ERGASHEVICH ERGASHEV**

JAHON TARIXI
(XVI–XIX asrning 60-yillari)

*Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining
VIII sinf o‘quvchilari uchun darslik*

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan to‘rtinchi nashri

Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2019

Muharrir **Dildora Abduraimova**
Badiiy muharrir **Maftuna Vaxxobova**
Texnik muharrir **Yelena Tolochko**
Musahhah **Dildora Abduraimova**
Matn teruvchi **Gulchehra Azizova**

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2019-yil 7-mayda ruxsat etildi. Bichimi 70×90¹/₁₆. Ofset qog‘ozi. Times TAD garniturası. Kegli 11. Shartli bosma tabog‘i 11,70. Nashr tabog‘i 9,72. Adadi 506 584 nusxa. Shartnoma № 72–2019. Buyurtma № 19-138.

Original maket Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida tayyorlandi. 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: +998-71244-10-45. Faks: +998-71244-58-55.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Farmonov R.

F 91 Jahon tarixi [Matn]: O‘rta ta‘lim muassasalarining 8-sinf o‘quvchilari uchun darslik / R. Farmonov va boshq. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019. – 160 b.
ISBN 978-9943-05-620-6

UO‘K 94(100)
KBK 63.3(0)51ya721

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T. r.	O'quvchining ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqalar yo'q
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi